

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ
УНИВЕРСИТЕТИ**

Қўлёзма ҳуқуқида
УДК

АТАУЛЛО СИТОРАБОНУ

**ИНГЛИЗ, УЗБЕК ВА РУС ХИКОЯЛАРИДА ИЖТИМОИЙ ҲАЁТ
ТАСВИРИ (КЕТРИН МЕНСФИЛД, АБДУЛЛА КАХХОР, А. ЧЕХОВ
ХИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА)**

Лингвистика – 5А120102(инглиз тили)

Магистрлик академик унвонини олиш учун ёзилган

ДИССЕРТАЦИЯ

Иш кўриб чиқилди ва
муҳокамага тақдим этилди

Кафедра мудири
ф.ф.н., доцент М.Р.Галиева
“ _____ ” 2016 йил

Илмий раҳбар:
Катта ўқитувчи Махмудова Н.А.

Тошкент - 2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

Fakultet: 3-ingliztili

Magistratura talabasi: Ataullo S.N.

Kafedra: Lingvistika va ingliz adabiyoti

Ilmiy rahbar: Mahmudova N. A.

O'quv yili: 2015-2016

Mutaxassisligi: 5A120102

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi. Tadqiqot ingliz, rus va o'zbek hikoyanavisligida ijtimoiy hayot tasvirining qiyosiy tahlilini o'tkazishdan iborat bo'lib, tadqiqot qiyosiy adabiyot sohasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi ingliz, rus va o'zbek hikoyanavislari hikoyalarini qiyosiy tahlil qilish, o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib berish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti ingliz, rus va o'zbek yozuvchilarining ijtimoiy hayot tasvirlangan hikoyalarining qiyosiy tahlili bo'lsa, uning predmeti ingliz, rus va o'zbek yozuvchilarining tahlil qilish uchun tanlab olingan bir nechta hikoyalari.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari: taqqoslash, tasniflash, qiyosiy – chog'ishtirma metod, komparativ tipologik metod.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi. Mazkur dissertatsiyaning ilmiy yangiligi ingliz, rus va o'zbek ijtimoiy yo'nalishdagi hikoyalaridagi o'xshash va farqli tomonlarini qiyosiy tahlil asosida aniqlashga qaratilganligidadir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati va tatbiqi. Tadqiqot natijalaridan adabiyot va qiyosiy adabiyot kabi fan va kurslar bo'yicha ma'ruza, hamda seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, dissertatsiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar yozishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya natijalaridan qiyosiy adabiyot fanidan ma'ruza, hamda amaliy mashg'ulot darslarni olib borishda foydalanilmoqda.

Ish tuzilishi va tarkibi. Mazkur ish kirish, 3 bob, xulosalar qismi va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: 1) qiyosiy tahlil metodi ishlab chiqildi; 2) ingliz, rus va o'zbek yozuvchilari ijodidan namunalar tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi; 3) ingliz, rus va o'zbek yozuvchilarining hikoyalaridagi asosiy mavzular aniqlandi.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashmasi: ingliz, rus va o'zbek hikoyalarida ijtimoiy hayot tasviri insonlar hayoti va jamiyatdagi muammolarni yoritib berishda va unga yechim topishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Bular yordamida faqat ijtimoiy muammolarni emas, balki, yozuvchilarning yozish uslubi va ularning o'xshash jihatlari haqidagi ko'plab yangiliklarni kashf etamiz. Yozuvchilarning boshqa mavzuga doir hikoyalari va bunday hikoyalarni yanada chuqurroq taqqoslab o'rganish kelgusi izlanishlar uchun davom ettirilishi mumkin.

Ilmiy rahbar
Magistratura talabasi

Mahmudova N.A., katta o'qituvchi
Ataullo Sitorabonu N.

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
UZBEKSTATEWORLDLANGUAGESUNIVERSITY**

Faculty: III English language

Department: Linguistics and English Literature

Year: 2015-2016

Master's student: Ataullo S. N.

Scientific adviser: A.N. Makhmudova

Specialty: 5A120102

Topicality of the research is defined by the followings: 1) it is done in the framework of Comparative literature; 2) by the absence of comparative researches of English, Russian and Uzbek short stories which were written in different historical period; 3) by the absence of researches devoted to the investigation of comparative analysis of English, Russian and Uzbek short story writers.

Aim and tasks of research is to compare a Uzbek, Russian and English short stories and find out similarities and differences.

Subject and object of research: comparative analysis of short stories by English, Russian and Uzbek short story writers W Mansfield, A Qakhhar, A. Chekhov.

Methods of research are generalizations, classification, descriptive analysis and comparative method.

The degree of novelty of the research is determined by the fact that this is the first investigation devoted to the identification of similar and different features of English, Russian and Uzbek short stories interconnected through time and space.

Practical value of the research is that the materials of the research can be used in delivering lectures and practical lessons on Comparative Literature and Literature Studies as well as in writing research works, text books and manuals.

The results obtained: a complex method of comparative analysis has been worked out; 2) the works of English, Russian and Uzbek short story writers have been compared and similarities and differences have been revealed; 3) the main topics of A.P. Chekhov, Katherine Mansfield and Abdulla Kahhars' short stories have been determined.

The structure of the dissertation. It consists of introduction, three chapters, conclusion and the list of used literature.

General summary and recommendations. Social description in English, Russian and Uzbek short stories is essential to reveal and to solve social problems of society in different countries. According to this description we can also determine writers' writing style and their similarities. The dissertation can be continued as PhD dissertation by making further investigation of stylistic, cultural and other features of short story genre.

Scientific adviser:

Master's student:

Makhmudova N.A.

Ataullo Sitorabonu N.

Mundarija

	KIRISH	
I	BOB. HIKOYA ADABIYOT JANRI SIFATIDA	
1.1	Hikoyaning janriy xususiyatlari.....	
1.2	Ingliz, o'zbek va rus adabiyotida hikoya janrining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari.....	
1.3	Qiyosiy adabiyotshunoslik asosiy tamoyillarining hikoya janrida qo'llash masalalari.....	
	1 bob xulosalari.....	
II	INGLIZ, O'ZBEK VA RUS ADABIYOTLARDA HIKOYA JANR NAMOYONDALAR UCHLIGI	
2.1	Anton Pavlovich Chexovning Rossiya va jahon hikoya janriga ta'siri.....	
2.2	O'zbek hikoya janrining rivojlanishida Abdulla Qahhorning roli.....	
2.3	Ketrin Mensfild "Ingliz Chexovi" sifatida.....	
	2bob xulosalari.....	
III	INGLIZ, O'ZBEK VA RUS HIKOYALARINING ASOSIY MAVZU, MOTIV VA USLUBIY JIHATLARI.	
3.1	Qo'rquv va umidsizlik (A. Qahhor "Dahshat", A. Chexov "Страх", K. Mensfild "The little governess").....	
3.2	A. P. Chexovning "Спать хочется" hamda K. Mensfildning "The child who was tired" hikoyalarining o'xshash va farqli jihatlari.	
	3 bob xulosalari.....	
	YAKUNIY XULOSA	
	ADABIYOTLAR RO'YXATI	

KIRISH

Ma'lumki, dunyoda juda ko'p millatlar va xalqlar yashaydi. Har bir millat o'z an'analari, mentaliteti va dunyoqarashiga ega. Agar biz biror bir xalqning dunyoqarashi yoki mentaliteti bilan tanishmoqchi bo'lsak, albatta bu xalqning yozuvchilari ijod qilgan adabiyotiga murojaat qilamiz. Chunki, yozuvchilar asarlarini o'z xalqlari dunyoqarashidan kelib chiqib yozadilar. Shu boisdan, har bir millat adabiyoti o'ziga xoslikka egadir. Shu o'rinda badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli sifatida jamiyat hayoti va uning taraqqiyotida muhim o'rin tutishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Har bir davrda yaratilgan badiiy asar shu davr hayotining muhim qirralarini qamrab oladi. Inson ma'naviy olamini kashf etishda so'z san'ati, jumladan badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Zotan, adabiyot inson ruhiyati, his tuyg'ulari, tafakkurini, ma'naviy dunyosini boyitishda eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari “ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ” asarida badiiy adabiyotning o'ziga xos jihatlari va boy imkoniyatlari haqida so'z yuritganlar: “ Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa, millat yashaydi ”¹, - deb ta'kidlaydilar.

Ushbu ilmiy ish ingliz, rus va o'zbek adabiyoti vakillari A.P. Chexov, K. Mensfild va A. Qahhor ijodini qiyosiy taqqoslashga bag'ishlanadi. Ilmiy ish mavzusi “ Ingliz, o'zbek va rus hikoyalarida ijtimoiy hayot tasviri (Ketrin Mensfild, Abdulla Qahhor, A. Chexov hikoyalari misolida) ”.

Mavzuning dolzarbligi: Adabiyotda hikoya janri paydo bo'libdiki, u jamiyat foydasi uchun, insonlarning ma'naviy hayotini yuksaltirish uchun, umuminsoniy qadriyatlarni tiklash uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy yo'nalishda yozilgan

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. : Ma'naviyat, 2008

hikoyalarni bamisoli jamiyat hayotining ko'zgusi deb atasak bo'ladi. Uzoq ming yillar tarixi shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi eng avvalo ma'naviyat va ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallaganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu azaliy an'anaga mustaqillik yillarida ham alohida e'tibor berilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Qayd etish lozimki, istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab, madaniyat va ma'rifatga e'tibor kuchaydi. Eng avvalo Prezident I. A. Karimovning ma'naviy-ma'rifiy omillarga nisbatan munosabati shakllandi. “ Milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish strategik vazifalarimizdan hisoblanadi ”. “ Adabiyot masalasi – bu ma'naviyat masalasidir ”². Ana shu vazifani ijro etishda san'at asarlarining o'rni beqiyosdir. San'at ijtimoiy hodisa sifatida voqelikni badiiy bilish va anglash jarayonida uning voqelikni badiiy tasvirli shaklda anglash manbalaridan biri hisoblanadi. Adabiyotni qiyosiy jihatdan tahlil qilib o'rganish esa bu vazifani amalga oshirishni yanada osonlashtiradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ketrin Mensfildijodi ingliz adabiyotida o'ziga xos mustahkam o'ringa ega. Shu sababli uning asarlari hamisha adabiyotshunoslarning diqqat markazida bo'lgan. Ijodi ular tomonidan izchil o'rganilgan. Berkmen S. “Katherine Mansfield: a critical study”, Alpers A. “ Katherine Mansfield: a biography ”, Kobler J. F. “Katherine Mansfield: a study of the short fiction” kabilar shular jumlasidandir.

Abdulla Qahhor ijodi haqida o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan Abdusamatovning “Abdulla Qahhor”, M.Sultonovning “Abdulla Qahhor uslubining ba'zi masalalari”, “Yozuvchi uslubiga doir”, M.Qo'shjonov, U.Normatovning “Mahorat sirlari”, M.Qo'shjonovning “Hayot va nafosat”, “Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor”, “Abdulla Qahhor mahorati” kabi asarlar yozilgan. Ma'lumki, Qahhor o'zbek hikoyanavisligida o'ziga xos maktab yaratgan ijodkor. Shu sababli uning asarlari hamisha adabiyotshunoslar diqqat markazida bo'lgan.

²Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – risola. 2009 <http://e-adabiyot.uz>

Chexov ijodini o'rgangan olimlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Jumladan, Lev Tolstoy, I. Gurvich, V. Yermilov, A. Qahhor kabi adabiyotshunos olimlar Chexov ijodi to'g'risida bir qancha asarlar yaratganlar.

Ammo, bu uchala yozuvchining hikoyalari shu kungacha qiyoslab o'rganilmagan.

Ishning maqsadi. Ingliz, rus va o'zbek hikoyalarini qiyosiy tahlil qilish, o'xshashlik va farqlarini ko'rsatib berish.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar ilgari surildi:

- Hikoyaning janriy xususiyatlari;
- Ingliz, o'zbek va rus adabiyotida hikoya janrining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari;
- Rossiya va jahon hikoya janriga A. P. Chexovning ta'siri;
- O'zbek hikoya janrining rivojlanishida Abdulla Qahhorning roli;
- K. Mensfildning Ingliz hikoyanavisligiga qo'shgan hissasi;
- Ingliz, o'zbek va rus hikoyalarining asosiy mavzulari va g'oyalari;
- Mensfild, Chexov va Qahhorning o'xshash hikoyalarining o'xshash va farqli jihatlari.

Tadqiqot obyekti ingliz, o'zbek va rus hikoyalarining qiyosiy tahlili.

Tadqiqotning predmeti Ketrin Mensfild, Anton Chexov va Abdulla Qahhor ijod namunalarini tahlil qilish uchun tanlab olingan bir nechta hikoyalar.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotimizdagi uch yozuvchi turli xil davrlarda, turli hududlarda, bir-biridan keskin farq qiluvchi madaniyat va mentalitetga ega bo'lgan jamiyatda yashab ijod qilganliklariga qaramasdan, ularni jamiyat foydasini ko'zlovchi, insoniyat manfaatiga xizmat qiluvchi ijtimoiy muammolarni yoritib beruvchi mavzu va g'oyalar mushtarakligi birlashtirib turadi.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari: taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash-klassifikatsiya, qiyosiy-chog'ishtirma metod, komparativ tipologik metod.

Magistrlik dissertatsiyasining metodologiyasi. Jirmunskiy B. M. "Сравнительное литературоведение", M. K. Nurmuhamedovning "Adabiyotnazariyasi", Matyoqub Qo'shjonovning "Abdulla Qahhormahorati", L.

Volodarskaya“ Менсфилдие рассказы kabi asarlardagi mulohazalar ishniy oz ishda metodologik asos bo'lib xizmatqildi, shubilanbirga, qiyosiy tahlil metodiga asoslanib ingliz, o'zbek va rus hikoyalarini qiyosiy tahlil qilish, o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib berishga harakat qildik.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi.

Ingliz, o'zbek va rus hikoyalaridagi o'xshash va farqli tomonlarni qiyosiy tahlil asosida aniqlash uchun quyidagilar amalga oshirildi:

- Ingliz, o'zbek va rus kichik hikoya janrining nazariy jihatlari aniqlandi va qiyoslandi;

-, Ketrin Mensfild, Abdulla Qahhor va Chexov ijodidagi o'xshash va farq qiluvchi qirralari turli adabiy metodlar asosida aniqlandi.

Tadqiqot materiali sifatida Ketrin Mensfild, Abdulla Qahhor va Chexov ijod namunalari, ilmiy adabiyotlar xizmat qildi, ya'ni Berkmen S. “Katherine Mansfield: a critical study”, Alpers A. “ Katherine Mansfield: a biography ”; M.Qo'shjonov, U.Normatovning “Mahorat sirlari”, M.Qo'shjonovning “Hayot va nafosat”, “Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor”, “Abdulla Qahhor mahorati”; Lev Tolstoy, I. Gurvich, V. Yermilov, A. Qahhor kabi adabiyotshunos olimlarning ayrim asarlari va boshqalar. Hikoyalar yozuvchilarning kitoblaridan olindi, bundan tashqari izlanish davomida gazeta, adabiy jurnal, ensiklopediya, adabiy lug'atlar, izohli lug'atlar, adabiyot kitoblari va internet saytlaridan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasi nazariy ahamiyatga ega bo'lib, bunda Ketrin Mensfild Abdulla Qahhor va Chexov ijodidagi o'xshash hikoyalarning o'ziga xos xususiyatlari, o'xshash va farqli tomonlari qiyosiy adabiyot sohasida yangi, hali o'rganilmagan sohani o'rganishga keng yo'l ochib beradi u haqidagi ma'lumotlarning ko'payishiga olib keladi. Bu ishning asosiy nazariy yutug'i.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan adabiyot va qiyosiy adabiyot kabi fan va kurslar bo'yicha ma'ruza hamda seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, dissertatsiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Ilmiy izlanishlarimiz natijalarini ilmiy to’plamlarda ikkita maqola sifatida chop ettirganmiz: 1. “ Ingliz, Rus va O’zbek hikoyanavisligida an’ana va mahorat ” nomli maqola IV-Ilmiy-Amaliy Konferensiya, 27-may 2015-yil. 2. “ Ketrin Mensfildning hayoti va adbiy merosi ” nomli maqola V-Ilmiy-Amaliy Konferensiya, 4-may 2016-yil.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi: magistrlik dissertatsiyasi yozish talablariga ko’ra, ushbu ish 3 bob, kirish, xulosa qismi va adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Kirish qismida tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligi va yangiligi ochib berildi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari belgilandi, materiallar, tahlil metodlari aniqlandi.

Birinchi bobda ingliz, o’zbek va rus kichik hikoya janrining rivojlanish bosqichlariga umumiy xarakteristika berildi, ya’ni hikoya janrining o’ziga xos muammolari va ingliz, o’zbek, rus hikoyanavisligining shakllanishi va taraqqiyoti

Ikkinchi bobda Ketrin Mensfild, Abdulla Qahhor va Chexovning hayot va ijod yo’llari, yozgan hikoyalarida ilgari surilgan mavzu va muammolar, hikoya yozish uslublari va o’ziga xos jihatlari tadqiq etildi.

Uchinchi bobda Mensfild, Qahhor va Chexov ijodidagi o’xshash hikoyalar qiyosiy tahlil etiladi. Ularning asosiy mavzu va g’oyalari aniqlanib, o’xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

I BOB. HIKOYA ADABIYOT JANRI SIFATIDA

1.1 HIKOYANING JANRIY XUSUSIYATLARI

Adabiy izlanishlarga ko'ra, kichik hikoya janrining bir necha xil ta'riflari mavjud. Vebstersning "New World College Dictionary" lug'ati kichik hikoyani shunday ta'riflaydi va yagona aniq mavzuga asoslanganligi bilan ifodalanadi.³ : "Bunday hikoya novelladan qisqaroq bo'lib, sanoqli xarakterlar bilan cheklanadi

Ingliz tilining "The American Heritage Dictionary" lug'ati esa uni shunday ta'riflaydi: "Nasriy adabiotning qisqa bo'lagi bo'lib, bir necha xarakterlarga ega va bir necha maqsadlar birligini amalga oshirishni ko'zda tutadi."⁴

Internet manbalaridagi ta'riflar esa quyidagicha:

- "Kichik hikoya, odatda, nasrda yozilgan, qisqacha adabiy ish sifatida ta'riflanadi"⁵;
- "Kichik hikoya yangi kashf etilgan, novelladan qisqaroq nasriy janr bo'lib, bir necha xarakterlarni o'z ichiga oladi va mazmunga nisbatan kayfiyat yaratishga qaratiladi"⁶;
- "Kichik hikoya, novelladan kichik, qisqa adabiy-nasriy asar bo'lib, odatda, faqat bir nechta xarakterlar bilan kifoyalanadi"⁷.

"The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" nomli adabiy terminlar lug'atining aniqlashicha, "Kichik hikoya bu novellaga o'xshash, uzun hajmga ega bo'lmagan adabiy nasriy hikoyadir, o'zini alohida kitob qilib chop etishga esa juda qisqadir. Bunday hikoya, odatda, bir yoki ikki qahramon ishtirokidagi yagona bir voqeaga asoslanadi hamda ijtimoiy manbaga tayanadi. Ma'lumki, qadimda hikoyaga o'xshash qadimiy adabiy turlar mavjud bo'lgan: ertak, afsona, xalq og'zaki ijodi, diniy o'gitlar (parables), fablio (Shimoliy Fransiyada 12-13-asrlarda paydo bo'lgan ertak, hikoya) kabilar. Ammo, kichik hikoya janri 19-asr hamda 20-asr boshlarida jurnallarda chop etilib, gullab-

³Webster's New World College Dictionary Copyright © 2010 by Wiley Publishing, Inc., Cleveland, Ohio.

⁴The American Heritage® Dictionary of the English Language, 5th edition Copyright © 2013 by Houghton Mifflin Harcourt Publishing Company. Published by Houghton Mifflin Harcourt Publishing Company.

⁵<http://study.com/academy/lesson/short-stories-definition-characteristics-examples.html>

⁶<http://www.merriam-webster.com/dictionary/short%20story>

⁷<http://www.britannica.com/art/short-story>

yashnaydi, ayniqsa, o'zining alohida mustahkam an'analariga ega bo'lgan AQSH da ".⁸

Shunday ekan, biz mana shu "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms " lug'atida keltirib o'tilgan ta'rifni to'liq hamda aniq-ravshan deb hisoblaymiz.

Kichik hikoya janrining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat ⁹ :

- Hajmi(uzunligi) : Bu kichik hikoyaning eng bahslashuvga sabab bo'lgan xususiyatlaridan biridir. Shunday bo'lsa ham mualliflar hamda tanqidchilar tomonidan yakuniy xulosaga kelingan va bunday hikoya hajmi 1600 so'zdan 20000 so'zgacha bo'lishi kerak deb belgilangan. Shunga qaramasdan, bunday hajmdan kichikroq va kattaroq hikoyalarni ham uchratishimiz mumkin.

- Nomi va mavzusi : Kichik hikoyaning mavzusi turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni ilhomlanib yozilgan hikoya yoki kundalik topshiriq qilib berilgan mavzu bo'yicha yozilgan hikoya. Mavzu hikoyaning ma'nosini belgilashga xizmat qiladi. Hikoya o'qilganda birdan ortiq mavzu, ya'ni nom kelib chiqishi mumkin, albatta, bu o'quvchining ijodiy yondashuviga bog'liq. Faqat bir narsani anglash lozimki, hikoyaning nomi butun hikoyani bildirmaydi, buning ostida yashirin ma'nosi bo'lishi mumkin. Odatda, mualliflar hikoyani xayollaridagi nom bilan atashmaydi. Ular fikrni o'zlarining qahramon yaratishda tug'ilgan ilhomlaridan oladilar. Bu qahramonlar esa hikoya betlarida yashaydi, ular hikoyani muallif hatto xayoliga keltirmagan joylarga olib borishi mumkin.

- Mazmuni : Kichik hikoya ko'pincha bir xil tuzilishga ega bo'ladi va oldindan hech qanday ma'lumot bermay turib, keskin voqea bilan boshlanadi. Xuddi uning boshlanishi kabi voqealar qisqa vaqt ichida oxiriga borib qoladi. Hikoya boshidan oxirigacha bir-birining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi voqealar ketma-ketligidan tashkil topgan bo'ladi. Hikoyani boshidan oxiriga tomon

⁸ The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. Chris Baldick. Oxford University PRESS 2001 291 p p 236

⁹http://users.aber.ac.uk/jpm/ellsa/ellsa_elements.html

harakatlantirishning bir necha yo'llari bor. Eng umumlashgan hikoya tuzilishida voqealar rivoji ekspozitsiyadan kulminatsiya tomon harakatning rivojlanib borishi orqali o'tib boradi va yechim bilan yakunlanadi. Ekspozitsiyada biz bosh qahramon yoki protagonist bilan yaqindan tanishtirilamiz. Hikoyadagi muammo yoki konflikt esa bizga uni jadallashtirish uchun xizmat qiladi. Bunday konflikt tashqi, ya'ni qahramon va uning oila a'zolaridan biri o'rtasida yoki qahramon va tabiat o'rtasida bo'lishi mumkin hamda muammo ichki, ya'ni qahramonning o'z burchiga nisbatan tuyg'ulari va bunday og'ir mas'uliyatdan ozod bo'lish istagi o'rtasida bo'lishi mumkin. Murakkab hikoyalarda ko'pincha ikkala, ya'ni tashqi va ichki konflikt birgalikda keladi. Shunday qilib, konflikt hikoyani voqeaning tobora rivojlanib borishi orqali kulminatsiyaga yoki voqeaning eng yuqori cho'qqisiga yetaklab boradi. Albatta, barcha hikoyalar ham biz yuqorida aytib o'tgan ketma-ketlikda kelmaydi. Ayrim hikoyalar voqeaning eng qiziq, baland nuqtasidan boshlanishi mumkin. Bunday hikoyalar hikoya davomida qahramonlar o'rtasidagi dialog va boshqa tasvirlar orqali to'ldirib boriladi. Yana boshqa usulda esa avval hikoyaning oxiri bayon etiladi, ya'ni o'quvchi diqqatini voqeaning sabablari hamda motivlariga qaratish uchun hikoya yakunidan boshlanadi. Hikoya mazmuni qanday tuzilishga ega bo'lmasin, albatta, unda qahramon va muammo yuzlashtiriladi.

- Qahramonlarning chegaralangan soni : Yagona qahramon bilan hech qachon kichik hikoyani to'liq rivojlantirib bo'lmaydi, chunki voqeani ochib berish uchun juda qisqa vaqt berilgan bo'ladi. Hikoyada yigirmadan kamroq yoki ko'proq qahramon bo'lishi mumkin, albatta bosh qahramonning qarindoshlari, yaqinlarini inobatga olgan holda. Xarakteristika, ya'ni hikoyada ishonarli xarakterlarni shakllantirish muallifning eng asosiy vazifasidir. Muallif qahramon fe'l-atvori xususiyatlariga aniq ta'rif bermay turib, uni qahramonning harakatlari, gapirish uslubi, xayollari, tuyg'ulari va boshqa insonlar bilan bo'lgan muloqoti orqali ham ifodalab berishi mumkin. Hikoya tipiga ko'ra qahramon muallif tomonidan o'ylab topilgan yoki real hayotdan olingan yoki vakil sifatida so'zlab beruvchi sifatida

tasvirlanishi mumkin. Albatta, qahramonning bosh yoki ikkinchi darajali ekanligini aniqlab olish muhimdir. Hikoyadagi voqea qahramon tomonidan soʻzlab berilishiga koʻra ham uch turga boʻlinadi : birinchi shaxs, uchinchi shaxs chegaralangan va uchinchi shaxs “ omniscient ”, yaʼni “ hammasini biluvchi “. Birinchi shaxsda yozuvchi “ Men ” deb gapiradi va oʻzining shaxsiy hikoyasini soʻzlab beradi. Uchinchi shaxs chegaralangan boʻlsa, hikoyadagi bir xarakter boʻlib, boʻlayotgan voqealarni koʻradi, eshitadi va biladi. U boʻlayotgan voqealar va boshqa xarakterlar haqida qisman maʼlumotga ega boʻladi. Uchinchi shaxs “ omniscient “ esa hammasini koʻrib turib, hikoyaning har bir jabhasida oʻz fikrini bildiradi, chunki u hikoya qahramoni emas, unda qatnashmaydi.

- Zamon va makon : Bu hikoyaning qachon va qayerda boʻlib oʻtishidir. Albatta, bu juda muhim, chunki atrof-muhit hikoyada nima sodir boʻlishiga juda katta taʼsir koʻrsatadi. Tashqi muhit faqatgina voqealarga emas, balki qahramonlarning munosabatlariga ham taʼsir koʻrsatadi. Hikoyadagi sharoit qahramonlar gapirishi va oʻzini tutishini shakllantirishda ham yordam beradi.¹⁰

Kichik hikoya, janr sifatida biroz tanqidiy eʼtibor bilan qabul qilindi. Shu oʻrinda olimlar fikriga yuzlansak ,Norvegiya adabiyotshunosi Xuan Rulfo hikoya janri haqida quyidagi fikrlarni bildiradi :

¹⁰http://users.aber.ac.uk/jpm/ellsa/ellsa_elements.html

“ Mening nazarimda hikoya romandan ham qiyin va mas’uliyatli janrdir. Chunki, hikoyada juda katta voqealarni ham lo’nda tarzda bayon etish, o’zingni chegaralab, qisqalikka intilish kerak bo’ladi. Boshqalar 200 sahifada aytmoqchi bo’lganini hikoyachi 5-6, nari borsa 10 sahifaga sig’dirishi kerak. Buning uchun yozuvchidan juda katta mahorat talab qilinadi. Hikoyada aniq maqsad qisqa, lo’nda bayon qilinadi. Yozuvchi har qancha intellektual salohiyat egasi bo’lmasin, o’quvchiga o’z hukmini o’tkazishga, ularni o’zi istagandek yashashga majbur qilishga haqqi yo’q. Ijodkor buni anglab yetsa, shuning o’zi katta gap. ”

Xuan Rulfo aytganidek, hikoya yozish ancha-muncha mashaqqat talab qiluvchi mas’uliyatli ishdir. Chunki u hajm jihatidan boshqa janrlarga nisbatan qisqaligi bilan ajralib turadi. Shunday qisqa hikoyaning ichida yozuvchi ham voqea-hodisani, ham qahramonning ichki kechinmalarini, ham o’zi kutgan maqsadga olib boruvchi muammoli vaziyatni, o’quvchi diqqatini jalb etuvchi muhim g’oyani ifodalab berishi lozimdir. Bulardan tashqari, janrning yana bir qancha qonuniyatlari, mashaqqatlari mavjud. Bizningcha, shu sababli ham hikoya o’quvchilar diqqatini tez jalb qiladi va ularga zavq baxsh etadi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, hikoya janrida ijod qilgan va uni rivojlantirishga o’z hissasini qo’shgan yozuvchilar ko’pchilikni tashkil etadi. Masalan, jahon adabiyotida hikoya janrining rivojlanishiga italyan yozuvchisi Bokachcho “ Dekameron ” asari bilan katta hissa qo’shgan. Ushbu asarda 7 qiz va 3 yigitning 10 kun davomida aytgan 100 ta hikoyasi berilgan. Hikoyani yuksak taraqqiyot bosqichiga ko’targan noyob iste’dod sohiblari Gi de Mopassan (Fransuz), O.Genri (Amerika), A. P. Chexov (rus), A. Qodiriy, Cho’lpon (o’zbek) kabi buyuk yozuvchilar hikoya janrining asoschilari hisoblanishadi.

Yevropa adabiyotida hikoya novella deb ham yuritiladi. Jahon adabiyoti maydonida novella italyancha “ yangilik” degan ma’noni ifodalaydi. J.London, S.Sveyg, P.Merime, H.Hesse, O.Genri, Mopassan kabi adiblarni yirik hajmli asarlaridan ko’ra ham hikoyalari ko’proq mashhur qilgan .

Jahon adabiyoti tarixiga ko’z tashlaganimizda, A.P.Chexov, S.Moem, J.London, H.Hesse, O.Genri singari mashhur hikoyanavislar bilan bir qatorda

L.N.Tolstoy, U.Folkner, M.Sholoxov kabi bu janrga kamroq murojaat qilgan, ammo bir-ikki hikoyasi misolida betakror san'at namunasini meros qoldirgan yozuvchilar ham uchraydi. Tolstoyning "Avliyo Sergey", Folknerning "Qora musiqa", Sholoxovning "Xol" hikoyalari mana shunday noyob badiiy kashfiyotlar hisoblanadi.

Shunday qilib, hikoya bu - epik turning kichik janri hisoblanib, hayotdagi muhim, tanlangan voqea va hodisalar qisqa shaklda bayon etiladigan nasriy asardir. U mustaqil janr sifatida yozma adabiyot tarkibida shakllanib borgan. Hikoyada inson hayotining eng kerakli, tipik ko'rinishi qisqa va epizodik tarzda o'chib beriladi. Uning qissa va roman janridan farqli jihati shundaki, unda bayon etilayotgan voqea-gacha nima, qanday sodir bo'lgan, asar qahramonlari kimlar bilan muloqotga kirishganligi to'g'risida ma'lumot berilmasligi ham, ba'zi bir detallar orqaligina ishora qilinishi ham mumkinligidadir. Ya'ni, hikoyada, ijodkor tomonidan tanlangan, qahramon hayotidagi ma'lum bir epizodgina tasvirlanadi. Hikoya o'zining syujeti, kompozitsion qurilishi, tasvir ko'lamining nisbatan soddaligi va bayonning, odatda, bitta shaxs tomonidan olib borilishi bilan farq qiladi.

Biz ushbu ilmiy ishimizda uch adabiyot, ya'ni o'zbek, rus va ingliz adabiyotida hikoya janri haqida so'z yuritish ekanmiz, ularning har birida mazkur janr qanday shakllangan va qanday rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan, taraqqiyot ko'lamida kimlarning xizmatlari beqiyos qiymatga ega ekanligi to'g'risida fikr yuritishni, muhim ilmiy xulosa va yakunlar chiqarishni maqsad qildik.

1.2 INGLIZ, O'ZBEK VA RUS ADABIYOTIDA HIKOYA JANRINING SHAKLLANISH VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

O'zbek adabiyotida hikoyaning shakllanish bosqichlari haqida fikr yuritish ekanmiz, uning tarixi bir necha asrlarga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, ilk hikoya namunalarini Kultegin va To'nyuquq bitiktoshlarida yozib

qoldirilgan voqealar ishtirokchilari yaratib, bayon etganlar. Bular o'zbek xalqining qadimiy yozma adabiy yodgorliklari hisoblanadi. Yana bir hikoya namunasini Nosiriddin Rabg'uziyning “ Qissasi Rabg'uziy ” asarida ko'rishimiz mumkin. Rabg'uziyning ushbu asari axloqiy xarakterga ega bo'lgan hikoyalarning yaxshi namunalaridan iborat.¹¹

Hikoya namunalarini yana hammamizga ma'lum mashhur bo'lgan Alisher Navoiyning “ Hayrat ul- abror” dostonining 5- maqolatidagi “ Hotami Toy hikoyati ” 20- maqolatidagi “ Ul qul hikoyati ”, “ Sab'ai sayyor ” dostonidagi yetti musofir hikoyalarida ko'rishimiz mumkin.

O'zbek adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan asarlardan yana biri Poshshoxo'janing “ Gulzor ” va “ Miftoh ul-adl ” kabi asarlaridir. Ushbu asarlar 16- asrda yaratilgan hikoyanavislik namunalari hisoblanadi.

Hozirgi kundagi hikoya janri yuqoridagi qadimiy hikoya namunalaridan, qolaversa, 19-20-asrdagi rus adabiyotida rivojlanib borgan hikoyadan andoza olgan holda, 20-asr boshlarida o'zbek adabiyotiga kirib keldi.

Bunda rus adabiyotida buyuk hikoyanavis A.P. Chexovni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimdir. Chexov o'z davrining buyuk adibi, mahoratli qalam sohibi bo'lib, realistik hikoya janrining rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Uning «Semiz va oriq», «Chinovnikning o'limi», «Buqalamun», «Niqob», «Cho'l», «Zerikarli hikoya», «Duel», « 6- Palata », «Noma'lum odam hikoyasi», «Unter Prishibeyev», «Erkaklar», «Ovda», «G'ilof bandasi», «Boloxonali uy», «Mening hayotim», «Laycha yetaklagan xonim» kabi hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilinib, o'zbek adabiyotida ham 20-asr boshlarida realistik hikoya janrining vujudga kelishi hamda rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan.¹² Jumladan , Cho'lpon “ Qurboni jaholat ”, “ Do'xtur Muhammadyor ” (1914), Abdulla Qodiriy “ Uloqda ” (1915) kabi hikoyalar realistik hikoyalarning

¹¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Hikoya>

¹² <http://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/anton-chexov-sanat-asari.html>

ilk namunalaridir. Ulardan keyin 1920- yillarda G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar o'zbek adabiyoti maydonida hikoya janrida qalam tebratdilar.

20-asr o'zbek adabiyotida, ayniqsa, Abdulla Qahhor hikoya janrining rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Uning hikoyalari qisqa va lo'nda hajmda yozilgani bilan, ma'nosi juda chuqur ahamiyatga ega va bu o'quvchini mushohada qilishga undaydi. Abdulla Qahhor 30-yillarda hikoya janrining mohir ustasi sifatida shuhrat qozondi. Uning “ Dahshat ”, “ Bemor ”, “ Anor ”, “ O'g'ri ”, “ Mayiz yemagan xotin ” kabi hikoyalari adabiyot ixlosmandlari orasida mashhurdir.¹³ Abdulla Qahhor ayniqsa, “ Dahshat ” hikoyasi bilan shuhrat qozongan. Abdulla Qahhor deganda bizningcha, ko'pchilik ushbu hikoyani ko'z oldiga keltirsa kerak. Chunki, u bu hikoyani shunchalik ta'sirli yozganki, uni o'qigan o'quvchining qalbi junbushga kelmay qolmaydi. O'sha zamonning ayollariga qanchalik og'ir bo'lganini tushunadi va bugungi kunning qadriga yetadi. Ozodlik, erkinlikni qanchalik muqaddas tuyg'ular ekanini, bunga erishish uchun irodali inson hatto o'z jonini ham ayamaganini u o'z hikoyasida mahorat bilan tasvirlab bergan. Abdulla Qahhor tarjimon sifatida, A.P. Chexovning ko'plab hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima ham qilgan. Shu ijodiy jarayonda Uning yozish uslubidan ko'p narsa o'rgangan. Abdulla Qahhor hikoyachiligini Chexov ijodiy maktabi ta'sirisiz tasavvur qilish, talqin va tadqiq etish mushkul. U Chexovni o'ziga ustoz deb hisoblagan. Abdulla Qahhorning Chexovona uslubidan kelib chiqib, adabiyotshunoslar uni o'z davrining Chexovi deb ham atashgan. Abdulla Qahhor hamda A.P. Chexov ijodi haqidagi to'liq ma'lumotlarga keyingi boblarimizda to'xtalib o'tamiz.

Yana hikoyanavislardan biri 50-60-yillarda tanilib, samarali ijod qilgan adib Said Ahmaddir. U o'zining “ Cho'l burguti ”, “ Lochin ”, “ Bo'ston ”, “ To'yboshi ”, “ Turnalar ”, “ Hayqiriq ”, “ Alla ”, “ Muhabbatning tug'ilishi ”, “ Qorako'z Majnun ” kabi o'nlab hikoyalari bilan mashhurdir. Said Ahmad “ Sobiq ”, “ Qoplon ”, “ Muzey ”, “ O'rik domla ”, “ Xandonpista ” kabi hajviy hikoyalar ham

¹³https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor

yaratgan.¹⁴ U birgina hikoya janrida ijod qilib qolmay, balki bir qancha qissa, roman hamda dramalar ham yozib qoldirgan. Abdulla Qahhorning hikoyalari o'zining hajm jihatdan qisqaligi, o'quvchini chuqur mulohaza yuritishga undashi hamda hayotni realistik tarzda, teran ifoda etib berishi bilan ajralib tursa, Said Ahmadning hikoyalari esa o'quvchi kutgan joyda kutilmagan xotima bilan tugovchi “ o'rtasi yo'q ” ekanligi bilan ajralib turadi. U o'z hikoyalarida keskin burilishlar yasash orqali adabiyot ixlosmandlarini o'z hikoyalariga qiziqтира olgan yozuvchidir.

20-asrning 60-70-yillarida o'zbek adabiyotida shuhrat qozongan yozuvchilardan yana biri O'tkir Hoshimovdir. U nafaqat hikoya janrida balki , roman, qissa va drama janrlarida ham barakali ijod qilgan. Uning “ Urushning so'nggi qurboni ”, “ Muhabbat ” kabi hikoyalari o'quvchilar orasida mashhurdir.¹⁵ O'tkir Hoshimov ijodining boshlang'ich davrlaridayoq , uning ijodini Abdulla Qahhor tanqidchi va hikoyanavis sifatida e'tirof etadi. Uni ijodidagi yutuqlari bilan tabriklab, unga o'zining tabrik maktubini yo'llaydi. Shu o'rinda “ Urushning so'nggi qurboni ” hikoyasiga to'xtalib o'tsak, bu hikoyani o'qimagan odam ushbu hikoyaning nomini eshitib, albatta, ko'z oldiga jahon urushi, jang maydoni, jangda qurbon bo'layotgan askarlarni keltirishi mumkin. Ammo, u hikoyaning asl mohiyatini uni o'qib chiqqanidan so'nggina anglab yetishi mumkin. Bu hikoyada, umuman, jang maydoni , askarlar haqida gap bormaydi, yozuvchi hikoyasi orqali urushning salbiy oqibatlarini yoritib berishga harakat qiladi. Urush jamiyatga , ijtimoiy tuzumga, hattoki, oila ahilligiga ham putur yetkazishini ko'rsatib o'tadi. Urush oqibatida yuzaga kelgan yo'qchilik odamlarni qay ahvolga solayotganligi haqida hikoya qiladi. O'g'il o'zi bilmagan holda o'z onasining qotiliga aylanib qolishi va shu kuni urushning ham tugashi bilan hikoya fojeaviy tarzda yakun topadi. Shu bilan birga yozuvchi urushning insonlar hayotida qanchalik fojeali iz qoldirishi mumkinligini ko'rsatmoqchi bo'lgan va u o'z maqsadiga erisha olgan. Ushbu hikoya O'tkir Hoshimovning eng

¹⁴ http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=685

¹⁵ <https://daryo.uz/2013/05/24/ozbekiston-xalq-yozuvchisi-otkir-hoshimov>

ta'sirli, mashhur hikoyalaridan biri hisoblanadi. O'tkir Hoshimov shu singari hikoyalari bilan o'zbek adabiyotida hikoya janrining rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan. Bu kabi hikoyalardan tashqari O'tkir Hoshimov yana “ Nur borki, soya bor ”, “ Ikki eshik orasi ”, “ Tushda kechgan umrlar ” nomli romanlari, “ Odamlar nima derkin ”, “ Shamol esaveradi ”, “ Ikki karra ikki besh ”, “ Bahor qaytmaydi ” “ Dunyoning ishlari ” nomli qissalari hamda “ Qatag'on ”, “ Inson sadoqati”, “ To'ylar muborak ” kabi dramalari bilan ham mashhurdir.

O'tkir Hoshimov qatorida shuhrat qozongan hikoyanavislardan yana biri Shukur Xolmirzayevdir. U o'zining bir qancha hikoyalardan tashkil topgan “ Olis yulduzlar ostida ”, “ Hayot abadiy ”, “ Og'ir tosh ko'chsa... ” kabi hikoyalar to'plamlari bilan tanilgan. Bundan tashqari uning “ Oq otli ”, “ O'n sakkizga kirmagan kim bor? ” kabi qissalari, “ So'nggi bekat ”, “ Qil ko'prik ”, “ Yo'lovchi ”, “ Olabo'ji ” kabi romanlari va boshqa shu kabi ko'plab asarlari mavjud.¹⁶ U o'zining talabalik davridayoq, ilk asarlari chop etilgan paytlardayoq, Abdulla Qahhor nazariga tushadi va u Shukur Xolmirzayevni ijodidagi ilk yutuqlari bilan tabriklaydi. Sh. Xolmirzayev o'zining yuqorida nomi keltirib o'tilgan asarlari bilan o'zbek adabiyotining yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Uning boshqa hikoyanavislardan ajralib turadigan jihati shundaki, ustози Abdulla Qahhordan so'ng hikoya janrini yanada yuqori bosqichlarga ko'tardi. Shukur Xolmirzayev hikoya to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini o'zining turli maqolalarida bildirib o'tgan. Jumladan, bir maqolasida hikoya yozish hikoya haqida maqola yozishdan osonroqdir, deb yozadi: “ Chamasi, hikoya haqida yozishdan ko'ra, hikoyaning o'zini yozish qiyin emas ekan, sababi – hikoyangdagi qahramonlar ham, ular xatti-harakati, ana shu harakatdan kelib chiqadigan ma'no ham o'zingniki bo'ladi, bularning hammasi, Annenkov aytmish, “ qanoting ostida ” turadi. Yozganda ham, yozayotganda ham o'zingni erkin his etasan, nafsilambiri, ruslar “ kitob o'zi uchun o'zi javob beradi ” deganlaridek, hikoyaning o'zi ham har bir asar kabi o'ziga xos bir olam, sen-yozuvchi- ana shu olam ustida turib, undagi o'zing bino etgan

¹⁶<http://tarix.uz/buyuk-shaxslar/ozbek-ziyolilari/shukur-xolmirzayev/>

sarguzashtlarni, Flober aytmiş “ insonlar taqdirini kuzatuvchi xudo singari kuzatasan ”, lekin albatta, ular ishiga hadeb bosh suqavermaysan.

Lekin hikoya haqida maqola yozish qiyin ekan, chunki yozganingda beixtiyor uning qonun-qoidolari, vazifasi va o'ziga xos xususiyatlari haqida ham so'zlash lozimligini sezasanki, ana shunday qonun-qoidalarni ko'p eshitgan, ko'p o'qigan, ba'zi tanqidchilar qulog'iga quyaverib, ko'nglini bezillatib qo'ygan ba'zi kishilar oldida, hatto durust-durust yozuvchilar oldida ham, xijolat tortishingni his etasan... Boshqalarni bilmadim-u, lekin men “ hikoya haqida ” deb sarlavha qo'yishim bilan dilimda mana shunaqangi andishalar paydo bo'ldi... ”¹⁷ Yozuvchining mana shu fikrlaridan ham uning qanchalik mahoratli hikoyanavis bo'lganliginiva janrga munosabatini bilishimiz mumkin. Maqolasida u o'zining hikoyanavis bo'lib yetishishiga sababchi bo'lgan buyuk klassik hikoyanavislarni ta'kidlab o'tadi. Ular rus adabiyotida Chexov, ingliz adabiyotida Jek London, hind adabiyotida Tagor va o'zbek adabiyotida Abdulla Qahhordir. Mashhur adiblarning hikoyalari Sh. Xolmirzayevda katta taassurot qoldirgan. U ushbu yozuvchilarning asarlarini o'qib, ulardan o'rganib va ilhom olib hikoyanavis sifatida shakllanib borgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan hikoyanavislar 20-asr o'zbek adabiyotida hikoya janriga asos solgan hamda uni taraqqiy toptirgan yozuvchilardir. Hozirgi kunda ham, ya'ni 21-asrda ham hikoya janri rivojlanishda davom etmoqda. Bugungi kun hikoyanavislari O. Muxtor, N. Aminov, S. Siyoyev, F. Musajonov, X. Sultonov, E. A'zamov, N. Eshonqulov, Sh. Bo'tayev va boshqalardir.

Rus adabiyotida hikoya janrining kelib chiqishi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, uning tarixiy kelib chiqishiga ko'ra ikki turi farqlangan: hikoya(nisbatan tor ma'noda) va novella. Aslida, qisqa hajmga ega bo'lgan bu janrni 19-asrgacha novella deb nomlashgan. Rus adibi B. Tomashevskiy hikoyani novella uchun ruscha termin deb hisoblagan. Novella o'zining qisqaligi bilan yirik epik janrlardan, ya'ni roman va qissadan ajralib turadi va aksincha, ertak, basnya va anekdot bilan oz bo'lsada birlik hosil qiladi. Farqli jihatlariga kelsak, novella

¹⁷ Shukur Xolmirzayev “ Hikoya haqida ” Sharq yulduzi jurnali, 1971-yil, 1-son. 25-bet.

ertakdan komik emas , balki tragik bo'lishi mumkinligi bilan, basnyadan allegoriya yo'qligi bilan, ertakdan esa sehrgarlik elementining yo'qligi bilan ajralib turadi.

Rus adabiyotida realizm unsurlarining paydo bo'lgunicha, novella psixologizm va falsafadan qochgan holda yozilgan. Unda qahramonning ichki dunyosi uning harakatlari va qilmishlari orqali bayon etilgan. Muallif qahramonga nisbatan o'z munosabatini, bahosini oshkor etmagan.

19-asrning boshlarida realizmning rivojlanishi oqibatida novellaning klassik ko'rinishi deyarli yo'qoladi. Uning o'rniga maydonga, ayniqsa, Rossiyada uzoq muddat qisqa qissaning turlaridan biri deb hisoblangan hikoya chiqadi.

1940-yillarning oxiriga kelib, rus adabiyotida hikoya qisqa qissa bilan aloqadorligini hisobga olgan holda hamda” fiziologik ocherkka “ qiyoslangan holda mustaqil janr sifatida tan olinadi. V. G. Belinskiy hikoya va ocherkni prozaning kichik janrlari sifatida nisbatan yirik bo'lgan qissa va romandan farqlaydi.¹⁸ Ocherk har doim publitsistik va faqat to'g'ri tasvirlash va ta'riflashga asoslangan bo'ladi. Hikoya esa qoidasiga ko'ra, alohida taqdirga aloqador bo'lib, ana shu insonning hayotidagi muhim bir voqeani hikoya qiladi va ajralib turgan bir epizod atrofida guruhlanadi. Hikoyaning qissadan farqi ham mana shunda, ya'ni qissada qahramon hayotidan bir necha epizodlar tasvirlanadi. Masalan, Chexovning “ Спать хочется “ hikoyasida bir qizchaning uyqusiz tunlar oqibatida jinoyat qilishgacha yetib borishi haqida hikoya qilinadi. Qizcha o'zining uxlashiga xalaqit berayotgan chaqaloqni o'ldirib qo'yadi. Ammo, bu qizcha bilan oldin nima sodir bo'lganini o'quvchi uning tushidan bilib olishi mumkin. Jinoyat sodir etganidan keyin qizchaga nima bo'lishi esa hammaga noma'lum, chunki bu haqida hech narsa bayon etilmagan. Hikoya hajm jihatidan katta emas. Undan xulosa chiqarishni muallif har bir o'quvchining o'ziga havola etadi.

Chexovning yana bir hikoyasi “ Ionich ” esa o'zining ichki tuzilishi jihatidan qissaga ham emas, hatto romanga yaqin, chunki unda qahramonning butun hayoti ochib berilgan. Lekin, barcha epizodlar qisqa holatda tasvirlangan, bundan muallifning maqsadi bitta, ya'ni doktor Startsevning ruhiy holatini ko'rsatib berish.

¹⁸ http://az.lib.ru/b/belinskij_w_g/text_1370.shtml

Buyuk ingliz yozuvchisi Jek Londonning fikriga ko'ra “ Hikoya – bu kayfiyat, jarayonlar va harakat birligidir ”.¹⁹

Qissa odatda, bir shaxs tomonidan bayon qilib beriladi. U muallif, hikoyachi yoki qahramon bo'lishi mumkin. Hikoyada esa yirik janrlarga qaraganda, voqea ko'proq qahramonning o'zi tomonidan hikoya qilib beriladi. Gogol va Pushkin o'zlarining ayrim asarlarini povest deyishgani bilan bugungi kun izlanishlariga ko'ra biz ularni hikoya deb atasak to'g'ri bo'ladi. Demak, ularning ijodlariga nazar tashlaganimizda rus adabiyotida ham hikoya janri ildizlari ancha avvalga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin.

19- asrning boshlarida Mixail Lermontov ham o'zining “ Bizning davr Qahramoni (A Hero of Our Time) ” (1840) nomli novellasi bilan mashhur bo'lgan. Uning ushbu novellasi beshta hikoyadan tashkil topgandir. Ammo, hikoya janrining bosh asoschisi sifatida Nikolay Gogolni ta'kidlab o'tishimiz lozimdir. Fyodor Dostoyevskiyning yozishicha, barcha rus hikoyanavislari “ Gogolning paltosidan paydo bo'lgan ”, ya'ni Gogol ijodi barcha hikoyanavislar uchun maktab bo'lib xizmat qilgan. Rus yozuvchilari undan juda ko'p narsa o'rganganlar. Gogol Amerika yozuvchisi Poe bilan bir vaqtda tanilayotgan impressionist bo'lgan. Gogol ijodida realizm bilan xayolot unsurlarini aralashtirgan holda asarlar yaratadi. Bularga misol qilib uning “ Nevskiy prospekti (Nevsky Prospect) ” hamda “ Aqlsiz kishining kundaligi (Diary of a Madman) ” (1835) kabi asarlarini keltirsak bo'ladi. 19- asrning birinchi yarmida Rossiyada yozilgan eng ta'sirli hikoya, shubhasiz, Gogolning “ Shinel (The Overcoat) ” nomli hikoyasidir .

²⁰Bu asarida ham u realizm va kundalik hayotdagi elementlar bilan fantaziya elementlarini aralashtirgan .Asardagi asosiy xarakter esa ruh ko'rinishida qaytib keladi.

19- asr oxiri- 20- asr boshlariga kelib esa hikoya janrida Gi de Mopassan, O. Genri, L. Pirandello, S. Sveyg, Akutagava Ryunoske, A. P. Chexov, I. A. Bunin kabi buyuk jahon yozuvchilari ijod qildilar va hikoya janrining rivojlanishiga

¹⁹https://en.wikipedia.org/wiki/Jack_London

²⁰<http://forum.kitob.uz/index.php?topic=1751.30>

o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shdilar. Keyinchalik esa 1920- yillarda Babel, Ivanov, Zoshenko, Kaverin kabi rus yozuvchilari hikoya janrida qalam tebratdilar. Rus adabiyotida hikoya janri haqida gapirganimizda, albatta, buyuk rus yozuvchisi Anton Chexovni ta'kidlamaslikning iloji yo'q. Adabiyotshunoslar fikricha, boshqa hech qaysi rus hikoyanavisi Chexov darajasiga ko'tarila olmadi. Hatto, uni Mopassanga tenglashtirishadi. Chexov o'z asarlarida qandaydir voqea-hodisa sodir bo'lishiga emas, balki odamlarning xarakterini ochib berishga, ijtimoiy hayot tarzini ifodalab berishga harakat qiladi. O'z davridagi mansabdorlarning qallobligi, poraxo'rliigi va laganbardorligini o'z hikoyalarida fosh etib tashlaydi. Mopassan esa, undan farqli ravishda, asarlarida e'tiborini ko'proq voqea-hodisaga qaratadi. Chexovning asarlaridan uning tasavvuri, o'zining jamiyatiga qanchalik jon kuydirib achinayotganligi, mansabdorlarning qilmishlari ustidan kulib, ularga kinoya va kesatishlar qilishini anglab olishimiz mumkin. Bir tanqidchi Chexovni moralist emas degan edi. – U osongina “ Xonimlar va janoblar, sizlar yomon yashayapsizlar, ” deya oladi. Ammo, uning ushbu kinoyali hazilidan uning qanchalik mard va dono inson bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Ingliz adabiyotida ham hikoya janrining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi to'g'risida ingliz olimlari tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgan. Shunday olimlardan biri bo'lmish Charles Mey izlanishlariga ko'ra hikoya janrining ilk ildizlari Renessans davriga borib taqaladi va 20- asrga kelibgina hikoya to'liq janr sifatida shakllanadi.²¹ Uning fikriga ko'ra, albatta, Bibliya hamda Qur'on kitoblaridagi hikoyatlarda ham hikoya janrining uchqunlarini ko'rishimiz mumkin. Ammo, Charlesning aniqlashiga ko'ra, 14-asrda yashab, ijod etgan buyuk yozuvchilar Bokachcho va Chouserlar hikoya janrining eng birinchi mualliflari bo'lib, ular adabiyotda o'sha davrdagi afsonaviy janrlardan bugungi kundagi realistik janrga ozgina bo'lsada siljish qilganlar.

Haqiqiy hikoya janri adabiyotning mustaqil janri sifatida 19-asrda rivojlana boshlagan va bu asrda uning taraqqiy topishiga o'z hissalarini qo'shgan yozuvchilar : E.T.A. Hofman, Gogol, Vashington Irving, va albatta, Edgar Allen

²¹May, Charles E., The Short Story: The Reality of Artifice, New York and London: Routledge (2002) p.45

Poe kabilardir. Ularning o'zlari hikoyalar yozishlari bilan bir qatorda, hikoyaning nazariy asoslarini ham o'rganib, uning ustida izlanishlar olib borganlar. Ulardan tashqari yana O. Genri, Genri Jeymes, va Jozef Konrad kabi yozuvchilar ham o'zlarining “ The Secret Sharer ” asarlari bilan hikoya janrining nazariy asoslarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar.

20- asr ingliz adabiyotiga nazar tashlaganda esa Charles Mey fikriga ko'ra, Heminguey o'z asarlari bilan xuddi rus yozuvchisi Chexovning avlodidek uning hikoya yozish an'analarini davom ettiradi. Keyingi hikoyanavislar qatoriga esa Mey Ketrin Anna Porter, Villiam Folkner, Jon Chiver, Bernard Malamud va Eudora Velti kabi yozuvchilarni kiritadi. Ammo, bugungi kunda ularning hikoyalari unchalik ommabop emas, o'quvchilar tomonidan unchalik ko'p o'qilmaydi. Ularning ta'siri muhimmi yoki yo'qligini vaqt ko'rsatadi.

Zamonaviy hikoya janrining uzoq yillar rivojlanish davrida asosiy iz qoldirgan yozuvchilar qatorida Virjiniya Vulf va Nadin Gordimer kabilarning nomlari muhim ahamiyatga egadir.

1937- yilda Elizabet Bovenning yozishicha, “ Hikoya – bu yosh san'at... Ushbu 20- asrning bolasidir”.²² Hikoya janri 20- asrda kino va suratkashlik san'ati bilan bir qatorda rivojlanib boradi.

Charles Mey o'zining hikoya janri kelib chiqishi va rivojlanish davrlari to'g'risida olib borgan kuzatishlariga ko'ra hikoya – bu eski roman janrining metaforik shakli hamda yangi realizmning metonimik shaklining qo'shilmasidan hosil bo'lgan janrdir. Mana shu kabi hikoyaning nazariy asoslari ustida ko'p izlanishlar olib borgan olimlar adabiy tanqidchilar emas, balki hikoyanavislarning o'zlaridir. Bular: 19 – asrda Edgar Alan Po, German Melvil va Anton Chexov bo'lsa, 20- asrda Genri Jeymes, Flenneri O' Konnor, Julio Kortazar va Eudora Velti kabilardir.

Ayniqsa, Alan Poning 19 – asrning o'rtalarida bildirgan tanqidiy fikrlari hikoya janrining alohida janr bo'lib ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Hikoya janrining birinchi nazariyotchisi sifatida u bahsli masala sifatida hikoyaning

²² May, Charles E., The Short Story: The Reality of Artifice, New York and London: Routledge (2002), p. 80

shakli, uning tuzilishi, hajmi, uslubi, mualliflik maqsadi, o'quvchiga bo'lgan ta'siri kabi mavzularni muhokamaga qo'ydi. Ushbu masalalar ustida bugungi kunda ham muhokamalar olib boriladi.

Har bir hikoyanavis, albatta, o'z yozish uslubi orqali boshqalaridan farqlanadi. Masalan, Ernest Hemingueyning hikoyalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, u hikoyasini yozishdan ko'zlagan maqsadiga erishish uchun unda an'anaviy afsonaviy simvollarni qo'llaydi (suv, baliq va shunga o'xshash). Heminguey hikoyalarini bir vaqtning o'zida Villiam Folkner hikoyalari bilan qiyoslaganimizda, uning hikoyalari ko'proq ertakka o'xshashdek tuyuladi. Folkner esa o'z hikoyalarida o'tmish sadosini tarannum etishga harakat qiladi va ularni milliy an'analari bilan boyitishga intiladi. Uning hikoyalarini faqatgina Janub an'analari haqida bilimga ega bo'lgan o'quvchigina to'liq tushunishi mumkindir. Ernest Hemingueyning ayrim hikoyalarida (“ A Clean, Well- Lighted Place ”(“ Toza, Charog'on joy ”)1933) strukturasi yo'qdek tuyuladi, unda harakat, voqea kam rivojlanib, asosan psixologik strukturaga ega bo'ladi. Uning bir nechta hikoyalari, shuningdek D. H. Lourens, Ketrin Mensfild kabilarning hikoyalari ham mana shunday tuzilishga ega. Ular o'z hikoyalarida sodir bo'ladigan voqea-hodisani emas, balki hikoya qahramonlariga tegishli bo'lgan psixologik his-tuyg'ularni, insonning xarakterini, kechinmalarini birinchi o'ringa qo'yadilar. Ular uchun insonlar orasidagi munosabat, inson ichki dunyosi muhimdir.

20- asrning yana bir iste'dodli ingliz yozuvchilaridan biri Shervud Andersendir. Uning kuzatishlariga ko'ra, uning zamonida yaratilayotgan barcha hikoyalar mazmun(plot) va tushuncha asosida yozilishi lozim edi. Ammo, Andersenning fikricha bu butun hikoyanavislikni zaharlayotgandek ko'rinardi. Uning maqsadi faqat mazmun emas, balki hikoyani shakli jihatdan ham to'g'ri yoza bilishga erishish edi .

Mashhur ingliz hikoyanavislari to'g'risida gapirganimizda, albatta, amerika yozuvchisi Jek Londonni ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Ushbu yozuvchi 19-asr oxiri 20- asr boshlarida yashab ijod etgan bo'lib, hayoti davomida juda ko'p asarlar yaratgan. U nafaqat hikoya janrida, balki qissa va roman janrlarida ham ijod

qilgan. U o'z ijodi davomida 19 roman, 152 hikoyadan tashkil topgan 18 to'plam, 3 pyesa, 8 avtobiografik va publitsistik xarakterdagi kitoblar yaratgan. Jek Jondon ijodiy faoliyati davomida turli mavzularga qo'l uradi, ularning orasida indeyslar hayotiga bag'ishlangani ham "Olis o'lkada", "Ayol mardligi"; hayvonot olamiga bag'ishlangani ham "Yovvoyi kuch", "Oqso'yloqtish"; sarguzasht asarlari ham "Chandiqli odam", "Oltin dara" va boshqa shu kabi asarlari mavjud.

Yuqorida bir qancha ingliz hikoyanavislarining asarlari va fikrlarini kuzatdik. Ular o'zlarining hikoyalari bilan, janrni nazariy jihatdan o'rganib, uning shakli, tuzilishi, uslubini ishlab chiqqanliklari bilan janr taraqqiyotiga ulkan hissalarini qo'shdilar.

Kuzatishlarimizdan ko'rinib turibdiki, har bir til, ya'ni ingliz, rus hamda o'zbek tillaridagi hikoyanavislik o'z rivojlanish bosqichlariga ega ekan. Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa chiqargan holda, bularning tarixiga nazar tashlasak, uchala tilda ham hikoya janri bundan bir necha asrlar avval paydo bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bular faqat boshqa nom bilan atalgan xolos, chunki hali bunday janr kashf etilmagan bo'lgan. Kichik hikoya, janr sifatida 19-asrda shakllana boshlaydi va 20-asr boshlarida u janr sifatida gullab yashnaydi. O'rgangan ma'lumotlarimizga ko'ra, kichik hikoya dastlab ingliz hamda rus adabiyotida, so'ng esa o'zbek adabiyotida rivojlana boshlagan. Har bir tilda hikoya o'ziga xos, ularning mentaliteti va ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda shakllanib boradi. Har bir tilda ijod qilgan yozuvchilar esa o'zlarining o'ziga xos uslubi hamda yo'nalishiga ega bo'lganlar. Barcha yozuvchilar hikoyani uni yozish me'yorlariga amal qilgan holda yozganlar. Rus hamda o'zbek yozuvchilari yozgan hikoyalar ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lgan, chunki o'zbek hikoyanavislari rus adabiyotini chuqur o'rganganlar va undagi buyuk adiblarni o'zlariga ustoz deb hisoblaganlar. Ular yozgan hikoyalar hajmi, qisqa-lo'nda bo'lishi, asosan voqealar rivojidan iborat bo'lishi bilan inglizhikoyalaridan ajralib turadi. Ingliz yozuvchilarining hikoyalari esa ko'proq tasviriy ifodaga ham asoslangan bo'ladi, ular voqealar sodir bo'layotgan atrof-muhitni, qahramon holati, kechinmalarini

tasvirlashga alohida e'tibor beradilar. Kichik hikoya janri ustida nazariy izlanishlar olib borgan olimlarni yuqorida nomlarini keltirib o'tganimizdek, ko'proq ingliz va rus adabiyotida uchratishimiz mumkin. O'zbek adabiyotida hikoyaning ko'plab betakror namunalari yaratilgan bo'lsa-da, kichik hikoya janri nazariy jihatdan kamroq o'rganilgan.

1.3. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK ASOSIY TAMOYILLARINING HIKOYA JANRIDA QO'LLASH MASALALARI

Qiyosiy adabiyotshunoslik adabiyotshunoslikning asosiy sohalaridan biri bo'lib, u ikki va undan ortiq milliy yoki jahon adabiyotini o'rganish hamda taqqoslash bilan shug'ullanadi. Ularning o'xshash va farqli tomonlarini, o'zaro harakat va ta'sirlarini aniqlaydi.

“Qiyosiy adabiyot” tushunchasining o'zi fransuzcha “literature comparee” (“qiyoslangan adabiyot”) va nemischa “ Die vergleichende literaturwissenschaft”

(“adabiyotlarning qiyoslanishi”) tushunchalaridan kelib chiqqan. K. Pishua va V. Jirmunskiylarning fikrlaricha, ayniqsa, nemischa tushuncha mohiyatni ancha aniq aks ettiradi. Chunki unda urg'u qiyoslash bilan shug'ullanadigan fanga beriladi. Muqoyasa obyekti, ya'ni adabiyotlar turi esa bir nechta bo'lishi mumkin.

Qiyosiy adabiyotshunoslik 19-asrning ikkinchi yarmida mustaqil fan sifatida rivojlana boshladi. Qiyosiy adabiyotshunoslikning obyekti bir nechta taqqoslanadigan adabiyot bo'lsa, predmeti esa millatlararo adabiy aloqalar bo'lib hisoblanadi. Ko'pgina g'arb, shuningdek rus olimlari qiyosiy adabiyotshunoslik taraqqiyotida o'z hissalarini qo'shganlar. F. Baldansperje, P. Azar, P. Van Tigem, R. Uellek, A. Veselovskiy, V. Jirmunskiy, N. Konrad va boshqa ko'p olimlar shular sirasidandir.

Boshlanishda adabiyotlar matniy qiyoslangan. Ya'ni, asarlarning matnlari turli mezonlar (parametrlar) dan bir-biriga muvofiq kelsagina, qiyoslash mumkin deb hisoblangan. Tez orada Amerikalik olim R. Uellek (1903-1995) “ Tipologik bog'lanish aloqalari ” tushunchasini taqdim etdi va bu orqali qiyosiy

adabiyotshunoslik tadqiqotchiligida favqulodda ko'tarilish holati sodir bo'ldi. Olim umumiy bog'lanish yoki genetik aloqalarga ega bo'lmagan adabiy hodisalar qiyosini hal etib, tahlil obyektlari sarhadlarini kengaytirdi. Shu bilan qiyosiy adabiyotshunoslikni yangi bosqichga ko'tardi.

Veselovskiyni (1872-1919) tarixiy poetikaning asoschisi deb hisoblashadi, qaysiki, badiiy asarlarda tasviriy-ifodaviy vositalarning tizimli birligi tadqiqi bilan shug'ullanadi. Tarixiy poetika esa adabiyotshunoslikdagi shunday bo'limki, u adabiy janrlarning kelib chiqishi va taraqqiyot tarixi, asarlar, uslublar, shuningdek, asar tarkibining badiiy takomiliga muallif munosabati, qahramon, kitobxon kabi muammolarni o'rganadi. Tarixiy poetika fan sifatida 19-asrning ikkinchi yarmida A. Veselovskiy kitoblarida paydo bo'ldi. Uning fikriga ko'ra, tarixiy poetikaning bosh metodlari tarixiy va qiyosiy metodlar hisoblanadi. Bundan tashqari, olim tipologik tadqiq metodini ham tavsiya etadi.

Olim turli adabiyotlarda bir xil syujetlarning takrorlanishi yoki "sayyor syujetlar", timsol va ramzlarning qaytarilishi hodisasi mavjud deb hisoblardi. U mazkur holatni ruhiy jarayonlarning birligi, shuningdek, madaniy-tarixiy sharoitlarning o'xshashligi, kelib chiqishning umumiyliigi va o'zaro ta'sir bilan bog'lar edi. Bundan tashqari, boshqa bir taniqli adabiyotshunos olim Jirmunskiyning so'zlariga binoan, A. Veselovskiyning asosiy g'oyasi adabiyot tarixining rivojlanish tarixini fan sifatida baholash mumkin. Adabiyotshunoslik tarixidagi yangi bosqichni aynan uning nomi bilan bog'liq ravishda shunday belgilashgan- adabiyot va folklor yodgorliklarini qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganishga o'tish bosqichi.

Shunisi ham qiziqki, Veselovskiy alohida diqqat-e'tiborini adabiyotshunoslikning til ilmi bilan aloqasiga qaratgan. U nutqiy bo'laklar shakllanishining yaxlit va yagona andozalarini aniqlagan. " Moviy " dengiz, "mudroq" o'rmonlar, " beg'ubor " dalalar, " shiddatli " shamollar kabi sifatlashlarning takrorlanishi shu jumladandir.

" Predmetlarni tavsiflaydigan bir qator sifatlashlarchadan,- deb yozadi A. N. Veselovskiy,- qaysidir biri namunaviy bo'lib ajralib chiqadi, har qalay boshqalari

ham namunaviydan kam bo'lmasada, poetik uslubning shakllanishi mana shu shartlilik mezonini asosida uzoq davom etadi, bamiqli " oppoq " oqqush va okeanning " moviy " to'lqinlaridek". Hozirgi paytda biz ham xuddi shunday qayd etishimiz mumkinki, ko'p adabiy asarlarda, xususan, tarjima qilingan asarlarda juda ko'p o'xshash tasviriy ifodalar bor. Garchi stilistik nuqtai nazardan ular anchagina takroriylik xususiyatiga ega bo'lsalar ham.

XX asr boshlarida qiyosiy adabiyotshunoslik maktabi Fransiyada shakllanadi. Uning maqsadi millatlararo adabiy aloqalarga e'tibor berib, adabiyotlar rivojini Uyg'onish davridan boshlab o'rganishdir. Ayni ana shu aloqalar Yevropa adabiyotlari orasidagi siyosiy, etnik va lingvistik to'siqlarni bartaraf etishga qodir edilar. Ushbu maktab namoyondalari turli adabiyotlarga ta'sir ko'rsatayotgan adabiy ta'sir kategoriyasini aniqladilar. Ushbu maktabning asosiy yo'nalishlari Pol Van Tigemning " Qiyosiy adabiyotshunoslik " va " Romantizm oldi " (" Преромантизм") kitoblarida bayon etilgan.

V. M. Jirmunskiy (1891-1971) jahon adabiyotini o'rganishning qiyosiy-tarixiy metodini yaratgan olimlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod uzoq davrlar mobaynidagi turli-tuman milliy adabiyotlardagi o'xshash elementlarni aniqlashga yordam beradi.

Jirmunskiy nemis va turk folklori hamda eposi, Gyote va Bayron ijodiyoti hamda nemis va ingliz adabiyotining boshqa klassiklari, shuningdek, german-rus adabiy aloqalari tarixi bilan shug'ullangan. Olim milliy adabiyotlar va dunyo adabiyoti taraqqiyoti uchun bir-biriga yordam berishini hisobga olib, Fransiyada "Ta'sir" tushunchasini " O'zaro ta'sir " tushunchasiga almashtirdi. U ikki tomonlama yoki o'zaro aloqalar mavjud bo'lishi shart deb hisoblamasdan, adabiy aloqalar va o'zaro ta'sir haqida gapirishni afzal deb biladi. Uning fikricha, individual biografik dalillarni ta'sir deb hisoblash mumkin emas, shuningdek, kitob bilan tasodifiy tanishuv yoki adabiy moda bilan shug'ullanishni ham. Ta'sir hayotda o'rin tutishi uchun, ta'bir joiz bo'lsa, " mafkuraviy import " da unga ehtiyoj sezilishi va taraqqiyotning mutanosib tamoyillari mavjud bo'lishi lozim.

Jirmunskiy hisoblaydiki, obyektlarni taqqoslash va ularning orasidagi o'xshashlik hamda tafovutlarni aniqlash ozlik qiladi. Shu bilan birga, ushbu xususiyatlarning tarixiy tahliliga e'tibor qaratish zarur.

Uning fikricha, qiyosiy adabiyotshunoslikda taqdqiqotning quyidagi uch yo'nalishini ajratish mumkin:

- 1) Tarixiy-tipologik
- 2) Tarixiy-genetik
- 3) Madaniy-adabiy aloqadorlikdagi o'zaro ta'sir.

Tarixiy-tipologik tadqiqot namunalari turli xalqlarda taraqqiyotning bir xil bosqichlarida kuzatiladi. Ushbu namunalar asarlarda juda tez-tez uchrab turadi va ular adabiyotlararo o'zaro ta'sir namunalari hisoblanishi mumkin. Bundan tashqari ular xalqlarning milly o'ziga xosliklari va adabiyotlarning o'ziga xos spetsifikasini namoyon etishi bilan ajralib turishi mumkin. Tarixiy-tipologik muvofiqliklar g'oyalar va ruhiy mundarija, motiv va syujetlar, vaziyat va obrazlar, janrlar va uslublar miqyosida aniqlanishi mumkin.

Tarixiy-genetik yo'nalish o'zida qiyoslangan voqeliklar birligini ularning umumiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan namoyon etadi. Bundan tashqari Jirmunskiy jahon adbiyotiga alohida e'tibor qaratadi, chunki u hisoblaydiki, jahon adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik uchun juda muhimdir. Lekin, u aynan " jahon adabiyoti " tushunchasini ta'kidlaydi, qaysiki, unga nafaqat Yevropa adabiyoti kiradi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik hozirgi zamonda ikkita yo'nalishdan iborat:

1) Adabiyotlarni to'g'ri va ters o'rganish (ta'sir-qabullash-ta'sir), genetik isbotlanganlik (qachonki voqelik yoki hodisa birligi kelib chiqish yagonaligi sifatida aniqlansa), shuningdek, sinxron (ayni paytda) va diaxron aloqalar orqali (turli vaqtlar);

2) Qiyosiy tipologik o'rganish, ya'ni turli adabiyotlarning umumiy va farqli tomonlarini aniqlash, qaysiki, bir-biridan mustaqil va biri ikkinchisiga ta'sir qilmaydigan. Bu " adabiy " qahramonlar va mavzularda umumiy janrlarda o'xshash oqimlarda, uslublarda o'z ifodasini topadi.

Ko'p hollarda tipologik umumiylik adabiy hodisalar orasidagi aloqalar rivojiga yordam beradi. Bundan tashqari, qiyosiy adabiyotshunoslik tarjima muammolarini o'rganadi va shuning o'zi bilan adabiyotdagi milliy hamda millatlararo hodisalarni tushunishga yordam beradi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda asosiy tadqiqot metodi qiyosiy-tarixiy metoddur. Komparativizm deb ham atalgan ushbu metod davomli davr mobaynidagi turli milliy adabiyotlarning umumiy unsurlarini aniqlashga safarbar etilgan.

Bizning ishimiz uchun esa, shuningdek psixologik metod ham qiziqarlidir. Chunki ingliz, o'zbek va rus adbiyotlarini qiyoslashda biz uchun tarbiya hamda tanlash erkinligida muammolar umumiylikni aniqlash muhimdir.

Ushbu metod muallif ruhiyati, qahramonlarning ichki dunyosi, qahramonlar tafakkuri, shuningdek, kitobxon hissiy qabullashining o'ziga xosligini o'rganishda ham ahamiyatlidir.

I BOB XULOSALARI

Magistrlik dissertatsiyamizning mazkur bobida biz hikoyaning janriy xususiyatlari, uning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari borasida uch adabiyot: o'zbek, rus va ingliz adabiyotini qiyoslash yo'li bilan fikr yuritishga harakat qildik. Izlanishimiz jarayonida ularning o'xshash, farqli jihatlarini aniqlash, uch adabiyotning bir-biri bilan munosabati, aloqasi va adabiy ta'siri masalalarini izohlash, talqin etish yo'lidan bordik. Hikoyaning janriy xususiyatlarini, ilmiy-nazariy mohiyatini yoritishda ham yozuvchilar, ham adabiyotshunoslar nuqtai nazarini o'rganishga va ularni solishtirish orqali yakuniy xulosalar chiqarishga imkonimiz darajasida urindik.

Bobda yoritilgan masala yuzasidan quyidagi yakuniy xulosalarga keldik:

1. Hikoya bu- epik turning kichik janrlaridan biri hisoblanib, hayotdagi muhim, tanlangan voqea va hodisalar qisqa shaklda bayon etiladigan

nasriy asardir. Unda aniq maqsad qisqa, lo'nda bayon qilinadi. Xulosa, ko'pincha, o'quvchi hukmiga havola etiladi.

2. O'zbek adabiyotida hikoyaning ilk namunalarini O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida voqea ishtirokchilari tomonidan bayon etilgan ko'rinishini uchratamiz (5 – 7 – asrlar).

Keyinroq yaratilgan Rabg'uziyning “ Qissasi Rabg'uziy ” (14-asr) asarida, Navoiyning “ Hayrat ul-abror ”, “ Sabba'i sayyor ” (15-asr), Poshshoxojaning “ Gulzor ”, “ Miftoh ul-adl ” kabi asarlarida ham hikoyaning noyob namunalarini uchratamiz.

3. A.P. Chexov jahon adabiyoti hikoyachiligida muhim ijodiy maktab yaratgan. Buni dunyo adabiyoti vakillari tan oladi va e'tirof etadi. Jumladan, A.Qahhor ijodi ham bundan mustasno emas. Hozirgi zamonaviy hikoyachilikni ham Chexov ijodiy maktabidan bahramandligini sezish va alohida ta'kidlash mumkin.
4. Rus adabiyotida hikoyaning noyob namunalari yaratilishi bilan birga, B.T. Belinskiy, B. Tomashevskiy kabi adabiyotshunos olimlar uning nazariy, ilmiy xususiyatlarini ham aniqlashtirib, talqin va tadqiq etib berishgan.
5. Ingliz adabiyotida ham hikoya janrining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Charles Mey hikoya janrining ingliz adabiyotidagi taraqqiyot bosqichlarini aniqlaydi, o'z tadqiqotlarida batafsil ma'lumot beradi. Uning fikricha, hikoya janri ildizlari Renessans davriga borib taqaladi. Bibliya va Qur'on kitoblaridagi hikoyatlarda ham uning janriy xususiyatlari kuzatilishini e'tirof etadi. Ammo, 14-asrda yashab ijod etgan Bokachcho va Chouserlar yaratgan hikoyalar, janrning tipik namunalari ekanligini ta'kidlaydi.
6. Biz hikoya janrini talqin etar ekanmiz, davrlar bo'yicha taraqqiyot bosqichlarini, o'ziga xos xususiyatlarini va har bir davrning yetuk hikoyanavislarini belgilab borishga harakat qildik. Jumladan, 19-asrda

Hofman, Gogol, Edgar Alan Po, O.Genri, G. Jeyms hikoyalari janrni mukammal bosqichga ko'targan bo'lsa, 20-asrda Heminguey Chexovona ijodiy uslubda yaratgan hikoyalari bilan o'quvchilarni xushnud qiladi. Zamonaviy hikoyachilikda Virjiniya Vulf, Nadin Gordimer kabilarning nomlari muhim ahamiyatga ega.

7. Mazkur bobda bir qancha ingliz hikoyanavislarining asarlari va fikrlarini kuzatdik. Ular o'zlarining hikoyalari bilan janrni nazariy jihatdan takomillashtirish imkoniyatini yaratdilar. Bu bilan ular janr taraqqiyotiga ulkan hissalarini qo'shdilar.

2-bob. INGLIZ, O'ZBEK VA RUS ADABIYOTLARDA HIKOYA

JANRI NAMOYONDALARI UCHLIGI

2.1 ANTON PAVLOVICH CHEXOVNING ROSSIYA VA JAHON

HIKOYA JANRIGA TA'SIRI

O'zbek adabiyotida kichik hikoyalar ustasi sifatida nom qozongan Abdulla Qahhor “Chexovdan o'rganaylik” nomli maqolasi²³da Lev Tolstoyning Chexov ijodiga munosabati haqida so'zlab, quyidagi fikrlarni keltiradi: “San’at asariga va umuman san’atkorga baho berishda ortiq darajada og’ir va qattiqqo’l bo’lgan Lev Tolstoy Anton Pavlovich Chexovni “Prozada Pushkin” deb atadi”. Bu Chexov ijodiga buyuk rus adibi tomonidan berilgan yuksak baho edi. U Pushkinni daho shoir deb tan olgan bo’lsa, prozada Chexovni xuddi shunday maqomda ko’radi. Noyob prozaik Chexov ijodi bunday munosabatga loyiq ekanligi bugungi kunda butun dunyo adabiyoti tomonidan tan olingan va bu bejiz emas.

Atoqli rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov 1860- yilda tug’ilgan. U Moskva universitetining tibbiyot fakultetini 1884 - yilda tugatgan. Shifokor bo’lib ishlagan. 1892-1898 yillarda Moskva yaqinidagi Melixovo qishlog’i (hozirgi Chexov shahri)da yashab, mahalliy dehqonlarga tibbiy yordam ko’rsatgan. Ularning bolalari uchun maktablar ochgan. Sil kasali bilan og’rib, 1898 yili Yaltaga ko’chgan. Salomatligi yomonlashgach, 1904 yil iyunida Badenveyler (Germaniya)ga borgan va u erda vafot etgan.

Chexov 1880 yillarning 2-yarmida teatr uchun “Ivanov” (1887-89), “Alvasti” (1889, keyinchalik “Vanya amaki” nomi bilan qayta ishlangan) pesalari, “To’y” (1889) bir pardali pesasi, shuningdek, “Tamakining zarari haqida” (1886), “Ayiqlar” (1888), “Yubiley” (1891-92) singari asarlarini yozgan.²⁴

²³ Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. 5-жилд, Тошкент, 1989, 21-24-бетлар

²⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Chexov_Anton_Pavlovich

90 – yillarda Saxalinga sayohatga borib, katorga va surgun qilingan kishilarning fojiali turmushi bilan tanishgan. Ushbu sayohat xotiralari “6 - palata” (1892) qissasi va “Saxalin oroli” (1893-94) kitobida o’z aksini topgan.

90 – yillar oxiriga borib, Chexovning dramaturglik mahorati yuksak cho’qqiga erishdi. “Chayka”, “Vanya amaki” (1896), “Uch opa-singil” (1900-1901), “Olchazor” (1903-1904) pyesalarining 1898 yil Moskva Badiiy teatrida sahnalashtirilishi Chexov ijodida yangi davr boshlanganidan darak berdi.

Chexov ijodi uch davrdan iborat: 1. 80-yillarning o’rtalarigacha bo’lgan davr; 2. 80-yillarning o’rtalaridan 90-yillarning boshlariga qadar bo’lgan davr; 3. 90-yillarning boshlaridan yozuvchi vafotiga qadar bo’lgan davr.

Chexov ijodining dastlabki davrida turli noshirlarning didi va buyurtmasi bilan asosan hazil mutoyibadan iborat asarlar yozgan bo’lsa-da, shu davrdayoq yozuvchi ijodining asosiy mavzulari yuzaga chiqa boshladi. Chexov shu davrda yozgan “Semiz va oriqlar”, “Chinovnikning o’limi”, “Buqalamun”, “Niqob”, “Unter Prishibeev” singari hikoyalarida mavzuni kulgi yordamida yoritish, hajviy obraz yaratish, voqea va hodisalarni lo’nda tasvirlash san’atini mukammal egallaganini namoyish qiladi. U o’z asarlarida satirani mohirlik bilan qo’llaydi va uni o’qigan o’quvchida beixtiyor kulgi yuzaga keladi. Chexovning hikoyalarida satirani qo’llashi xususida I. Gurvich shunday degan edi:

*“ Смех он вызывает не каким-то странностями или причудами, а, наоборот, своими в общем-то заурядными поступками. Смешно, но, как правило, не анекдотично, заставляет смеяться, но не изумляет, не поражает. Тем существеннее вопрос: над чем смеемся ”*²⁵

Chexov hikoyadagi voqeani, vaziyatni shunday tasvirlaydiki, hammasi tabiiy bo’lib tuyuladi, ammo bu tabiiy kulguning ortida ma’lum bir ma’no ko’zlangan bo’ladi. U o’zining mana shu yumori orqali jamiyatni qiynayotgan muammolarni, xalq manfaatini suiste’mol qilayotgan mansabdorlar kirdikorlarini fosh etib tashlaydi.

²⁵Чехов А.П. Рассказы/ {Сост., вступит. ст. И. Гурвича}. - Т.: Укитувчи, 1987.-288 с, 1 л. портр. Ст-9

Chexov ijodining 2 – davrida yozuvchining markaziy mavzusi aniq qirralar kasb etadi. Qahramonning ruhiy olami va hatto voqea-hodisalarning rivoji emas, balki ijtimoiy munosabatlar va maishiy to'qnashuvlarning qahramon xarakteriga ta'siri masalasi Chexovning diqqat markazida bo'ladi. Bu masala, birinchi navbatda, Chexovning “G'ilof bandasi” (1898) hikoyasida o'zining yorqin tajassumini topadi. Bu asarda g'ilof yolg'on va zulmga, kimningdir aysh-ishrat qilib, kimningdir azob-uqubat chekib yashashiga asoslangan hayotning timsoliga aylanadi.

Chexov ijodining shu davrida ko'zga tashlangan tamoyillar 3 – davrda yangi badiiy kuch bilan ifodalanadi. Chexovning “Boloxonali uy”, “Mening hayotim” qissalari, “Ionich”, “Laycha yetaklagan xonim” va boshqa hikoyalarida shu davrdagi rus jamiyatining ichki dunyosi shafqatsizlik bilan ochib tashlanadi. Bu asarlarda insonning loqaydligi mavzusi faqat ma'naviy-psixologik emas, balki ijtimoiy yo'nalishda ham badiiy tadqiq etildi. Chexov turli tabaqa va ijtimoiy qatlamlarga nazar tashlab, o'z qahramonining ruhiy uyg'onish, muhitga qarshilik ko'rsatish, hayotini qayta qurish qobiliyatini muttasil ravishda tekshirib turadi.

Chexovning dramaturgiya sohasidagi ijodi rus teatri taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yozuvchining nasriy asarlarida o'z ifodasini topgan kishilar o'rtasidagi ruhiy aloqalarning yo'qligi mavzusi uning sahna asarlarida ham turli shaklda talqin etilgan. Chexovning eng yaxshi nasriy asarlari va pyesalari o'zbek tiliga tarjima etilgan. Uning barcha mashhur pyesalari respublikadagi o'zbek va rus teatrlarida sahnalashtirilgan.

Chexov nasriy va dramaturgik asarlari bilan jahon adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'zbek adabiyotida realistik hikoya janrining maydonga kelishi va Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor hikoyanavislik ijodining shakllanishida Chexov an'analari ham muayyan omil bo'lib xizmat qilgan.

Chexov o'z hikoyalarida ham Rusiya hayotining haqqoniy ko'rinishini, suratini, o'zi chetda turib, voqelikka aralashmay, uni qanday bo'lsa

shundayligicha, chuqur tasvirlay olgan, soʻz vositasi bilan chizib bera olgan musavvirdir. Yozuvchining har bir asari, goʻyo, xalqining, millatining, vatanining harakatdagi, tirik bir parchasidir. Uning ijodida Rusiyaning mukammal, teran maʼnoga ega portretini koʻrish mumkin. Ammo yozuvchi bu tasvirlar orqali oʻquvchini, nafaqat, Rusiyaning , balki insoniyat maʼnaviy olamining, koʻnglining chuqur sarhadlariga yetaklaydi, uni taftish qilish yoʻl-yoʻriqlarini yaratadi. Chexov ijodi haqida V. Yermilov shunday degan edi:

*“ Chexov obrazlarni va hayotiy hollarni gʻoyat zoʻr mahorat bilan quyuv qilib bera oladigan buyuk sanʼatkor edi. Uning shu mahorati hajmi juda kichik, lekin gʻoyaviy-badiiy mazmuni chuqur, keng va salmoqli hikoyalar yaratishiga yordam berdi. Chexov jahon adabiyotining qisqa hikoyalar yozishda juda ulugʻ sanʼatkori boʻlib, ozgina oʻtkir detal va shtrixlar, syujet uchun zarur holatlar vositasi bilan mukammal badiiy tiplar yarata bilar edi. ”*²⁶ (A. Oʻrazayev va X. Muhamedxonov tarjimasi)

Yozuvchi ilgari surgan gʻoyalar, asarlaridan koʻzlagan maqsadlar umumbashariy mohiyat kasb etadi. U millat, makon va zamon tushunchalarini yoʻqotadi. Ular umumiy lashib, birlashib, yaxlitlashib olam va odam mohiyatini anglashga xizmat qila boshlaydi.

Muhimi shundaki, bunday maqomga koʻtarilishni yozuvchining asarlarini yaratishdagi oʻziga xos uslubi, quyma, ixcham nasr yoʻli, noyob mahorat qirralari taʼminlaydi. Abdulla Qahhorning yuqorida eslangan maqolasida ijodkor mahoratini belgilaydigan shunday fikrlar keltiriladi: “Ikki satr sheʼrda berilgan fikrni ming xil qilib aytsa boʻladi, lekin bu ming variantning hech qaysisi shu ikki satrday ham sodda, ham qisqa, ham kuchli, ham taʼsirli boʻlmaydi”²⁷. Sheʼr haqida aytilgan bu fikrlarni biz Chexov prozasi haqida ham aytishimiz mumkin. Uning asarlarini oʻqiganimizda, har bir jumlaning naqadar aniq va tushunarli tuzilganini kuzatamiz. Asardagi holatlarni, tabiat tasvirlarini, obrazlar xarakterini bundan aniq, bundan ishonarli, bundan

²⁶ На узбекском языке А.П. Чехов. Избранные Произведения. Ташкент-1954. 484с. Ст-442.

²⁷ На узбекском языке А.П. Чехов. Избранные Произведения. Ташкент-1954. 484с. Ст-21.

ta'sirli, bundan boshqacharoq ifodalab bo'lmasligiga amin bo'lamiz. Adib ijodi bilan o'ziga xos, chexovona uslub yaratdi. Bu yo'l orqali u jahon adabiyotining ko'plab namoyandalarini ortidan ergashtirib, ulkan dunyo adabiyoti maydonida o'ziga muqim makon yaratishga musharraf bo'ldi. "Mana shu bilan Chexov butun dunyo adabiyoti tarixiga buyuk hikoyanavis bo'lib kiradi. U o'zining shu yaratgan yangi shakli bilan rus Yevropa va Amerika yozuvchilariga katta ta'sir qilgandir"²⁸. Chexovning mahorati hamda uning buyuk ijodi to'g'risida I. Gurvich aytgan edi:

*"Чехов оказал мощное воздействие на развитие рассказа XX века. И сегодня чеховская традиция- одна из самых продуктивных. Чеховские открытия вошли в арсенал мирового искусства, их активно усваивает современная зарубежная новеллистика. Время показало: Чехов и художественный прогресс- неразделимы."*²⁹

Gurvich aytganidek, Chexov 20-asr hikoya janri rivojiga katta hissa qo'shib ketdi. Bundan tashqari, hikoyanavislikda Chexovning hikoya yozish an'analarini o'rganish va davom ettirish bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

2.2 O'ZBEK HIKOYA JANRINING RIVOJLANISHIDA ABDULLA QAHHORNING ROLI

*Yo'llar ortimizda qolar edilar,
Sahrolar qolardi cheksiz, betakror.
Nega ular cheksiz, desak dedilar,
Bu yerdan o'tgandi Abdulla Qahhor.
Abdulla Oripov*

²⁸Чехов А.П. Рассказы/ {Сост., вступит. ст. И. Гурвича}. - Т.: Укитувчи, 1987.-288 с, 1 л. портр. Ст-22

²⁹O'sha asar – 24-bet.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, o'zbek adabiyoti va san'ati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan adib Abdulla Qahhor o'zbek xalqining hayoti, insonning ichki va ruhiy olami to'g'risida o'lmas asarlar yaratdi. U XX asr o'zbek nasrining etakchi adiblari qatoridan munosib o'rin olgan mashhur namoyandalaridan biri. Abdulla Qahhor adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan, keyin hikoyanavis sifatida shuhrat qozongan ulkan adib bo'libgina qolmay, publitsist, qissa va romannavis, satirik komediya va lirik dramaturg, jurnalist va tarjimon hamda so'z san'atkoridir.

XX asr o'zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon Abdulla Qahhor 1907- yil 17 - sentabrda Qo'qonda temirchi oilasida dunyoga keldi.

Abdulla Qahhor tug'ilib o'sgan oila mashaqqatli hayot dahshatlarini boshidan kechirdi. Otasi Abduqahhor Jalilov temirchilik bilan kun ko'rgan. Oila tirikchilik tufayli Qo'qon atrof qishloqlarini kezib, ko'chib yurgan. Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursux, Buvayda, Olqor kabi Qo'qon atrofidagi qishloqlarda kechadi. U o'n yoshga kirganda Buvaydadagi eski maktabga o'qishga boradi, ya'ni Oqqo'rg'on qishlog'idagi Mamajon Qorining usuli savtiya maktabida tahsil ko'rdi. Oilasi Qo'qonga ko'chib kelgach, "Istiqlol" nomli maktabda o'qishni davom ettiradi. Undan internat, "Kommuna", "Namuna" maktablarida, so'ng bilim yurtida tahsil ko'radi.

Abdulla Qahhor bilim yurtining "Adib" qo'lyozma jurnalida dastlabki mashqlari bilan qatnashadi. Toshkentdagi "Qizil O'zbekiston" gazetasi tahririyatining "Ishchi-batrak maktublari" varaqasiga muharrirlik qiladi. 1925 - yilda u gazetada ishlash jarayonida O'rta Osiyo Davlat universitetining ishchilar fakultetini tamomlaydi.

Abdulla Qahhor yana Qo'qonga borib, dastlab o'qituvchilarni qayta tayyorlash kursida muallimlik qiladi. U ko'p o'tmay "Yangi Farg'ona" viloyat gazetasiga kotib va "Chig'iriy" hajviy bo'limiga mudir etib tayinlanadi.

Abdulla Qahhor adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. Uning “Oy kuyganda” ilk hajviy she’ri 1924- yilda “Mushtum” jurnalida “Norin shilpiq” taxallusi ostida bosildi. So’ng uning bir qancha hajviy she’r va hikoyalari “Mushtum”, “Yangi yo’l” jurnallari va “Qizil O’zbekiston” gazetasida Mavlon Kufur, Gulyor, Erkaboy, Evoy kabi taxalluslar ostida e’lon qilindi.

Abdulla Qahhor 30- yillarda yana Toshkentga qaytadi va O’rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetiga o’qishga kiradi. Yozuvchi o’sha paytda “Sovet adabiyoti” jurnalida mas’ul kotib vazifasini bajaradi. Keyinchalik u O’zdnashr (1935-1953)da muharrir va tarjimon, 1954-56- yillarda O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo’lib ishlagan.³⁰

Abdulla Qahhor asarlari rus, arman, belorus, gruzin, latish, litva, moldovan, ozarbayjon, tatar, tojik, tuvin, turkman, uyg’ur, ukrain, chechen, qoraqalpoq, qirg’iz, qozoq, eston kabi tillarga tarjima qilingan. Uning ayrim hikoyalari esa ingliz, arab, bengal, bolgar, vetnam, ispan, mongol, nemis polyak, rumin, fransuz, fors tillarida chop etilgan.

Ulug’ san’atkor yozuvchimiz ijod bulog’i qaynab turgan bir pallada og’ir darddan 1968- yil 25 -mayda 61 yoshida dunyodan o’tdi. Abdulla Qahhor ijodi bo’yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozilgan va yozilmoqda hamda bir qator yirik monografiyalar, tanqidiy va biografik risolalar nashr etilgan. Jumladan, H.Abdusamatovning “Abdulla Qahhor”, M.Sultonovning “Abdulla Qahhor uslubining ba’zi masalalari”, “Yozuvchi uslubiga doir”, M.Qo’shjonov, U.Normatovning “Mahorat sirlari”, M.Qo’shjonovning “Hayot va nafosat”, “Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor”, “Abdulla Qahhor mahorati”, O.Sharafitdinovning “Abdulla Qahhor”, N.Rahimjonovning “Abdulla Qahhor va Hamza teatri”, L.Batning “Незабываемые встречи, литературные беседы”, I.Barolinaning “Абдулла Каххар”, M.Agatovning “Об авторах ваших книг литературных композиции по материалам критической и мемуарной литературы”, V.Oskotskiyning “Негасимое пламя

³⁰https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor

костра”, М.Бекжанованинг “Развитие сатирических традиции Гоголя в творчестве Абдулла Каххара” kabi asarlari ham yaratilgan.³¹

Adibning “Ayajonlarim”, “Og’riq tishlar”, “Shohi so’zana”, “Tobutdan tovush” pesalari yaratilib teatr sahnalarida qo’yildi. “Sinchalak” qissasi bo’yicha kinofilm yaratildi.

Abdulla Qahhor adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun “O’zbekiston xalq yozuvchisi” (1967), Davlat mukofoti, Mustaqillik yillarida esa “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

Abdulla Qahhor rang-barang ijodi va ulkan so’z san’atkori sifatidagi faoliyati bilan o’zbek xalqi madaniyatining yanada yuksalishiga katta hissa qo’shdi. 1987- yilda adib yashagan uyda Abdulla Qahhor uy-muzeyi tashkil etildi.

Hozirgi kunda uning nomi Toshkent va Qo’qondagi bir necha ko’cha, maktab va jamoa xo’jaliklariga, shuningdek, madaniyat uylari va respublika Satira teatriga berilgan.

Ijodini she’r yozish bilan boshlagan Abdulla Qahhorning ulkan xizmati shundaki, u endigina paydo bo’la boshlagan kichik hikoya janrini rivojlantirdi. Uni chuqur mazmun va yuksak badiiy tasvir usullari bilan yanada boyitdi. O’z hikoyalari bilan orqada qolgan bu janrni yuqoriga ko’tardi. U boshqa janrlarga yetib oldi. Adabiyotda mustahkam, tarixda abadiy qoladigan o’rinni egallab oldi.

30 – yillarga kelib, adibning bu sohadagi iste’dodi haqqoniy gullab yashnadi. Eng yaxshi hikoyalari shu davrda yuzaga keldi. Baquvvat, hammaga manzur bo’lgan hikoyalari kitobxonlarga ketma-ket taqdim etila boshladi. “Boshsiz odam”, “Ko’r ko’zning ochilishi”, “Anor”, “Bemor”, “O’g’ri”, “Mayiz yemagan xotin”, “Adabiyot muallimi”, “San’atkor”, “Munofiq” kabi hikoyalari kichik hikoyachilikning barkamol namunalari bo’lib maydonga chiqdi.

Avvalo, ularda Abdulla Qahhor hayotdagi turli toifadagi kishilarning zarur, kerakli tomonlarini olib ustalik bilan tipiklashtirib, puxta xarakterlar

³¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor

yaratib berdi. Katta hajmdagi asarlar inson xarakterini yaratish uchun keng yo'l ochadi. Bunday asarlarning mualliflari qahramonlarini turli vaziyatlarga olib kirish, har xil kishilar bilan to'qnashtirib, portretlarini har tomonlama ta'riflab, talay baquvvat xarakterlar chizganlar. Ammo kichik asarlarda xarakter yarata olish, ularni kurashga olib kirish, taqdirlarini ishonarli hal qilib, puxta xarakterlarini chizish mualliflardan katta san'atni talab qiladi. Abdulla Qahhor esa yuqorida tilga olingan hikoyalarida bu mushkul san'atni to'la egallab olganini namoyish qiladi.

Bunga u xalq hayotini to'la bilishi, insonlarning ichki olamiga chuqur kirib borishi orqali erishadi. Bu esa o'z qahramonlarining shodligini, qayg'u-alamlarini, hayajonlarini, g'azab-nafratini, kuchli kechinmalarini yorqin ifoda etishga imkoniyat tug'diradi.

Abdulla Qahhor kichik hikoyaning yirik ustasi. Shuni alohida qayd etib o'tishimiz kerakki, Abdulla Qahhordan oldin ham, u ijod etgan zamonda ham, undan keyin ham talay kichik hikoya janrida ijod qiluvchi adiblar bu turda qalam tebratdilar va tebratmoqdalar. Lekin ularning birortasi ham uning oldiga tusholmadi. Abdulla Qahhorning, kichik hikoya janrida asarlar yaratgan yozuvchilar ichida o'zbek adabiyotida tengi yo'qdir. Zamonaviy yozuvchilarimiz uning mahorat maktabidan juda ko'p o'rganishlari lozim.

Kichik hikoyalarda kishi ruhiyatining murakkab tomonlari nozik tasvirlarda ko'rinadi. Yozuvchi hikoyalarining muhim xususiyatlari shundaki, ularda insonning ichki holati to'g'ri tasavvur qilinishi bilan birga, ruhiy holati asar mazmuni bilan bog'lanib ketadi.

Abdulla Qahhor kichik hikoyalarida satirik va yumorist sifatida o'z iste'dodining yangi qirrasini namoyish qildi. U hayotning kulgili jihatlarini tez ilg'ash qobiliyatiga ega edi. Buni juda ko'p asarlari aytib turibdi. U jamiyatning yomon illatlariga o'z idealini, davr nafasini, inson tabiatidagi kamolot belgilarini qarshi qo'yadi. Asarlarining mazmuniga, xarakterlarning mohiyatiga kulgini, masxarani singdirib yuborish bilan uning jamiyatdagi ulkan kuchini, ijobiy xarakterini yaqqol ko'rsatadi.

Abdulla Qahhorni kichik hikoyanavislikda ulkan yutuqlarga olib kelgan omillardan yana biri uning mumtoz ijodkorlardan, ayniqsa, rus adabiyotidan, xususan, A.P.Chexovdan o'qish, o'rganishi bo'ldi. "Ulug' san'atkorning ijodi, - deb ta'kidlagan edi adib, - badiiy mahoratimni oshirishda katta maktab bo'ldi".

1959- yil Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasiidagi muhokamada rus yozuvchilari shunday degan edi: " O'zbekistonda katta adabiyot bor. U, shu darajada yuksalibdiki, uning ba'zi vakillaridan, masalan, A.Qahhordan biz ham o'rganishimiz kerak".³²

Abdulla Qahhor kichik hikoyalarini kuzatar ekanmiz, adibning o'zi ta'kidlaganidek, ularda rus adabiyotining, xususan, A.P.Chexovning ulkan ta'sirini ko'ramiz. Ulardagi qisqalik, mavzu va mazmundagi tig'izlik, badiiy tasvir vositalarining yangicha, ko'pqatlamli vazifalar yuklatilgan holda qo'llanilishida chexovona uslub in'ikosini sezamiz. Chexov hikoyalaridan ma'lumki, u asarlarida jamiyatdagi adolatsizliklarni, ijtimoiy muammolarni yoritib berishga harakat qiladi. Shu tomondan ham A. Qahhor o'z hikoyalarida Chexov an'analarini davom ettiradi. Uning bir qancha hikoyalarida Chexov hikoyalariga o'xshash jihatlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, A. Qahhorning " Millatchilar " hikoyasi mavzu jihatidan ham, hikoyaning qurilishi, yozilish uslubi jihatidan ham Chexovning " Xameleon " hikoyasiga juda o'xshash hisoblanadi. Ikkala hikoya ham yumoristik uslubda yozilgan hamda voqealarni ifodalashda dialogdan foydalanilgan. " Xameleonda" voqealar asosan Ochumelov ismli chinovnikning nutqiga asoslangan bo'lib, uning o'zidan yuqori mansabdorga qanchalik laganbardorlik qilishi ko'rsatib berilgan. Hikoyadagi voqea davomida bir yo'lovchini kuchuk tishlab oladi va butun gap ana shu kuchukni jazolash ustida boradi. Ochumelov kuchukni qattiq jazolamoqchi bo'lib turganda, kimdir itning generalniki ekanligini aytib qoladi va u shu zahotiyoq, xuddi xameleon o'z rangini o'zgartirgandek, o'z fikrini o'zgartiradi va itni maqtab ketadi. Hikoyadagi butun bahs-munozara shu xususida ketadi va Ochumelov itning generalniki yoki generalniki emasligiga

³²https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor

qarab fikrini o'zgartiraveradi. Shu tariqa Chexov hikoyasida rus chinovniklarining o'z vaqtida qanchalik tilyog'lamalik qilganliklarini mahorat bilan ko'rsatib bergan.

A. Qahhorning “ Millatchilar” hikoyasida esa voqealar yuqoridagi hikoya voqealariga birmuncha o'xshash, faqat u, hikoya qahramonlari sifatida shoir Tavhidiy hamda muharrir Mirza Bahromni tasvirlaydi. Ular ko'chadan o'tib ketayotganlarida bir boyning iti ularga tashlanmoqchi bo'ladi va ular mana shu itning laqabi “ Arslon ” yoki “ To'rtko'z ” ekanligini bahslashadilar. Bu bilan ular o'zlarining boyga qanchalik yaqin ekanliklarini uning uyiga tez-tez kelishlarini bir-birlariga isbotlab bermoqchi bo'ladilar. Bunda ham yozuvchi millat manfaati uchun xizmat qilamiz deb fidoyilik qilmoqchi bo'lgan shoir va muharrirni tanqid qiladi, ularning ustidan kuladi. Ularning tilyog'lamaliklaridan hatto it ham bezor bo'lib uyiga kirib ketadi. A. Qahhor ham o'sha zamon odamlarining mansabdor, boy shaxslarga qanchalik laganbardor bo'lganini, hatto ularning itining oyog'iga yiqilishga ham tayyor bo'lganliklarini mahorat bilan yoritib bera olgan. Balki, bu ikki hikoya o'xshashligi sababi ular yashagan tuzumning, ijtimoiy muhitning bir-biriga o'xshash bo'lganligidadir, Chunki, Abdulla Qahhor ijod qilgan davrda ham O'zbekiston Sovet Ittifoqiga qaram davlatlardan biri bo'lgan. Shu sabab ham o'zbek yozuvchilari rus yozuvchilaridan ko'p narsa o'rganganlar, ularning ta'siri katta bo'lgan. Chexov va A. Qahhorning mana shu ikki hikoyasining o'xshash jihatlari to'g'risida Matyoqub Qo'shjonov o'zining “ Abdulla Qahhor Mahorati ” nomli kitobidagi “ Qahhorona voqealar Chexovchasiga dialoglarda” deb atalgan maqolasida bir necha fikrlarni bildirib o'tgan. Jumladan, uning ayrim fikrlarini keltirib o'tamiz:

“ Adabiyot tarixida faqat dialoglar vositasi bilan ham voqea va xarakterlar yaratilgan asarlarni ko'p uchratish mumkin. Zotan, A. P. Chexovning ba'zi bir hikoyalari dialog bilan boshlanadi, dialog bilan rivojlanadi va shu yo'l bilan ma'lum bir tugallanishga borib yetadi. Uning “ Xameleon ” hikoyasi fikrimizning dalilidir. Bu hikoyada yozuvchi diqqat

markazida turadigan va kitobxonni o'z rivoji bilan rom qilib oladigan mustaqil voqea yo'q. Undagi voqea ham, ma'no ham, xarakterlar tasviri ham dialogga-hatto uni to'la ma'nodagi dialog deb aytish ham qiyin- to'g'rirog'i, bitta shaxsning- Ochumelovning nutqiga yuklangan. ”³³

“ Shuning o'zidayoq Chexov tasvirlamoqchi bo'lgan davr chinovniklarining tipik xameleonlik xislatlari ochib tashlanganki, bunga yana biron narsa qo'shib, voqeani cho'zib o'tirishning keragi yo'q. “ Xameleon”ning o'ziga xos bu belgilari haqida bir vaqtlar Abdulla Qodiriy shunday degan edi: “ Mana shu dialoglarga avtorning hech qanday izohi kerak emas. Bu dialoglar ham voqeani siljitadi, ham hikoya qahramoni Ochumelovni xarakterlaydi ”. ”³⁴

Buyuk adiblarimiz keltirib o'tgan sharhlardan ham ko'rishimiz mumkinki, Chexov hamda A. Qahhor faqatgina dialoglar orqali ham hikoyalarini maromiga yetkazib yozganlar, o'zlari ifodalamoqchi bo'lgan ma'noni qisqalik bilan a'lo darajada o'quvchilarga yetkazib bera olganlar. Bundan tashqari ular hikoyalarida satirani qo'llaganlar va bu bilan jamiyatda kechayotgan adolatsizliklarni, ijtimoiy muhitdagi, siyosiy tuzumdagi tartibsizliklarni fosh qilib, ustidan kulmoqchi bo'lganlar. Hikoyada satirani qo'llash, ular ko'zlagan maqsadga olib boruvchi eng qulay yo'l edi.

Matyoqub Qo'shjonov yuqorida keltirib o'tilgan asarining “Darg'azab hisning hajviy hamlasi ” nomli maqolasida satira haqida shunday fikrlarni keltirib o'tgan: “V. G. Belinskiy satira haqida gapira turib shunday deb yozgan edi: “ Satira kamchiliklarni, kishilarning zaif tomonlarini, qabohatlarini masxaralash emas, balki darg'azab hisning hamlasi, energiyasi, olijanob ideal talabi asosida tug'ilgan g'azabning momaqaldirrog'i va chaqmog'i bo'lishi kerak. ”

Belinskiy bu fikrni o'tgan asrning qirqinchi yillarida aytgan. Bu rus adabiyoti taraqqiyot cho'qqisiga birinchi qadamlarini qo'yayotgan bir davrda

³³ Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 232 b. 85-bet.

³⁴ O'sha asar 86-bet.

edi. Rus adabiyotining undan keyingi taraqqiyoti, kamoloti ulug' tanqidchining fikrlari qanchalik haq ekanini isbot qilib berdi. Darhaqiqat, dunyoga dong'i ketgan ulug' satiriklar: N.V. Gogol, Saltikov-Shchedrin, A. Ostrovskiy, A.P. Chexov kulgisi ma'lum bir individlar ustidan kulish emas, balki insonni zulmatga bog'lab qo'ygan ijtimoiy tuzum ustidan, hayotning olg'a siljishiga to'siq bo'lib turgan tartiblar ustidan achchiq va zaharhanda kulgi edi.”³⁵

Shunday qilib, Abdulla Qahhor o'zining yaratgan asarlari bilan kichik hikoya janrini yanada rivojlantiradi, realizm an'alariga sodiq qolgan holda o'z hikoyalarida xalq dardini ifodalab, uning manfaatini ko'zlaydi. Shu bois ham uning hikoyalarini o'qigan o'quvchi qattiq ta'sirlanadi.

2.3 KETRIN MENSFILD “ INGLIZ CHEXOVI ” SIFATIDA

Jahon adabiyotida hikoya janri taraqqiyoti haqida so'z yuritganimizda, albatta, ingliz adabiyotini gapirmasdan ilojimiz yo'q. Bu janr rivojida, ayniqsa, Ketrin Mensfildni alohida o'rni bor. Uning ijodi ham ingliz adabiyotida, ham Yangi Zelandiya adabiyotida hikoyani taraqqiy toptirishda xizmatlari bilan muhimdir. Bunga uning o'zining qisqa umri hamda ijodi davomida yozib qoldirgan ko'plab betakror hikoyalari sababdir. Endi Ketrin Mensfildning hayot va ijod yo'li haqida so'z yuritsak.

Ketrin Mensfild (asl ismi Ketlin Bichem) Yangi Zelandiyaning eng mashhur yozuvchilaridan biri bo'lib, 1888- yil 14- oktabrda Yangi Zelandiyaning Vellington shahrida dunyoga kelgan. Otasi Garold Bichem Yangi Zelandiya bankida ishlagan. Ketrin Mensfildning Vera (1885) va Sharlotta (1887) ismli opalari hamda Lesli Xeron (Chammi 1894) ismli ukasi bo'lgan. 1893 – yilda Mensfild oilasi bilan o'zining baxtli bolalik yillari o'tgan Karori shahriga ko'chib o'tadi. Keyinchalik Karorida o'tkazgan bolalik yillari haqidagi xotiralari uning “

³⁵ Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 232 b. 81-bet.

Prelyudiya ”(“Prelude” , 1918) asarini yozishiga turtki bo’lgan. 1898 –yilda esa ular yana Vellington shahriga qaytib kelishadi. 1898-1899- yillarda maktab nashriyotining “ High School Reporter ” va “ Wellington Girls’ High School magazine ” gazetalarida Ketrinning ilk hikoyalari nashr etiladi. 1903- yilda Mensfild opalari bilan birga Londondagi Qirollik kollejiga (Queen’s College) o’qishga yo’l oladi. U yerda Ketrin violonchel cholg’usini o’rganish bilan shug’ullanadi. Shu bilan birga uning ijod namunalari maktab gazetasida nashr etilib, hatto o’zi ushbu gazetaning redaktori bo’lib ham ishlaydi. O’sha paytlardayoq u fransuz yozuvchilari hamda Oskar Uayldning ijodi bilan qiziqqa boshlagan edi. Uning tengdoshlari Mensfildni o’z hayoti hamda ishiga mas’uliyat bilan yondashgani uchun ham juda qattiq hurmat qilishgan. Mensfild o’zining kundaliklarida: “ Men xuddi olmaxondek fikrlar edim. Avval to’plardim, yig’ardim va berkitardim, uzoq “qish fasli” kelganida esa barcha boyligimni yuzaga chiqarardim... (“ Мой ум был как белка. Я накапливала, собирала и прятала, на период той долгой “зимы “, когда снова открою все эти богатства... ”) ”.³⁶ 1906-yilda Mensfild Angliyadagi o’qishini tugatib, Yangi Zelandiyaga qaytib keladi va shu yerda u o’z hikoyalarini yozishni boshlaydi. Ularning ayrimlari Melburnskdagi “ The Native Companion ” nashriyotida chop etiladi va gonorar bilan taqdirlanadi. Bu e’tirof uning yosh qalbiga ulkan orzular urug’ini qadaydi. Unga kuchli rag’bat beradi. Natijada, o’z yo’lini qat’iy tanlaydi. Kelajakda, albatta, professional yozuvchi bo’lishga qaror qiladi. Buni biz kundaligiga yozib qoldirgan yozuvlaridan ham bilib olishimiz mumkin: “ Men yozuvchi bo’lishim shart. (1908) ”.³⁷ Bu jummalarni u 20 yashar paytida yozib qoldirgan va o’ziga Ketrin Mensfild taxallusini tanlagan. O’sha davrlardan boshlab, Mensfildning qizg’in ijodiy jarayoni boshlanadi. 1908 –yilda u Yangi Zelandiyani butunlay tark etib, Angliyaga yo’l oladi. Hatto umrining oxirgi yillarida ham tuberkulyoz kasalligiga chalinganligi tufayli vataniga qayta olmaydi.

³⁶ Биография Кэтрин Мэнсфилд. <http://elenakuzmina.blogspot.com/>

³⁷ (“ Я должна быть писательницей ”) Л. Володарская. Кетрин Менсфилд и ее Рассказы. Москва. Книга. 1989. Ст.15.

1909 – yilda Belgiyaga soʻng, Bavariyaga qilgan sayohatlarida nihoyat, Anton Chexov ijodi bilan tanishadi. Chexovning ijodi Mensfildga oʻzining yoshlik yillarida oʻqib, ruhlangan Oskar Uayldning taʼsiridan ham koʻproq taʼsir koʻrsatadi. 1910-yilda Mensfild Londonga qaytib keladi. Shu yilning fevral oyida “Nyu Eydj (The New Age)” jurnalining noshiri A.R. Oradj (Alfred Richard Orage) bilan tanishadi hamda oʻndan oshiq ijtimoiy yoʻnalishga ega boʻlgan ishlarini uning jurnalida chop etadi. Germaniyadan olgan taassurotlarini asos qilgan holda Mensfild oʻzining “В Германском пансионе” (German Pension, 1911) toʻplamini nashr ettiradi va bu toʻplam tanqidchilar eʼtirofiga sazovor boʻladi. Bu toʻplam ichida eng mashhur hikoya “Фрау Брехенмахер посещает свадьбу” (Frau Brechenmacher Attends a Wedding) hikoyasi boʻlgan. 1911-yil dekabrda Mensfild “Ritm” jurnalining redaktori Jon Midlton Marri bilan tanishadi va u uning “Женщина в магазине” (The Woman at the Store) hikoyasini bosib chiqaradi. Bu hikoya qotillik haqida edi, shu paytlarda uni fovizm (adabiyotda bu yoʻnalishni “yovvoyi” deb atashgan) hamda Chexov taʼsiri chulgʻab olgan edi. Bu orada uning sogʻligʻi ham yomonlasha boshlaydi. 1913-yilda u Parijga keladi va bu yerda u faqat bitta hikoya yoza oladi, bu hikoya “Нечто ребяческое, но очень естественное” (Something Childish But Very Natural) deb nomlangan. Shu bilan birga Mensfildning hayoti moddiy qiyinchiliklarga ham toʻla boʻlgan, buni u oʻz kundaligiga yozgan gaplaridan ham koʻrishimiz mumkin:

*“Почему у меня нет настоящего дома- настоящей жизни... Я уже не девочка – я женщина. Мне нужны вещи. Будут ли они у меня когда-нибудь? Писать все утро, потом быстро пообедать – и снова писать, до самого вечера...”*³⁸

1915-yil oktabrda Mensfildning ukasi Lesli Bichem Birinchi jahon urushida Fransiya frontida qurbon boʻladi. Ukasining oʻlimi Mensfildni qattiq qaygʻuga

³⁸БиографияКэтринМэнсфилд. <http://elenakuzmina.blogspot.com/>

botiradi, u o'ziga qanday qilib yupanch topishni bilmaydi. Shunday iztirobli kunlarida ukasining xotirasiga bag'ishlab she'rlar ham yozgan:

“ У памятного потока брат мой стоит,

Ждет меня, ягоды держит в руках...

“ Вот – тело мое. Сестра, бери и ешь ” . ”

U she'rida o'sha paytdagi qayg'u va o'kinchlarini namoyon etib bergan.

1917-yil yanvarda Mensfild yozuvchi Virjiniya Vulf bilan tanishadi. Boshida Mensfild unda yaxshi taassurot qoldirmaydi, ammo keyin Virjiniya Vulf uni eng yaxshi ayol yozuvchi sifatida tan oladi:

*“ Я немного шокирована ее, на первый взгляд , заурядностью. Однако когда это впечатление слабеет, она столь умна и непостижима, что вознаграждает дружбу ”.*³⁹

1917-yildan boshlab, Mensfild ijodining qizg'in davri uning bir necha hikoyalari bilan boshlanadi. Bular “ Nyu Eydj” jurnalida bosilgan “ День мистера Реджинальда Пиккока ”(Reginald Peacock's Day) va “ A Dill Pickle ” hikoyalaridir.

1917-yil aprelda Virjiniya Vulf va eri Leonard, yaqinda ochilgan o'zlarining “ Hogars Pres ” (Hogarth Press) nomli nashriyotiga Mensfilddan hikoya so'rab murojaat qiladilar. U ularga o'zining 1915-yildayoq “ Aloe ” nomi bilan yozishni boshlagan “Prelyudiya ” nomli asarini taklif qiladi. Bu asar Yangi Zelandiyalik oila hayotiga bag'ishlangan bo'lib(yuqorida aytib o'tganimizdek, o'z vatanida o'tkazgan bolalik yillarini yodga olgan holda yozgan), 1918-yilda nashr etilganidan so'ng o'ziga keng ommani jalb eta olmaydi, tanqidchilar tomonidan ham kam tilga olinadi. Keyinchalik esa, Mensfildning “ Prelyudiya ” asari uning eng mashhur asarlaridan biriga aylandi.

³⁹БиографияКэтринМэнсфилд. <http://elenakuzmina.blogspot.com/>

1917-yil dekabrda Mensfild tuberkulyoz kasaliga chalinadi va bu unga juda katta zarba bo'ladi. U qattiq tushkunlik holatiga tushadi va 1918-yil fevral oyida Fransiyaning Bendol Shahriga keladi. O'zining kasal holiga qaramay u hikoyalar yozishda davom etadi. Bu yerda u " Je ne parle pas francais " hikoyasini yozadi. Shu yili uning " Блаженство " (Bliss) deb nomlangan hikoyasi chop etiladi. Bu hikoya erining bevafoqligiga uchragan ayolning taqdiri haqidadir. Bu hikoya tanqidchilar olqishiga sazovor bo'ladi. Keyinchalik esa, bu hikoya uning ikkinchi hikoyalar to'plamining nomi qilib olinadi va bu to'plam 1920-yilda nashr etiladi.

1918-yilda Mensfild Jon Marriga turmushga chiqadi. 1919-yil boshlarida Jon Marri e'tiborli " Ateneum " (Athenaeum) haftaligiga redaktor etib tayinlanadi. Mensfild uning bu nashriyoti uchun 100 dan oshiq obzor yozadi. Ammo bular Mensfildning o'limidan keyin Jon Marri tomonidan tayyorlangan " РоманыиРоманисты " (Novels and Novelists) nomli to'plamda nashr etiladi.

Mensfildning ahvoli tobora yomonlashib boradi, 1919-yil aprelda Angliyaga qaytib keladi va bu uning bu yerga qilgan so'nggi safari edi. U umrining so'nggi yillarini yashayotganini his qiladi va buni kundaliklarida ham yozib boradi:

*" Я пишу... Если бы только успеть написать все рассказы,- только бы хватило времени! "*⁴⁰

Uning bu gaplaridan ko'rinib turibdiki, sog'lig'i yomonlashayotganiga qaramasdan ijod qilishda ilhomi to'lib-toshib kelardi va hayolidagi barcha hikoyalarni qog'ozga tushirishga oshiqardi. Yozuvchilik allaqachon uning hayotining mazmuniga aylanib bo'lgandi. 1919-yil yozida Mensfild vaqtini Virjiniya Vulf bilan o'tkazadi, ular dugonaga aylanib ulgurishgandi. Virjiniya Vulf uni yozuvchi sifatida juda qattiq hurmat qilgan. Bu haqida u Mensfildning o'limidan so'ng o'z kundaligiga yozgan:

" Единственная писательница, которая я завидовала ".

⁴⁰ Биография Кэтрин Мэнсфилд. <http://elenakuzmina.blogspot.com/>

1919-yil sentabrda Mensfild Italiyaga keladi va bu yerda u “ История женатого человека ” (The Man Without a Temperament) hikoyasini yozadi. Bu hikoya kasallikka chalingan ayol va uning iztirob chekayotgan eri to'g'risida edi. Hayotining so'nggi yillarida u o'z hayotida kechayotgan muammolardan kelib chiqqan holda hikoyalar yoza boshlagan. Bu hikoyada ham u kasal ayol va eri misolida o'z hayotini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan nazarimizda.

1921-yilda sog'lig'ining yanada yomonlashayotganiga qaramay, Mensfild eng ahamiyatga ega bo'lgan ishlarini yozadi. 1922-yil fevralda Parijga keladi va shu yerda o'zining so'nggi hikoyalarini yozadi- “ Myxa ” (The Fly) va “ Kanareyka ” (The Canary). U “ Kanareyka ” hikoyasini yozganda bolalik yillari o'tgan ona vatani Yangi Zelandiyaga qaytishni orzu qiladi, ammo bu unga armon bo'lib qoladi. Ketrin Mensfild 1923-yil 9-yanvarda og'ir kasalligi tufayli olamdan o'tadi. Afsuski, uning hikoyalari va she'rlarining ko'p qismi u hayotligida chop etilmagan. Bu ishni uning o'limidan so'ng turmush o'rtog'i Jon Marri o'z zimmasiga oladi. Uning yordamida Mensfildning ikkita hikoyalar to'plami “ Гнездо голубки ” (The Dove's Nest) (1923) va “ Нечто детское ” (Something Childish) (1924) hamda “ Aloe ” (The Aloe) nomli she'ri, “ Романы и Романисты ” (Novels and Novelists) nomli tanqidiy ishlardan iborat bo'lgan to'plami, avval nashr etilmagan bir qancha xatlari va kundaliklari chop etilib, ommaga taqdim etiladi.

Ketrin Mensfild o'z davrining eng yaxshi kichik hikoya yozuvchilaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda uning sharafiga ko'pgina maktablar uning ismi bilan nomlangan. Yangi Zelandiyaning Vellington shahridagi Karori maktabida uning xotirasi va ijodiga bo'lgan hurmat sifatida Mensfildning haykali o'rnatilgan. Fransiyaning Menton shahrida esa u yashab, ijod etgan uy joylashgan ko'cha uning sharafiga nomlangan va har yili uning sharafiga beriladigan stipendiyaga sazovor bo'lgan Yangi Zelandiyalik yozuvchi Mensfild ijod etgan o'sha uy (Villa Isola Bella) da ishlash imkoniga ega bo'ladi. Shuning bilan birga, Yangi Zelandiyada

o'tkaziladigan eng yaxshi hikoya uchun mashhur tanlov ham Ketrin Mensfild nomi bilan nomlangan.

Ketrin Mensfildning ijodiy yo'nalishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u asarlarida ijtimoiy-psixologik muammolarni ko'proq yoritganligini kuzatamiz. Uni doim odamlar o'rtasidagi munosabat, oila a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlar, boylik hamda qashshoqlik, yaxshilik va yomonlik, sinfiy tabaqalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kabi jumboqli mavzular qiziqtirgan. Ko'p yillar davomida tanqidchilar tomonidan Mensfild ijodida ingliz hamda rus adabiyotining ta'siri sezilib turishi haqida bahs-munozaralar olib borilgan. Ketrin Mensfild Yangi Zelandiyada ulg'aygan ilk nosir-yozuvchi edi. U o'z milliy adabiyotiga dunyo adabiyotini yaqinlashtirdi. Ulardan o'rganib, ta'sirlanib, vatani va xalqi ko'nglidagi dardu armonlarini jonli, hayotiy ko'rinishda tasvirlashga erishdi. Qalamga olgan mavzularni, fikr-g'oyalarni umumbashariy ahamiyatga molik maqomga ko'tara oldi. Masalan, hayotda bir-birini tushunmay yashab kelayotgan er va xotin, ota-ona va bolalar munosabati uning ijtimoiy – psixologik mavzudagi asarlarini yaratishiga turtki bo'lgan. Ayniqsa , uning ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlariga bag'ishlangan “ The little girl ” (“ Qizaloq ”) va “ New dresses ” (“ Yangi ko'ylaklar ”) kabi hikoyalarini alohida ta'kidlashimiz lozim. “ The little girl ” (“ Qizaloq ”) nomli hikoyasida Mensfild Kes ismli qizaloqning dadasining oldida hayajonlanib, qo'rqishi; uning oldida gapirganida jur'atsizlarcha hadiksirab turishi, hattoki, bu qo'rquvi natijasida, aynan, dadasining oldidagina gapirganida duduqlanib qolishini mahorat bilan ifodalab bergan. Qizcha otasining ish stoli ustidagi kerakli qog'ozlardan dadasining tug'ilgan kuniga sovg'a tayyorlamoqchi bo'lganligi uchun uni qattiq jazolaydi. Qizaloq hikoya davomida otasi va onasini doimo band holda ko'radi, holbuki, ota-ona bolasiga mehr berish uchun ham alohida vaqt ajratishi zarurdir. Nazarimizda, Ketrin Mensfild ham hikoya orqali o'quvchilarga xuddi shuni anglatishni maqsad qiladi. Hikoyaning yakunida qizaloq, uxlab qolgan, o'sha qattiqqo'l va qo'rqinchli dadasini bolalarcha beg'ubor qarashlari bilan, ojiz va oilasi uchun pul topish maqsadida

ishlab toliqqan, mehribon otasi sifatida qabul qila boshlaydi. Bu bilan yozuvchi bolalar dunyosining naqadar, beg'ubor hamda sof ekanligini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan. Keyingi hikoya “ New dresses ” (“ Yangi ko'ylaklar ”) da esa otanonaning oilada farzandlaridan birini ustun qo'yishi, ularga mehr berganda teng tutmasligi hamda farzandiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini qoralaydi va buni jonli, hayotiy, ta'sirli ifodalab berishga erishadi.

Ketrin Mensfild ijodining muhim jihati uning aynan kichik hikoya janrini rivojlantirishga qo'shgan hissasidadir. Bunda, ayniqsa, rus yozuvchisi Chexovning ta'siri katta bo'lgan. Mensfild uning asarlaridan ruhlanib, bir qancha hikoyalar yozgan. Misol uchun, uning “ The child who was tired ” hikoyasi Chexovning “ Спатьхочется ” hikoyasi bilan juda o'xshash hisoblanadi va bu haqida uzoq yillar davomida Mensfild ijodini o'rgangan tanqidchilar bahs-munozara olib borishgan. Bundan tashqari, Mensfildning yana bir qancha hikoyalari Chexov asarlaridan ruhlanib yozilgani uchun ham ularda ayrim o'xshashliklarni kuzatishimiz mumkin. Bunday o'xshashliklar ko'pincha ular qalam tebratgan mavzu yuzasidan kelib chiqadi. Masalan, har ikkala yozuvchi ham urush, urush keltirgan kulfatlar, uning salbiy oqibatlari, mansabdorlar yoki burjua vakillari o'rtasidagi laganbardorlik, jamiyat kirdikorlari va undagi yomon illatlarni ko'rsatib berishga doir bir qancha ijtimoiy-psixologik ruhdagi asarlar yaratishgan.

Albatta, boshqa buyuk yozuvchilar singari Mensfild ijodining ham o'ziga xos boshqa ijodkorlardan ajralib turuvchi jihatlari ham bo'lgan. Masalan, u hikoya yozganda hikoyani atrof-muhitni va holatni tasvirlashdan boshlaydi va bunda u mayda detallargacha e'tibor beradi. Hikoya qahramonining ko'rinishi, holati, dunyoqarashi, ichki dunyosi hamda ichki kechinmalarini ifodalab berishga harakat qiladi. Ayniqsa, obrazlarning ichki dunyosi va o'y-fikrlarini ko'rsatib berishga alohida e'tibor beradi. Hozirgi kungacha K. Mensfildning asarlari bir necha marta qayta-qayta chop etilgan.

Ketrin Mensfild atigi 35 yillik hayoti va 15 yillik ijodiy faoliyati davomida yaratgan asarlari orqali dunyo adabiyotida munosib o'rin egalladi. U ijodida

Chexov an'analarini davom ettirgan bo'lsa-da, uning o'ziga xos, betakror hikoyalari ko'pchilikni tashkil qiladi. Uning asarlariga qiziqish hech qachon so'nmagan.

II BOB XULOSALARI

Magistrlik dissertatsiyamizning ikkinchi bobida ingliz, rus, o'zbek adabiyotida kichik hikoya janrida ijod qilgan hamda uni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan uchta buyuk hikoyanavis, ya'ni rus adabiyotida A.P. Chexov, ingliz adabiyotida Kettrin Mensfild va o'zbek adabiyotida Abdulla Qahhorning hayot va ijod yo'llarini kuzatdik. Izlanishimiz jarayonida bu uch yozuvchining hikoyalari, ularning o'xshash va farqli jihatlari, har birining hikoya yozish uslublari, hikoyalarida ilgari surilgan mavzu va muammolarni o'rgandik. Bulardan tashqari ularning ijodi to'g'risidagi olimlar hamda adabiyotshunos yozuvchilar bildirgan fikrlar bilan ham tanishdik.

II bobda bayon qilingan masala yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

- 1.A.P. Chexov ijodi davomida juda ko'p jamiyat muammolarini ochib beruvchi hikoyalar yaratdi va bu hikoyalarni satira, ya'ni hajviy usulda yoza bildi. Shu sababli ham uning hikoyalari tabiiy, ta'sirli chiqib, omma e'tiborini tez jalb etardi va bugungi kunda ham uning hikoyalari sevib o'qiladi.
- 2.Chexov o'z hikoyalarini realizm oqimida yaratib, I. Gurvich aytganidek 20-asr kichik hikoya janrini nafaqat rus adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham rivojlanishiga ulkan hissasini qo'shdi va bugungi kunda ham hikoyanavislar hikoya yozishda Chexov an'analariga tayanadilar.
- 3.Abdulla Qahhor ham o'zbek adabiyotida o'z hikoyalari bilan kichik hikoya janrini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. U bu janrda nafaqat hikoya yozgan, balki hikoya janrini nazariy jihatdan ham o'rganib, ilmiy izlanishlar olib borgan.

Uning ijodini bugungi kunda ham mutaxassislar o'rganmoqdalar. Uning ijodini ayniqsa, Matyoqub Qo'shjonov o'zining “ Abdulla Qahhor mahorati ” nomli kitobida keng ochib bergan.

4. Abdulla Qahhor ijodida Chexov an'analarini davom ettiradi, hatto uning o'zi ham Chexovni ustoz sifatida ta'kidlagan. Shu sabab ham uning bir qancha “Dahshat ”, “ Millatchilar ” kabi Chexovnikiga o'xshash hikoyalari mavjud.

5. Ketrin Mensfild o'zi Yangi Zelandiyalik bo'lsa-da, ingliz adabiyotida kichik hikoya janrining rivojiga beqiyos hissasini qo'shgan. U ham realizm oqimida ijod qilib, ko'proq ijtimoiy-psixologik yo'nalishda hikoyalar yaratgan. Uning ijodi xususida ko'p ingliz olimlari, yozuvchilari, jumladan Virjiniya Vulf, Alpers kabilar ko'plab ijobiy fikrlarni bildirib o'tganlar.

6. Ketrin Mensfild Oskar Uayld, A.P. Chexov kabi yozuvchilar ijodidan ko'p narsa o'rgangan, ayniqsa, unga Chexovning ta'siri katta bo'lgan. Hatto, uni “ Ingliz Chexovi ” deb ham atashgan. Shuning uchun ham uning ijodida Chexovnikiga o'xshash hikoyalarni uchratish mumkin. Masalan, “ The child who was tired “ bilan “ Спатьхочется” kabilar.

7. Chexov, A.Qahhor, K.Mensfild yozgan hikoyalar bir-biriga juda o'xshash, buning boisi Qahhor hamda Mensfild Chexovni o'zlariga ustoz deb bilganlari va uning hikoya yozish mahorat sirlarini o'rganganliklaridadir. Shuning uchun ham hatto, Qahhor va Mensfildning ayrim hikoyalari ham bir- biriga o'xshashdir. Masalan, “ Dahshat ” va “ Юннаягувернантка”, “ Nurli cho'qqilar ” va “ New dresses ” kabi. Adabiyotda bu uch yozuvchi qoldirgan iz hech qachon o'chmaydi.

3 BOB. INGLIZ, O'ZBEK VA RUS HIKOYALARINING ASOSIY MAVZU, MOTIV VA USLUBIY JIHATLARI

3.1 QO'RQUV VA UMIDSIZLIK (A. QAHHOR “ DAHSHAT ”, A. CHEXOV “ CTPAX ”, K. MENSFILD “ THE LITTLE GOVERNESS ”

II bobimizda kichik hikoya janrining taraqqiyotiga hissalarini qo'shgan uch yozuvchining ijod yo'llari va ular haqida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarni o'rgandik. Endi ushbu bobda ularning bir-biriga o'xshash hikoyalari tahlili xususida fikr yuritamiz. Shu o'rinda, ayniqsa, Ketrin Mensfildga Chexov ijodining adabiy ta'sirini alohida ta'kidlab o'tish lozim: “Muhimi shundaki, Mensfild ingliz adabiyoti an'anasiga ko'ra uzun yozilishi mumkin bo'lgan bu hikoyaning qisqa hajmda yozilishiga e'tibor beradi. Har qalay, bu hodisa asarlari uning uchun juda yaqin va qimmatli bo'lgan, A.P. Chexovning adabiy ta'sirisiz yuz bermagan”⁴¹.

Ketrin Mensfildni o'z davrida zamondoshlari “ ingliz Chexovi “ deb atashgan. Uning ayrim hikoyalarida Chexovning adabiy ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Adiba ijodida turli tomondan mutanosiblik ko'zga tashlanadi. Bu holni ba'zan mavzu, ba'zan g'oya va asar mohiyatiga aloqador tarzda ko'rish mumkin. Masalan , uning “The little Governess “ (Yunnaya gubernantka) hikoyasini olsak, bu hikoya yoshgina qizning yolg'iz o'zi tungi poyezdda Angliyadan Germaniyaning Myunxen shahriga enagalik qilish uchun otlangani bilan boshlanadi. Undayanaqizningyolg'iz,yaqinlarisizketayotganligihaqidagixavotiri,

⁴¹ Л. Володарская. Кетрин Менсфилд и ее рассказы. Ст.: Кетрин Менсфилд. Рассказы. Перевод с англ. Москва. Книга. 1989, стр.13

o'y-kechinmalari, tuyg'ularimahoratbilanifodalabberilgan. Shunday qo'rquv va xavotir ichida ketayotgan lediga qari bir chol hamrohlik qila boshlaydi. Avvaliga, ledi undan qo'rqib, shubha bilan qaraydi. Keyinchalik, bolalarcha beg'uborligi tufayli cholni xuddi o'z bobosidek hurmat qila boshlaydi, afsuski, unga ishonadi. Myunxenga yetib borgach, chol qizni shahar bo'ylab aylantiradi va uyiga olib borib o'zining qabih rejasini amalga oshirmoqchi bo'ladi. Qiz cholning uyidan qochib chiqadi, ammo yosh qizning ishonchi poymol bo'lgan edi. U cholga ishonib katta xato qilganini anglab yetadi. Hikoyada hayot dahshati, insoniyat axloqidagi chirkin tomonlar, yosh qizning bolalarcha beg'ubor qarashlarining chil-parchin bo'lishi ishonchli va ta'sirchan ko'rsatib berilgan.

Asarda yozuvchi hayotda uchraydigan beg'uborlik, ko'ngli tozalik va samimiylilikni shuning aksi bo'lgan yolg'on, firibgarlik va qalloblikka zid qo'yadi. Ana shu kontrast ijodkorning adabiy maqsadini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Hayotda nur va soya bir-biri bilan bog'liq. Soya bor ekan, nurning yorug'ligini, uning qadrini, afzalligini his etamiz.

Adibaning hayotning ikki qutbini – ijobiy va salbiy jihatini qarama-qarshi ko'rinishda tasvirlashdan maqsadi ham xuddi shu o'rinda namoyon bo'ladi. U o'quvchiga hayotning g'animatligini, uni qadrlashni va umrni faqat ezguliklar yo'lida sarflash lozimligini uqdirmoqchi bo'ladi. Chunki, yomonlik ro'parasida turgan ezgulik, zulmat (dahshat) qarshisida turgan yorug'lik o'quvchi tasavvurida aniqroq bo'y ko'rsatadi. Ketrin Mensfild hikoyadan xulosa chiqarmaydi, "dahshat"ning nimaligi haqida gapirmaydi. Bu boradagi mushohadani o'quvchining o'ziga qoldiradi.

Abdulla Qahhor ham Chexov ijodi uning uchun ulkan adabiy maktab vazifasini o'taganligini ko'p bora e'tirof etgan. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, tabiat tasvirlarida, obrazlar xarakterini yoritishda, keltirilgan har bir so'z, albatta, muhim yechimga ega bo'lishida chexovona uslub ta'sirini ko'ramiz. Jumladan, Chexovning "Strax" (Dahshat) nomli hikoyasi bor. Abdulla Qahhor ham o'z hikoyalaridan birini xuddi shunday, ya'ni "Dahshat" deb nomlaydi. Mazkur asarlarni qiyoslaganimizda, mualliflarning bir-biriga yaqin jihatlari va asarlaridagi farqli, ya'ni

o'ziga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ikkala hikoyada ham sarlavhadan boshlab, o'quvchi e'tibori dahshat tushunchasiga qaratiladi. Dahshat bu nima, degan so'roqqa javob izlanadi.

Hikoyalardagi mazmun chuqur, falsafiy, ko'pqatlamli ma'noga ega. Ikkala asarda ham voqea "kichkinagina jamiyat"da, bir oila doirasida bo'lib o'tadi. Tashqaridan qaraganda, sokin, muvozanatdagi hayot qa'rida butun insoniyatni tanazzulga yetaklash kuchiga ega bo'lgan qudratli to'fon g'alayoni mavjudligini ikkala ijodkor ham mohirona ifodalab bera oladi. Ikkala hikoya asosini ham qo'rquv va dahshat tuyg'usi belgilab beradi. Hikoyalardagi Silin va Unsin obrazlari ma'naviy pokiza, insofli, vijdonli va beg'ubor insonlar. Ular yashayotgan jamiyatlarida o'zlari kabi musaffo muhitni izlashadi. Pokiza olamdan, toza havodan nafas olishni orzu qilishadi. Ammo har qadamda buning aksiga duch kelishadi. Atrofdagi, jamiyatdagi chirkin muhit ularni qo'rquvga soladi. Tiniq ko'ngillarida dahshat tuyg'usini uyg'otadi.

Chexovning hikoyasi bosh qahramon Silin shaxsining xarakterini, mohiyatini tasvirlash bilan boshlanadi. Biz unda hayotda o'z o'rnini topa olmagan, oldida ulkan maqsad va orzulari bo'lmagan, shu kunining o'tganidan shukrona etish bilan cheklanib yashayotgan nafaol, ezilgan bir inson qiyofasini ko'ramiz. Asarda hikoyachi unga baho berar ekan, "...unda xo'jayin yo agronomni emas, faqat ezilgan odamni ko'raman", deydi. U aqlli, mehribon, samimiy, chuqur falsafiy fikrlay oladigan kishi, ammo o'zini himoya qilishga jur'ati yetmaydigan, hatto, gapirishida ham ma'yuslik va yalinchoqlik ohangi sezilib turadigan ojiz bir shaxs sifatida tasvirlanadi. Chexov o'quvchini Silin obrazi bilan tanishtirar ekan, bir necha jihatini e'tirof etishi bilan, ya'ni qorayib, changga botib, mehnatning og'ir yuki ostida ezilishi; ishdan so'ng mudrab o'tirishi, xotini uni yosh boladay uyquga yotqizishi va, hatto, yalinchoq ohangda gapirishining o'zidayoq, uning xarakterini mahorat bilan chizib bera oladi. Ammo, shunday ijobiy axloq me'yorlariga ega bo'la turib, hayotda o'z o'rnini topa olmaydi, NEGA? Chunki bunga atrofdagi muhit, jamiyatdagi yuzsiz, nomsiz, insofsiz insonlar sabab.

Chexov hikoyada keltirilgan har bir soʻzga, har bir obrazga asar mohiyatini yoritib beruvchi alohida yuk yuklaydi. Jumladan, buni biz voqeani bayon etuvchi hikoyachi timsolida ham kuzatamiz. Eʼtibor bersak, u asarning boshidan oxirigacha qatnashadi. Ammo biror oʻrinda uning ismi tilga olinmaydi. Shuning oʻzi ham chexovona maʼnoga ega. Chunki u oʻz insonligini yoʻqotgan, vijdon, insof, koʻngil, muhabbat, vafo, sadoqat, doʻstlik kabi tuygʻulardan mosuvo boʻlgan, ularni unutgan yuzsiz, mohiyatsiz, vujudiy qafasga aylangan banda. Shu sababli ham uning ismi yoʻq. Chunki ism insonning mohiyati bilan bogʻliq. Unda maʼno bor. Uning fikrlashidan, dunyoqarashidan, Mariya Sergeevnaga munosabati borasida aytgan quyidagi soʻzlaridan xarakteridagi kemptikliklar sezilib turadi: “Men uni sevmas edim, ammo menga uning yuzi, koʻzlari, ovozi, yurishlari yoqardi”⁴².

Hikoyada doʻstlik haqida soʻzlanganda, barcha oʻrinda Dmitriy Petrovich Silin bilan hikoyachi obrazi bir-biriga muqobil ravishda, yonma-yon keladi. Bu esa ikkala timsol xarakterining yorqin ochilishida muhim omil vazifasini bajaradi: “... u (Dmitriy Petrovich – S.A.) oʻz koʻnglidagi sirlarini menga ishonib, munosabatlarimizni doʻstlik deb ataganida, bu meni noxush toʻlqinlantirar va oʻzimni noqulay sezardim”⁴³.

Hikoyachi xarakteri oʻz tili bilan yoritiladi. Unda Chexov insonning tubanlashish yoʻlini koʻrsatgan, deyish mumkin. Mazkur parchada u hali yoʻlda. Tubanlik botqogʻiga botganicha yoʻq. Xiralashgan koʻngil koʻzlarida olisdan boʻlsa-da, xiragina nur koʻrinadi. U hali dilsizligidan oʻzini noqulay sezadi. Asar boshida Mariya Sergeevna bilan yolgʻiz qolganda, uning eri oʻzining doʻsti deb hisoblashini eslaydi. Bundan kayfiyati tushib, zerikadi: “U pianinoda men yoqtirgan pyesani chalib bersa yoki biror qiziq voqeani hikoya qilsa, men mazza qilib tinglar va ayni damda negadir miyamga u oʻz erini sevadi, u mening doʻstim, ayoli ham meni uning doʻsti deb hisoblaydi, degan fikr kelaverardi. Shunda mening kayfiyatim tushar, boʻshashar, oʻzimni noqulay va zerikkan his etardim”⁴⁴. Koʻrinadiki, har bir inson yelkasida, xalqona ibora bilan aytganda, shayton va rahmon oʻtiradi. Kimning yoʻliga

⁴²Asardan tarjima

⁴³Asardan tarjima

⁴⁴Asardan tarjima

yurishni esa har kimning o'zi tanlaydi. Shu tanlov orqali u o'zining taqdirini, kelajagini, hayotini yaratadi. Hikoya boshida biz xuddi ana shunday tanlov oldida turgan inson obraziga duch kelamiz.

Xuddi shu vaziyatda Chexov asarga yana bir obrazni olib kiradi. U Sorok Muchenikov. Tasvirlanishicha, uning nasl-nasabi imtiyozli, otasi ruhoniylar, onasi oqsuyak zodagonlar tabaqasiga mansub. Ammo ichkilik tufayli o'z yo'lini yo'qotgan. Mast-alast, parokanda yashashga mahkum. Ammo Chexov uning shunday ahvolga tushishining sababini ko'rsatib beradi. Bu sababning, nihoyatda, arziyasiz ekanligi (tamaki chekkanligi uchun o'qishdan haydaladi), o'quvchida Sorok Muchenikovga nisbatan emas, balki uni shu ahvolga tushirgan muhitga nisbatan nafrat paydo qiladi. Kitobxon o'z ko'nglida jamiyatni taftish etib boshlaydi. Demak, inson o'z-o'zidan yo'ldan chiqib ketmas ekan, uning sababini chuqurroqdan, atrofdagi insonlar majmuidan, jamiyatdan axtarmoq lozimligi anglashiladi.

Sorok Muchenikov ichkilikdan boshqa narsa qiziqitirmaydigan darajaga kelgan. Ammo, Chexov noziklik bilan, unda xudodan qo'rquv va vijdon borligiga ishora etib ketadi: “- ...Birgina qudratli xudo oldida javob berishim kerakligidan qiynalaman. Albatta, men tamom bo'lgan, bir bo'lak nonsiz, itdan badtar va qobiliyatsiz odamman, ammo vijdonga ishonib. Kechiring, Dmitriy Petrovich”.

Chexov asaridagi har bir detal yozuvchi maqsadini ochishga xizmat qiladi. Bu obraz faqatgina hayotiy voqelikni real ko'rsatish uchunгина keltirilmagan. Uning kirchir, yirtiq-yamoq ko'rinishi qandaydir noxushlikdan dalolat beradi. Ziddiyatli qiyofasi, ma'lum ma'noda hikoya syujetidagi keyingi voqealar bilan bog'lanadi. Hikoya bosh qahramonlarining kechmishlarida kutilayotgan navbatdagi xiraliklardan darak berib turadi.

Hikoyada tabiat tasvirining ham alohida o'rni bor. Asarda o'quvchi obrazlar bilan tanishtirilgandan keyin manzara tasvirlanadi. Unda, avvalo, cherkov oldida turgan qahramonlar, daryo, suv bosgan o'tloq, atrofida odamlarning sharpalari ko'rinayotgan gulxan haqida so'zlanadi. Bularning hammasida, nazarimizda, oddiy manzaradan tashqari ramziy ma'no ham bor. Qahramonlarning cherkov oldida turib suhbatlashishi – har bir inson o'z amali uchun javobgar ekanligini, daryo - umrni, suv

bosgan o'tloq – insonning turli xil amallarini, gulxan - atrofdagi insonlarning yondiruvchi, noxush qilmishlarini eslatadi. “Daryoda va o'tloqning qayeridadir tuman ko'tarildi”. Tuman yulduzlar tasvirini to'sgani, daryo ustida suzib yurgani haqida gapiriladi. Tuman - osmon, nur va yorug'lik bilan bog'liq. Ularni to'smoqda. “Ular har daqiqa o'z ko'rinishini o'zgartirar, ayrimlari quchoqlashishayotgandek, boshqasi ta'zim qilayotgandek, uchinchi esa xuddi ruhoniyni keng yengli qo'llarini osmonga ko'tarib ibodat qilayotgandek tuyulardi”. Mana osmonda suzib yurgan tumanning tasviri. U insonlarga xos xususiyatlar bilan ta'riflanmoqda. Quchoqlashayotgan, ta'zim qilayotgan, ibodat qilayotgan insonlar qiyofasi. Tumanning bunday tasvirlanishidan maqsad koinotda hamma borliq bir-biriga bog'liq, aloqada ekanligini ta'kidlashdan iborat. Taqdirarga ta'sirdan xoli emasligini e'tirof etish. Yozuvchi o'quvchi diqqatini, ana shu tumanli, tushunarsiz tuyulgan manzara mohiyatini o'ylashga, uni anglash uchun urinib ko'rishga qaratadi. Bunday kayfiyat asar bosh qahramoni Silinning arvohtarlar, marhumlar va tiriklar borasidagi o'y-fikrlarini yuzaga chiqib, namoyon bo'lishiga turtki bo'ladi. Biroz keyinroq, Silin nutqi orqali nega aynan ana shunday tumanli manzarani chizib berganligini yozuvchining o'zi ham izohlab ketadi: “Men sizni sevmayman, ammo sadoqatli bo'laman”, - bu nima degani? Bu tuman, qorong'ulik... Men sevaman va javobsiz sevimni bilaman. Allaqachon ikkita bolang bor ayolga nisbatan javobsiz sevgi! Nahotki bu tushunarli va dahshat emas? Nahotki, bu arvohtlardan qo'rqinchli bo'lmasa?” Xuddi shu o'rinda hikoyaning, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan, bosh g'oyasi Silin tilidan o'rtaga tashlanadi: “Bizning hayot va narigi dunyo bir xilda tushunarsiz va qo'rqinchli. Kim arvohtdan qo'rqsa, u mendan ham, bu olovdan ham, osmondan ham qo'rqishi kerak. Agar yaxshilab o'ylab ko'rilsa, bularning hammasi tasavvurga sig'maslik va fantastiklikda narigi dunyodan kam emas”.

Hikoyaning xuddi shu o'rni eng chuqur, falsafiy mushohadalar bilan boyitilgan. Nazarimizda, Silin nutqida Chexovning dunyoqarashi, olam va odam, uning mohiyati va munosabati masalalari haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Unda yozuvchi o'z yurtining milliy mentaliteti, qishloqlarining hayoti, odamlarining ichki olami, ma'naviyati manzaralarini mukammal tasvirlab beradi. Chexov

hikoyalaridan birini tahlil eta turib, A.Qahhor bu haqda shunday degan edi: “Bu hikoya Rusiya qishloqlariga qarata Chexovning usta qo’li bilan ochilgan “darchalar”ning biridir. ...Uning butun ijodida butun Rusiyani ko’rish mumkin”⁴⁵.

Silin hayoti moddiy jihatdan to’kis. U mehnatkash, aqlli odam. Xo’sh, hayotning uni qanoatlantirmayotgan jihati nimada? U nimadan qo’rqadi? Asarda Silin bu savolga shunday javob beradi: “... biz kam bilamiz, shu sababli, har kuni xato qilamiz. Adolatsizlik qilamiz, aldaymiz, boshqalarning haqqini yeymiz. Bizga kerak bo’lmagan va yashashga xalaqit beradigan bema’niliklarga butun kuchimizni sarflaymiz. Bular men uchun qo’rqinchli. ...Men, azizim, odamlarni tushunmayman va ulardan qo’rqaman”⁴⁶.

Demak, Silin atrofidagi jamiyatni tashkil etuvchi insonlarning mantiqsiz hayot kechirishidan qoniqmaydi. Uni atrofdagi ijtimoiy muhit, kishilarning ma’naviyatsizligi ranjitadi. O’zidek sof ko’ngil izlab iztirob chekadi. Qiynaladi. Jamiyatda o’zini yolg’iz his etadi. Ana shu ma’naviy yolg’izlanish uni qo’rqitadi, dahshatga soladi: “Mening fantaziyam minglab eng qayg’uli hissiyotlarni kashf etgan, nihoyatda, xursandchilik va dahshatli holatlarga meni olib chiqqan. Ammo, sizni ishontirib aytaman, bu voqelikdan ko’ra qo’rqinchliroq tuyulmagan. Aytish mumkinki, arvohlar qo’rqinchli, ammo hayot ham qo’rqinchli. Men hayotni tushunmayman va undan qo’rqaman”.

Yozuvchi Silin nutqi orqali vijdon, insof tushunchalarini unutgan, ma’naviyatsiz olomonning kirdikorlarini fosh etadi. Undaylar o’z manfaati yo’lida har qanday nopokliklarni va dahshatni kiprik qoqmay, seskanmay bermalol amalga oshirishi mumkin. Silin amalda faoliyatsiz shaxs bo’lsada, fikrlaydigan inson. Atrofidagi har bir hodisani tafakkur chig’irig’idan o’tkazib ko’radi. O’ylanadi. Hayotning tumanli manzaralari ko’nglini yashashdan sovitadi. Uni tushkun holatga tushiradi. Ammo Silin obrazining kamchiligi u mavjud yashash tarzini o’zgartirishga harakat qilmaydi. Asarda uning bunday nuqsonli ekanligi yozuvchining maqsadi bilan bog’liq. Chunki adibning niyati uning xarakterini o’zgartirish yoki

⁴⁵Asardan tarjima

⁴⁶Asardan tarjima

faoliyatsizligini ko'rsatish emas, balki Silin orqali ijtimoiy jamiyatni fosh etish. Zamondoshlarining ko'zini ochish. Hushyor torttirish. O'z yashash tarzlari, birlariga munosabatlari haqida o'ylab ko'rishga da'vat. O'ylaymizki, yozuvchi o'z maqsadiga a'lo darajada erishgan. U hikoya orqali faqat zamondoshlarining emas, balki kelajak avlod dunyoqarashining ham tiniqlashishiga hissa qo'shadi.

Hikoyada "dahshat", "qo'rquv" so'zlari 40 marta ishlatilgan. Har bir so'zni katta yuk va mas'uliyat bilan qo'llagan yozuvchi, bu kalomni shunchalik ko'p ishlatgani, unga urg'u berilgani muhim ma'noga ega. Olamda so'z bor. So'zda olam bor. Shundan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, "qo'rquv" so'zida butun olam mavjud. Dunyoni asrash, ma'noli yashash- hammasi "qo'rquv" bilan bog'liq. Hayotning butun mazmuni unda mujassamlashgan.

Yozuvchi insonlar tomonidan sodir etilayotgan dahshatlar qanchadan qancha yosh taqdirining izdan chiqishiga, maqsad yo'lidan chekinishlariga sababchi bo'layotgani, bular esa mamlakat taqdirini xavf ostida qoldirayotganiga o'quvchi e'tiborini jalb etadi. Silin "do'stiga" butun ko'ngil dardini to'kib solgandan keyin, u endi xursand. Chunki uni tushunadigan, tinglaydigan, hamdard inson bor. Endi u, bir muddat bo'lsa-da, ulkan maqsadlar haqida o'ylay boshlaydi. Rejalar tuzadi. Kelajakka umid paydo bo'ladi. : "Endi qayg'u va qo'rquv bilan emas, balki xursandlik bilan, agar oilasida hamma narsa ko'ngildagidek bo'lsa, Peterburgga qaytib, u yerda ilm bilan shug'ullanishini aytdi. Qanchadan qancha iste'dodli yoshlarni qishloqqa haydagan qayg'uli ta'sirlarni gapirdi. Javdar va bug'doy bizning Rossiyada ko'p, ammo madaniyatli kishilar mutlaqo yo'q. Iste'dodli, sog'lom yoshlar ilm, san'at va siyosat bilan shug'ullanishlari lozim. Boshqacha yo'l tutish rejasizlik demakdir". Mazkur fikrlar faqat Silin obrazini yorituvchi mulohazalar emas. Unda butun Rossiya taqdiri uchun qayg'urish, uning kelajagini taftish etish, xalqi ma'naviyatini yuksaltirish yo'llarini izlash maqsadi o'z ifodasini topgan.

Biz hikoyani kompozitsiya jihatidan ikkiga ajratishimiz mumkin. Dastlabki qismlarida Silin obrazi, uning fikrlari, dunyoqarashi faol. O'quvchi diqqatini jalb etadi. U orqali ko'z oldimizda Rossiya hayotining butun manzarasi chizib beriladi. Ammo ikkinchi qismda Silin obrazi biroz chetga chiqadi. Obrazlar munosabati

o'zgaradi. Endi markazga uning xotini Mariya Sergeevna va hikoyachi obrazi chiqadi. O'quvchi ularning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, ma'naviy olami bilan tanisha boshlaydi. Ularning haqiqiy qiyofasi namoyon bo'ladi. O'quvchi dastlabki qismda dahshat haqida nazariy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi qismda endi uni o'z ko'zi bilan amalda ko'radi. Uning butun dahshatini qalbi bilan his qiladi. Insonning qabihligidan dahshatga tushadi. Undan nafratlana boshlaydi.

Mazkur ikki obraz xarakterini Chexov mohirona ochib bera olgan. Ularning bir-biriga munosabati, ma'naviyati, insoniy qiyofasi o'z nutqlari vositasida hayotiy, sodda va aniq ifodalangan. Zohiran qaraganda, ular bir-biri bilan oddiy suhbatlashayotganga o'xshaydi. Ammo har bir jumla kinoya asosiga quriladi. O'quvchi undan, tashqarida boshqa ma'no, fikr ostida esa boshqa ma'no nazarda tutilganini osongina ilg'aydi. Yozuvchi bunday usul orqali inson vujudida ikki shaxs yashashini (tashqi va ichki) ta'kidlaydi. Zohiriy, silliq munosabatlar ortida insonni maxluqlashtirish, axloq meyorlarini muvozanatdan chiqarish quvvatiga ega nafsoniy xislatlar yashirinligini oshkor etadi: “- Do'stlik uchun bu yerga oyida bir marta kelishim yetarli bo'lardi, men esa tez-tez, deyarli har hafta kelaman” (Nega? Degan savol paydo bo'ladi); Yana: “... Siz bu yerga faqat Dmitriy Petrovich uchun kelasiz. Nima ham derdim, men juda xursandman. Bizning asrda bunday do'stlik kamdan-kam uchraydi” (?)...

Chexov asarlaridagi obrazlar xarakterini yoritishda dialoglarning juda muhim o'рни bor. Ular hikoyada shunchaki suhbat jarayoni emas, balki, nihoyatda, katta vazifani bajaradi. Har bir muloqot voqea sodir bo'layotgan jarayon, vaziyat, xarakter va holatni keng qatlamli mantiq asosida ochib berishga xizmat qiladi. Aniqrog'i, tasvirga hayotiylik, jon ato etadi:

“- Ammo allaqachon xayrli tun tilash vaqti edi, - dedi u qat'iy.

-Men xayrli tun tilashni xohlamayman... – dedim kulib va uning ortidan mehmonxonaga yurib. – Men bu kechani, agar u xayrli bo'lsa, la'natlayman.

Uning qo'lini siqib, eshikkacha kuzatib qo'yayotib, yuzida meni tushunayotganini, men ham uni tushunayotganimni va bundan uning xursandligini ko'rdim”.

Asardagi eng kulminatsion nuqtada, hikoyachi tilidan so'nggi, qat'iy hukm e'lon etiladi. Bu Chexov tasvirlagan jamiyatning ichki tanazzulini to'raligicha qamrab ko'rsata olgan xulosa deyish mumkin: "Hayot uning (Dmitriy Petrovich) nazaricha dahshatli, - o'yladim men. Shunday ekan tortinma, uni sindir. Senga bosim o'tkazmayotgan ekan, undan nimani yulish mumkin bo'lsa, hammasini ol".

Syujet davomida uchraydigan har bir detal, har bir narsa ma'lum vazifani bajaradi. Jumladan, stol ustida yotgan Dmitriy Petrovichning bosh kiyimi, shudring, tuman, yashil kursi, tepalik, Shekspir pyesasi va boshqalar.

Asardagi tabiat manzarasi ham syujet mazmuniga mutanosib ravishda o'zgarib boradi. Dastlabki qismda quyoshning botishi, tuman, qorong'ulik tasvirlangan bo'lsa, bu o'rinda endi nurni chetga surib, undan balandga chiqib olgan soya haqida gapirila boshlanadi: "Biz yonma-yon pardaning soyasida turardik, pastimizda oy nuriga ko'milgan zinapoya bor edi. Gulzorda va xiyobonning sariq tuprog'ida daraxtlarning qop-qora soyasi cho'zilib yotardi".

Asardagi hikoyachi o'ziga xos obraz. Uning xarakteri Chexovona uslub va mahorat bilan yoritib berilgan. Tabiatining ayrim qirralari nutqi orqali ochib berilsa, ayrimlari esa fikrlash tarzi, dunyoqarashi orqali fosh etiladi. Quyidagi parchadan uning muhabbat borasidagi tushunchasi, bunday muqaddas tuyg'uga munosabati ayon bo'ladi: "Uning menga muhabbatida Dmitriy Petrovichning do'stligidagi kabi, qandaydir noqulaylik va og'irlik bor edi. Bu ko'z yoshlar va qasamlar bilan katta va jiddiy muhabbat edi. Men esa, hech qanday jiddiy narsa – ko'z yosh ham, qasam ham, kelajak haqidagi so'z ham bo'lmasligini xohlardim. Bu oydin kecha bizning hayotimizda yorug' uchar yulduz kabi yarq etsa bo'ldi edi, vassalom". Bu fikrlardan uning qanchalik ma'naviy jihatdan tuban, ko'ngil olami qop-qorong'u, tumanli hislar qurshovida xira tortgan, odamiylik mezonu meyorlarini unutgan odam ekanligi ayonlashadi.

Hikoya so'ngida asarning boshdan oxirigacha ipdek tarang tortilgan dahshat tuyg'usini o'quvchi ham tushunib yetadi. U uning ko'ngliga ham ko'chadi va dahshatga tusha boshlaydi.

Silin azaldan shunday yaralgani, “do’shti”ning biror narsani tushungan bo’lsa tabriklashini aytib chiqib ketadi va qo’rqinch aralash otga qamchi bosadi.

Sorok Muchenikov o’zining erkin odamligi, oliy nasabliligi haqida otlarga qichqirib, va’z o’qiydi.

Hikoyachi “miyasidan chiqmayotgan Dmitiriy Petrovichning qo’rquvi unga ham o’tgani”haqida, hech narsani tushunmayotganligi haqida so’zlaydi. “Nega aynan shunday bo’ldi, boshqacha emas?” deya o’ziga savol bera boshlaydi.

Ko’rinadiki, hikoya so’ngida syujet nihoyatda keskinlashadi. Yozuvchi juda ko’p savollarni o’rtaga tashlaydi. Bu so’roqlar o’quvchini o’ylashga, javob qidirishga majbur etadi. Uni tafakkur olamiga yetaklaydi. Inson fikrlay boshlar ekan, demak, u o’zini qidiradi. Atrof-olamni, jamiyatni, ijtimoiy tuzum va jarayonni anglay boshlaydi. O’zini anglagan inson hech qachon yengilmaydi. Anglash yo’liga tushgan inson har qanday dahshatni yenga oladi. Bizningcha, yozuvchining asosiy maqsadi ham shu edi. U insonga ko’zgu tutadi. O’zining va hayotning mazmun mohiyatini anglash sari yo’naltiradi. Chexovning hammani o’ziga maftun etuvchi jozibali uslub va mahorati ham xuddi shunda.

Adabiyotning vazifasi insonni anglash va anglatishdan iborat ekan, mazkur hikoya insonni tanitish, uni hidoyatga boshlash yo’lida tashlangan ulkan qadam deb baholanishga loyiqligiga yana bir bor amin bo’lamiz.

Chexovning “ Cтpax ” hikoyasi o’z syujeti, voqealar rivoji bilan Mensfildning “ The little governess ” hikoyasidan tubdan farq qiladi. Ammo bu ikkala asarning bir-biriga mutanosib jihatlari ham bor. Bu ijodkorlar qo’ygan ma’no va g’oya mushtarakligida namoyon bo’ladi.

Chexovning “Cтpax” hikoyasida ham hayot dahshati, insonlar axloqidagi kemtiklik asar qahramoni Dmitriy Petrovich Silin obrazi vositasida ifodalangan. Bu asardagi q’orquv qahramonning qanchalik irodasizligini ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, vijdionsizlik va xiyonat qahramonning yaqin insonlari, ya’ni do’sti va xotini tomonidan unga nisbatan amalga oshiriladi. Ammo Silin o’zini asar davomida xuddi shu voqealarni kutgandek tutadi. Chunki u do’stiga hayotda yashashdan, odamlardan qanchalik qo’rqishini, xotini o’zini

sevmasligini, hayotning o'zi dahshat ekanligini ishonib aytib beradi. Do'sti esa Dmitriy Silinning ojizligidan foydalanadi va uning xotini bilan xiyonat qiladi. Hikoya yakunida Dmitriy Silin barchasini tushunib yetganligini u do'stiga aytgan oxirgi jumlaridan bilib olish mumkin: "Hech narsani tushunmaslik mening peshonamga bitilgani ehtimolga yaqin. Agar siz nimanidir tushunsangiz, unda... sizni tabriklayman. Mening ko'z oldim qop-qorong'u"⁴⁷.

Hikoya qahramonining fojiaiy tomoni shundaki, unda qahramonning qanchalik hayot qiyinchiliklari oldida ojizligi, so'qirligi, irodasizligi, yo'lida uchragan muammolarga qarshi kurashmasdan ko'z yumib ketaverishi, taslim bo'lishi tasvirlangan. Insonlarning esa qay darajada tubanlikka qodir ekanliklari o'z ifodasini topgan. Chexov bu hikoyani yozganda, albatta, o'z xalqining mentalitetidan kelib chiqqan. "Страх" va "The little Governess" hikoyalarining mutanosib tomoni shundaki, ikkalasida ham qahramonlarning ishonchi poymol etiladi. Ular, aslida, shundan qo'rqishar edi.

Abdulla Qahhor ham "Dahshat"da qo'rquv haqida yozadi. Ammo, u bu mavzuga butunlay boshqa tomondan yondashadi. "Qahhorshunos M. Sultonovning 60-yillarning o'rtalarida bildirgan fikricha, - "Yozuvchi "Dahshat"da o'tmish temasini ishlar ekan, asosan, bir maqsadni - o'tmishda insonning ezilishi, insonlik huquqlarining poymol etilishini ko'rsatishni; yozuvchi sinflarga nisbatan cheksiz nafrat va shu bilan erkin zamonamizni yanada qadrlash hissini uyg'otishni nazarda tutadi"⁴⁸.

U o'tmishda ayollar taqdiri qanchalik og'ir bo'lganligini hikoya qahramoni Unsin misolida ko'rsatib beradi. Unsin Olimbek dodxohning eng kenja, sakkizinchi xotini bo'lib, o'zining bunday taqdiridan qutulish uchun hamma narsaga tayyor edi va u dodxoh bilan shartlashadi: Unsin tunda qabristonga borib, choy qaynatib kelishi lozim edi. Shundagina dodxoh unga o'z uyiga ketishiga ruxsat berishga va'da beradi. Qabristonga tunda borish qanchalik qo'rqinchli,

⁴⁷ А.П. Чехов. Страх. Ст.: А.П.Чехов. Рассказы. Стр.357

⁴⁸ Dilmurod Quronov. Ilhom bilan yozilgan asar. Qarang: "Jahon adabiyoti" jurnali. 2007-№ 5. 27-bet.

ammo Unsin qaramlikda, tutqunlikda yashagandan ko'ra mana shu dahshatni afzal ko'rdi.

Taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning aytishicha, Abdulla Qahhor ushbu hikoyani yozishda xalq ichida yurgan bir rivoyatni asos qilib olgan ekan. Bu rivoyatga ko'ra, bir yigit qabristonga borib, qabrga pichoq sanchib kelishi kerak bo'ladi. Ammo u pichoqni etagi bilan qo'shib sanchadi va u qo'rquvdan jon taslim qiladi.

Yozuvchi bu rivoyat asosida juda ham ta'sirli hikoya yoza olgan. Hikoyaning ta'sirchanligi shundaki, unda bosh qahramon ozodlikka erishish uchun jon taslim qilishdan ham qo'rqmaydi. Ha, u jismonan nobud bo'ladi, ammo ruhan ozodlikka erishadi.

“Dahshat”ni Chexovning “Страх” hikoyasi bilan solishtirib shuni aytish mumkinki, Chexov hikoyada qahramonining qo'rquvga qarshi kurashmaganini, hayot mashaqqatlari oldida ojizligini, irodasizligini ifodalagan bo'lsa, Abdulla Qahhor Unsinning dovyurakligini, erk uchun o'zidagi qo'rquvni yengib, hatto, o'z jonini qurbon qilishga ham tayyorligini mahorat bilan tasvirlab bergan. Shu o'rinda filologiya fanlari nomzodi G. T. Garipovanning “Dahshat” va “Страх” haqidagi ayrim fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz: “Chexov ijtimoiy-ruhiy determinizmning quyidagi tartibini qo'llaydi: “araz – anglashilmovchilik – qo'rquv - erksizlik”. A. Qahhor, A. Chexovdanfarqliravishda, falsafiyvaijtimoiy-ruhiy determinizmning birmuncha boshqacha tizimini yaratadi: “erksizlik – tutqunlik qo'rquvi – o'lim qo'rquvi – o'lim”. Qahhorqahramoni, ujismonano'lsaham, ruhantantana qiladi, chunki u o'sha qo'rquvni yengib o'tadi. Uengasosiynarsaga, qaysikiChexov “Qo'rquv”idagi qahramon hech qachon erishmaydigan ozodlikka erishadi”⁴⁹.

Ushbu hikoyaning Chexov asariga mutanosib jihatlariga kelsak, unda ham voqea bir oila davrasida bo'lib o'tadi. Chexov hikoyasini bosh qahramon

⁴⁹Г.Т. Гарипова. Сравнительный анализ рассказов А. Чехова “Страх” и А. Каххара “Страх”. Ст.: Журнал “Преподавание языка и литературе”, . 2012, № 8, стр. 40.

qiyofasini chizish bilan boshlagan bo'lsa, Qahhor voqea sodir bo'ladigan sahnani, muhitni tasvirlash orqali o'quvchini syujetga tayyorlaydi. Hikoya ko'ngilga vahima soladigan shamol tasviri bilan boshlanadi. Ana shu dahshat uyg'otuvchi bo'ron asarning boshdan oxirigacha ishtirok etadi. U voqealar tizimini bog'lab turadi. Hikoya sarlavhasining ham muhim o'rni bor. Yozuvchi hayotning dahshatini ko'rsatmoqchi. Diqqat e'tibor ana shu dahshatni fosh etishga qaratilgan. Inson ko'ngliga vahima solayotgan qo'rquv nima o'zi. U qayerdan, nega paydo bo'lmoqda. Asarda shu savollarga javob izlanadi.

Hikoyada oddiy bir hayotiy voqea bayon etiladi. Ammo uning zamirida teran ijtimoiy muammo ko'tarilgan. Hamma fikrini oshkora ayta olish imkoniga ega bo'lmagan yozuvchi ularni turli ishoralar bilan ifodalashga harakat qiladi. Shu bois asarda juda ko'p ramziy ma'nodagi obrazlardan foydalaniladi. Mazkur asarda Chexovning "Strax" hikoyasining kuchli ta'sirini sezishimiz mumkin. Ikkala yozuvchining maqsadi ham bir oila taqdiri misolida jamiyatni fosh etishdan iborat. Ular insonni bema'ni hayotga mahkum etuvchi erksizlik dahshatini ko'rsatib berishga harakat qilishadi. Chexov voqeani bayon etar ekan, kichik bir detal sifatida arvohlar, qabrlar dunyosini tilga olib o'tadi. A.Qahhor esa o'z qahramonlarini bevosita qabriston va arvohlar olamiga, (yana kechqurun) olib kiradi. Uning ichida ularni harakatlantiradi. O'liklar va tiriklar dunyosining tafovutini ko'rsatib beradi. Qabriston o'liklarni beozor sukunat dunyosiga qabul qiladi. Tiriklarning qilmishlari va uning dahshatli oqibatlarini esa adib Unsin hayoti misolida tasvirlaydi. Va haqiqiy dahshat tiriklar dunyosida ekanligini fosh etadi.

Qahhor Chexovning "Yovuz niyatli kishi" hikoyasi haqida so'zlay turib, shunday baho beradi: "Bu hikoya Nikolay Rusiyasining qishloqlariga qarata Chexovning usta qo'li bilan ochilgan "Mujiklar", "Nay", "Chol", "Chuqurlikda" singari "darcha"larning biri. O'quvchi bu darchadan qishloqqa qarab "yovuz niyatli" Denis orqali undagi odamlarni, hayotni ko'rар ekan, beto'xtov shu fikrga keladi: odamlarning hayotini tahlika ostidan chiqarish uchun "yovuz niyatli",

“jinoyatkor” Denisni emas, odamlarni denis qilgan va qilayotgan ijtimoiy tuzumni sud qilish kerak va bu tuzumni albatta o’limga hukm qilish zarur!”⁵⁰

Qahhor ham hikoyasiga “Darcha” obrazini olib kiradi. U chuqur ramziy ma’noga ega. Adibning yuqoridagi mulohazalaridan uning qanday mohiyatga ega ekanligini, asarda qanday vazifa bajarganini anglash qiyin emas. Ma’lum ma’noda ijodkorning Chexov haqidagi fikrlari o’z asaridagi badiiy ashyoni sharhlashga ham xizmat qiladi. Hikoyada darcha to’rt marta tilga olinadi: 1. “Dodxoh chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu yasov tortib turgan xotinlariga e’tibor qilmay, to’rga o’tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko’zi bilan tashqariga qaradi”. 2. “Dodxoh darchani zichlab yopib, joyiga o’tirib tasbeh o’girishga kirishdi”⁵¹. 3. “Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalaganicha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o’tirgan yerida go’yo bir qarich cho’kkanday bo’ldi va tin olmay bir-biriga qaradi”. 4. “Dodxoh xotinlariga, ulardan ham ko’ra o’ziga taskin berish uchun o’rnidan turib darchaning bir tomonini ochdi. Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi. Dodxoh pastga qaradi va suyunib ketganday:

- Bo’yra, bo’yra ekan! – dedi va darchani yana zich yopib joyiga o’tirdi”⁵².

Birinchi marta Dodxoh darchadan tashqariga bir ko’zi bilan qaraydi. Ikkinchi marta uni zichlab yopib qo’yadi. Uchinchi va to’rtinchi parchada o’quvchi diqqati darcha obraziga yanada keskinroq qaratiladi. Darcha tashqarisidagi hayot unga qattiq urilib, hammani qo’rquvga soladi. To’rtinchi parchada Dodxoh yuragini titratgan narsa bo’yra ekanligini ta’kidlab, darchani yana zichlab yopib qo’yadi. Dodxohning darcha bilan bog’liq harakatlarida chuqur mazmun bor. Uni yozuvchi shunchaki, tabiat tasviri sifatidagina asarga kiritmagan. Asardan ko’zda tutgan butun maqsadini o’zida mujassamlashtirgan obraz sifatida o’quvchiga havola etgan. Dastlab dodxohning darchani qiya

⁵⁰A. Qahhor. Chexovni o’rganaylik. Asarlar, 5-jild, 22-bet.

⁵¹AbdullaQahhor. Muhabbat. Toshkent, Yangiasravlodi, 2014, 6-7-bet.

⁵²O’sha asar, 7-bet.

ochib, tashqariga bir ko'z bilan qarashi uning atrofdagi hodisalarga bee'tibor, mensimay, nazar pisand qilmay qarayotganligini, uni zichlab yopib qo'yishi ayollarining erksizligi, insoniy huquqlardan mahrum, tutqunlikda ekanligiga ishora etadi. Uchinchi parchada darchaga kelib urilgan nimadir o'tirganlarning barchasining ko'nglida dahshat tuyg'usini uyg'otadi. Sodir bo'lishi kutilayotgan noxush hodisa borasida xabar, sezim tuyg'usi paydo bo'ladi. Hammani vahimaga tushiradi. To'rtinchi parchada bu obrazning vazifasi hal etib beriladi. Dodxoh qo'rquv uyg'otgan narsa bo'yra ekanligini ta'kidlab, darchani yana zichlab yopib qo'yadi va hech narsa bo'lmagandek xotirjam o'tiradi. Mana shu jarayon (tasvir) yozuvchi maqsadini keng qamrovda izohlash kuchiga ega. Avvalo, u jamiyatdagi ijtimoiy to'fon nihoyatda taranglashganiga ishora qiladi. Ikkinchidan, darchaga boshqa narsa emas, aynan, bo'yraning urilishi orqali ham ijodkor bo'lajak noxushlikni eslatadi. Ma'lumki, bo'yra o'lim marosimlarida ham qo'llanadigan predmet. Uning jarayon tasvirida ishtirok etishi, darchani taqillatishi kimningdir hayot chirog'ining so'nishidan dalolatdir: "Bo'yra, odatda, tobutga solinadigan bo'lganidan dodxohning ko'z oldiga odamlarning yelkasida lapanglab ketayotgan tobutni keltirdi"⁵³. Ammo bu holat vaziyatni o'zgartiradimi? Yo'q, hech narsa o'zgarmaydi. Hech narsa bo'lmagandek, Dodxoh xuddi oldingidek, darchani zichlab yopib qo'yaveradi. Demak, atrofdagi mudhish hodisalar ham jarayonga musaffo ob-havo olib kira olmaydi. Darchaning zichlab yopilishidan anglash mumkinki, azaliy erksizlik, huquqsizlik kishanlari parchalanmay qolaveradi. Ammo shunga qaramay, Dodxoh xonadonidagi qonuniy tartiblarga darz ketadi. Unsin o'z isyoni bilan qullik zanjiri-la tamg'alangan tartiblarni parchalaydi. So'nggi parcha tasvirida yana bir holat e'tiborni tortadi: "Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi". Demak, shamol xonadondagi kichkinagina nurni lipillatib, harakatga keltirmoqda. Harakat bor joyda hayot bor, u davom etadi. Unsin olamdan o'tdi. Ammo chiroq piligini harakatlantirib, nurlantirib ketdi. Atrofdagilarda erk, hurlik, ozodlik borasida tasavvur uyg'otdi. Unga intilish

⁵³ Abdulla Qahhor. Muhabbat. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2014, 8-bet

lozimligidan saboq berdi. Unsin mag'lub bo'lmadi. U hur, ozod, g'olib tarzda dunyodan o'tdi. Dodxohning yana bir xotini Nodirmohbegim ham unga ergashdi. Dodxoh xonadonini tark etdi.

Abdulla Qahhor hikoyalari kamdan-kam hollarda tabiat tasviri bilan boshlanadi. Ko'pincha, ularda keskin biror hodisa bayoni orqali syujet ichiga kiriladi. Ammo "Dahshat"da ijodkor ma'lum ma'noda o'zining hikoyanavislik uslubidan biroz chekinadi. Asar ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli tasviri bilan boshlanadi. Hikoyada tabiat tasviri juda muhim vazifani bajargan. Hatto asardagi obrazlar ham yozuvchi maqsadini ifodalashda bu qadar muhim maqomda turmagandek.

Hikoyadagi shamol obrazi ham chuqur ma'noga ega. U syujetning boshidan oxirigacha ishtirok etadi. Turli bosqichlarda turli maqsadlarda qo'llaniladi va turli ma'nolarga ega. Adib asarida shamol to'laqonli obraz darajasiga ko'tariladi. U xuddi insondek nafas oladi, yashaydi, jarayonlarga munosabat bildiradi, uf tortadi, xo'rsinadi, to'lg'onadi: "Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi"⁵⁴. Bilamizki, shamol hamma narsani ag'dar-to'ntar qilib, to'ntarish xususiyatiga ega. Asar shunday kuchga ega to'lqinning kezinib, qafaslarni parchinlab, o'ziga yo'l izlash jarayonini tasvirlash bilan boshlanadi. Uning yaydoq-yalang'och daraxt shoxlaridan hayot nishonasini topolmay, yanada balandroqqa – tomlarga o'rlashi, undan-da hafsalasi pir bo'lib, yopiq eshik va darchalarga bosh urib, yo'l topa olmay uf tortishida chuqur ma'no bor. U o'z erkini izlab, to'siqlarni yengish, yopiq eshiklarni ochish maqsadida kezinadi.

Hikoyadagi ikkinchi tasvirda shamol yanada vahimaliroq, shiddatliroq, "o'lim changaliga tushgan mushukdek" jon holatda o'zini to'rt tarafga uradi. Shu o'rinda Qahhor mahoratini yana bir bor namoyish eta oladi. Shamolni och bo'riga, o'lim changaliga tushgan mushukka qiyoslab tasvirlaydiki, vaziyatni bundan-da tiniqroq ifodalashning iloji yo'q: "Shamol goh och bo'riday uvillar,

⁵⁴Abdulla Qahhor. Muhabbat. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2014, 6-6et.

goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, atrofda hech narsa ko'rinmas edi"⁵⁵.

Shamolning navbatdagi tasvirida, ma'lum ma'noda, Unsin shamol bilan kurashib, o'z maqsadi sari intiladi. Parchinlab tashlagudek qudratga ega to'lqin uni tentiratar, surib tashlar edi. Ammo paranji chimmatini olib, zohiran bo'lsa-da hurlikka chiqqach, olg'a intilishi yengilroq bo'ladi: "Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi. Unsin paranji-chimmatini yumaloqlab qo'lga olganidan keyin yo'l yurish osonroq bo'ldi"⁵⁶. Unsinning yo'lga to'siq bo'lgan shamol asarda jamiyatning, chirkin muhitning ramzi sifatida qo'llaniladi. U yerparchin qilib yuborish qudratiga ega. Ammo bosh qahramonning o'z erki uchun dadil, jasorat bilan intilishi unga madad beradi. Hammaning ko'ngliga dahshat soluvchi qo'rquv uni yo'ldan qaytara olmaydi. U dastlabki to'siq chimmat va paranjini olib, yana-da yengilroq, dadilroq olg'a intiladi.

Asar boshida keltirilgan shamolning birinchi tasviri hikoya oxirida yana aynan takrorlanadi: "Shom qorong'usida uning jasadini qizil ko'rpaga o'rab aravaga solishdi. Shamol hamon guvillar, yaydoq daraxtlarning shoxida chiyillar, g'uvillar edi"⁵⁷. Unsin olamdan o'tdi. Ammo shamolning g'uvillashi davom etmoqda. U mudroqlikdan uyg'onish lozimligini ta'kidlayotgandek edi. Xalqda yalang'och daraxtga bexosiyatlik ramzi sifatida qaraladi. Bu badiiy ashyoning qo'llanilishi ham jamiyatdagi erksizliklarga qarshi isyon, unsinlar taqdiridan ogohlantirish, ularga e'tiborni jalb etish ma'nosiga ega.

Hikoyada go'riston butun vahimasi bilan, qorong'uligiyo zimistonligi bilan, uvillashu g'uvillashlari bilan tasvirlanadi. Yozuvchi so'zlarni shunday yuksak adabiy did, mahorat bilan tanlab qo'llaydiki, o'quvchi go'riston vahimasini butun borlig'i bilan his etadi. Ammo o'liklar go'ristoni dahshati tasvirlanar ekan adib shunday jumlani kashf etadiki, har qanday insonning

⁵⁵O'sha asar, 6-bet.

⁵⁶Abdulla Qahhor. Muhabbat. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2014, 6-6et. 11-bet.

⁵⁷O'sha asar, 15-bet.

yuragi orqaga tortib ketadigan qo'rquvni uni qo'llash bilan yumshatishga muyassar bo'ladi: "O'likning joni yo'q!" Bu so'z Unsinga madad beradi. O'z maqsadi, erki yo'lida olg'a intilishiga ko'makdosh bo'ladi. U niyatiga erishib, qumg'onni qaynatadi ham. Ammo shu lahzada muhit, u yashayotgan jamiyat orzusidagi hurlik qanotini qayiradi. Dodxoh tomonidan ataylab jo'natilgan maymun tazyiqi uni halok etadi. Hikoyaning shunday yakunlanishi ham Qahhorning yuksak mahoratidan nishona. Chunki adib nuqtai nazaricha, Unsin yashagan muhitdan bunchalik oson qutulishi mumkin emas edi. Dodxohlarni mag'lub etish bilan ozodlikka erishib bo'lmaydi. Buning iloji yo'q. U va uningdek mahkumlarning haqiqiy hurlikka erishishining birgina yo'li bor. U ham bo'lsa, yozuvchi ta'kidlaganidek, o'zlari yashayotgan "ijtimoiy tuzumni sud qilish va bu tuzumni, albatta, o'limga hukm qilish"dir!

Qahhor go'riston so'zini ikki – o'z va ko'chma ma'noda qo'llaydi: "Go'riston to'g'risida dodxo nimalar eshitgan bo'lsa, Unsin ham shuni eshitgan. Shamol kechasi go'riston dodxo xayolida qandoq dahshatli bo'lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shundoq bo'lsa ham, **tiriklar go'ristoni bo'lgan bu dargohning** dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo'nash, ota-onasini, dugonalarini ko'rish umidi uning boshiga boshqa hech qanday fikr-xayolni yo'latmas edi"⁵⁸. Yozuvchi voqealar rivojida xuddi ana shu ikkala dahshatni ham maromiga yetkazib yoritib bera oladi.

Ko'rinadiki, hikoyada "tiriklar va o'liklar go'ristoni" bir-biri bilan muqoyasalanadi. Xuddi shu nuqtada Chexov "Strax"idagi g'oya Qahhor qalbidagi tubanlikka, adolatsizlikka, erksizlikka nisbatan nafrat tuyg'usining yuzaga chiqishiga turtki bo'lganligini sezish qiyin emas. Chunki unda ham Silin tilidan o'liklar va tiriklar dunyosi qiyoslanib, tiriklar dunyosining o'liklar dunyosiga nisbatan dahshatliroq ekanligi ta'kidlanadi. Ammo Chexovda qabriston va o'liklar dunyosi tasviriga keng o'rin ajratilmaydi. Uni qisqa jumalarda eslab o'tadi, xolos. Qahhor esa go'riston tasviriga alohida urg'u

⁵⁸Abdulla Qahhor. Muhabbat. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2014, 11-bet

beradi. Uni batafsil ifodalaydi. Hatto voqeaning asosiy qismini u yerga ko'chiradi. Ana shunday keng tafsilot o'quvchining "tiriklar go'ristoni" haqida oson va aniq tasavvur hosil qilishiga zamin yaratadi. Hikoyani o'qir ekanmiz, Abdulla Qahhor nega go'riston so'zining ma'nodoshi bo'lgan qabriston so'zini biror o'rinda ham qo'llamaganligi e'tiborimizni tortadi. Qabriston badiiylashgan, ma'lum ma'noda, eyfemizm (so'zlar ma'nosining yumshatilgan, silliqalashtirilgan shakli) ko'rinishidagi variant. A.Qahhorga esa, aksincha, o'quvchiga so'z ma'nosidagi butun dag'allikni, shafqatsizlikni, mudhishlikni va dahshatni yetkazib bera oladigan shakl kerak edi. Shu sababli ham u mazkur so'zning "go'riston" variantidan foydalanadi. Bu so'zning har bir talaffuzi kishini seskantiradi. Ko'nglida qo'rquv tuyg'usini uyg'otadi.

A.Qahhor nazariy qarashlari ifodalangan "Chexovdan o'rganaylik" maqolasini yaratish bilan birga, u Chexovdan qanday o'rganish kerakligini o'z hikoyalarida amalda ham isbotlab bergan. Bu "Dahshat"da ham yaqqol namoyon bo'ladi. Hikoyada keltirilgan har bir ashyoning, harakatning, holatning chuqur ma'nosi bor. Jumladan, Unsin qumg'onni qaynatib, ketayotganida yer o'priladi va chap oyog'i botib, kovushi o'sha yerda qolib ketadi. Bu ashyo bejiz qo'llanmagan. Xalq og'zaki ijodida oyoq kiyimi turmushdagi juft ma'nosini anglatadi. Demak, go'yoki Unsin juftidan o'zi xohlaganidek xalos bo'ldi. Ikki qadam yurib paranji-chimmati go'ristonda qolib ketganini eslaydi va qaytib borib uni olmaydi. Buni ham Unsinning ozodlikka qadam qo'ygani ramzi sifatida talqin etishimiz mumkin. Bunday misollar hikoyada istagancha topiladi. Demak, keltirilgan ayrim misollar Chexov uslubidagi har bir badiiy ashyoning o'z vazifasiga ega ekanligi Qahhor hikoyachiligida qayta jonlanganligidan guvohlik beradi. Uning asarlarida ham hech bir detal shunchaki manzara uchun qo'llanilmaydi. Ularning zamiriga chuqur ijtimoiy, falsafiy mohiyat singdiriladi.

A.Qahhor Chexovning "Yovuz niyatli kishi" hikoyasi haqida gapirib, shunday ta'riflaydi: "Ikki yo'l she'r singari "Yovuz niyatli kishi"ni ham ming xil qilib yozish mumkin, lekin Denisni bundan ravshan, bundan mukammal tarzda gavdalantirish, bundan o'tadigan biron uslub topib kitobxonga manzur qilish

mumkin emas. Bu Chexov ijodiyotiga xos xususiyat. Chexov yaratgan va rus adabiyoti taraqqiyoti tarixida yangi sahifa ochgan yo'l⁵⁹. Qahhorning bu fikrlarini o'zining ijodiga nisbatan ham aytish mumkin. Haqiqatan ham, adib Chexovning badiiy uslubini chuqur o'rgangan. Undan teran fikrlashni, har bir detalga katta badiiy yuk yuklashni, tabiat tasvirlarini ham faqat voqea sodir bo'layotgan manzarani chizish uchungina emas, balki asar syujetidagi g'oya va fikrni ifodalash usuli sifatida xizmat qildirishda foydalanishni o'zlashtirdi. Adib Chexovning mahorat maktabidan chuqur ta'lim oldi. Ammo uni takrorlamadi. Balki unga o'z iste'dodini yuzaga chiqarish yo'li sifatida ijodiy yondashdi. Bu holatni biz dissertatsiya ishimizning tahlil manbasi bo'lgan "Dahshat" va "Strax" muqoyasasida ham ko'rdik. Haqiqatan ham, ikkala asarda ham ijtimoiy tuzumning inson hayotini barbod etuvchi dahshatini fosh etish yozuvchilarning asosiy maqsadi. Shu sababli ham, ba'zi o'rinlarda bir-biriga yaqin ifoda uslublarini sezamiz. Ba'zida bir-biriga mutanosib badiiy detallarga duch kelamiz. Ammo, xulosa sifatida bu ikki hikoya ikki buyuk ijodkorning noyob iste'dodi mahsuli ekanligini, o'ziga xos turli uslublarning yangi, nodir namunasi sifatida dunyoga kelganligini ta'kidlash lozim. Yozuvchi nuqtai nazaricha, qo'yilgan masalani, bir xil g'oyani ming xil qilib tasvirlash mumkin. Ammo aynan, Chexov va Qahhor kabi aniq va tiniq, obrazlar xarakterini mukammal, tabiat tasvirlarini jonli va ko'pma'noli uslubda o'quvchiga etkazish qiyin. Shunday ekan, ularning ijodiy laboratoriyasida siru sinoat ko'p. Bularni o'rganish jahon adabiyoti taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday teranlikni anglash, kashf etish uchun esa adiblarning hikoyalari ustida jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish taqozo etiladi.

Har bir yozuvchi hikoyasini turli maqsadda yozishi mumkin. Masalan, ayrim yozuvchilar o'z o'quvchilariga asaridagi qahramonlar xatti-harakatlaridan ibrat olish, hayotda unga o'xshab yo'l tuta bilish lozimligini uqtirish uchun yozsa, ayrimlari esa, aksincha, o'z qahramonining xatolaridan xulosa chiqara olishga, uning kamchiliklarini takrorlamaslikka da'vat sifatida yaratadi.

⁵⁹A. Qahhor. Asarlar. T.: 1989, 5-jild, 22-bet.

Ketrin Mensfild va A. Chexov yuqorida keltirib o'tilgan hikoyalarini o'quvchilar o'qib, asar qahramonlarining xatolaridan xulosa chiqarish va ularni o'z hayotida takrorlamasliklarini ko'zlagan holda yozishgan. Abdulla Qahhor esa "Dahshat"ni qahramonining fidoyiligini ko'rsatish uchun, undan ibrat olishimiz kerakligini uqtirish uchun yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, uchala yozuvchi ham o'z hikoyalarini mahorat bilan va ta'sirli yoza olganlar. Shu boisdan ham, ushbu hikoyalar bugungi kunda ham adabiyot ixlosmandlari tomonidan sevib o'qiladi.

3.2 A. P. CHEXOVNING “ СПАТЬ ХОЧЕТСЯ ” HAMDA K. MENSFILDNING “ THE CHILD WHO WAS TIRED ” HIKOYALARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Mensfildning ilk mashhur hikoyalaridan biri “ The child who was tired ”(Девочка, которая устала) ham Chexovning “ Спать хочется ” hikoyasidan ruhlangan holda yozilgandir. Chexov ushbu hikoyasini 1888 –yilda yozgan va bu uning “ Хмурые люди ” nomli to'plamiga kiritilgan. Uning hikoyasi o'zi hayotligidayoq serboxorvat, rumin, nemis, fins va bolgar tillariga tarjima qilingan. Chexovning ushbu hikoyasi haqida Lev Tolstoy “ Правдивдоиллюзии ”⁶⁰ degan fikrni bildiradi va uning hikoyalarining ichidan bu hikoyasini birinchi o'rinda deb hisoblaydi. Bundan tashqari Tolstoy Chexov ijodini juda yuqori baholaydi, uni hatto “Nasrdagi Pushkin” deb ataydi. Bular haqida A.B. Goldenveyzer o'z asarlarida yozib o'tgan: “ Толстой высоко оценил этот рассказ, в письме к Чехову от 25 мая 1903 г. И. Л. Толстой сообщает, что Лев Николаевич среди чеховских рассказов “ 1 сорта ” (по его собственному определению) назвал “ Спать хочется” . И в целом творчество Чехова для Толстого было эталоном подлинного писательского мастерства. По свидетельству мемуаристов, он говорил: “ У него все правдиво до иллюзии, его вещи производят впечатление какого-то стереоскопа. ” “ Чехов – это Пушкин в прозе .”

⁶⁰Ю.А. Бельчиков. Авторское повествование в рассказе А.П. Чехова “Спать хочется” . 2008.<http://portalus.ru>

Толстой называет Чехова “ несравненным художником ”, “ художником жизни ”.⁶¹

Mensfild esa bundan 22 yil o'tgach 1910-yilda shu mazmundagi o'z hikoyasini yozadi. Bu ikki hikoyaning mazmuni, ya'ni syujeti bir xil bo'lganligi sababli ham tanqidchilar bugungi kungacha bu haqida bahs olib borishadi. Bu ikki hikoyani ayrim farqli jihatlarini hisobga olmaganda, ikki xil tildagi bir xil hikoya deb o'ylash ham mumkin. Mensfild ijodinio'rgangan bir qancha yozuvchilar, uning hamda Chexov ijodining o'xshashligi xususida izlanishlar olib borganlar va Mensfild ijodining alohidaligini, uning o'ziga xos jihatlarini borligini isbotlab berishga harakat qilganlar. Bunday yozuvchilardan Kingstons universitetining ingliz adabiyoti bo'yicha professori Entoni Alpersni ta'kidlashimiz mumkin. U o'zining “ Ketrin Mensfild. Biografiya ” kitobida shunday fikr bildirgan:

“ На первый взгляд между воззрениями обоих писателей на жизнь обнаруживается близкое сходство, а отсюда и сходство художественной формы, которую они создали для выражения своих взглядов. На самом деле, сходство это мнимое. Их творчество отличалось в самом существенном - в подходе к действительности ”.⁶²

Bu fikri bilan Alpers , bu ikki yozuvchining hayotga qarashida yaqin o'xshashlik borligini va bu o'xshashlik ular o'z qarashlarini namoyon etganlarida yuzaga chiqqanligini bildirmoqchi bo'lgan. Shu bilan birga ularning ijodi haqiqatga to'g'ri kelishi bilan ajralib turishini ham ta'kidlagan. Keyinchalik, Alpers o'zining “ Ketrin Mensfild hayoti ” asarida Y. Shneyder tomonidan yozilgan “ K. Mensfild va Chexov (1935) ” nomli maqolada Mensfildning “ The child who was tired ” hikoyasi Chexovning “ Спать хочется ” hikoyasidan ko'chirib (plagiat) yozilgan degan fikrni qat'iyan inkor qiladi. Hattoki, Mensfildning ijodiy uslubi yaratilishidagi Chexov ta'sirini ham tan olishdan bosh tortadi. Uning fikriga ko'ra, Mensfild o'z ijod yo'lini Chexovning qissalari hamda hikoyalari bilan tanishib chiqqunicha topib olgan.

⁶¹ См. Гольденвейзер А.Б. Вблизи Толстого. – М. 1959. – С. 68.

⁶² Страницы о Чехове в английских исследованиях по истории и теории литературы. Обзор Стевена Ле Флеминга (Англия). Перевод Светланы Ле Флеминг под редакцией М.А. Шерешевской. С. 55.

Alpersning fikrini ham bir tomondan to'g'ri deb hisoblash mumkin, chunki K. Mensfild ham o'z zamonasining iste'dodli yozuvchilaridan bo'lgan. Uni bugun ham Angliya va Yangi Zelandiya yozuvchisi sifatida tan olishadi. Uning “ The child who was tired ” hikoyasi ijodining dastlabki yillarida yozilgan, qolaversa, u o'ziga ustoz deb hisoblagan Chexov ijodiga qiziqqan va uning asarlaridan ilhom olgan. Mensfild Chexov asarlaridan va uning ijodiy uslubidan ko'p narsa o'rgangan. Shu bois ham, uning ayrim asarlari Chexovnikiga o'xshatib yozilgan. Shuning uchun ham uni ko'chirmakashlikda ayblash juda ham qo'pol tuyulishi mumkin. Ammo, fikrimizcha, Chexov asarlarining Mensfild ijodiga ta'sirini aslo inkor etib bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, Mensfild ko'p asarlarini insonning ichki his-tuyg'u, kechinmalarini ifodalab beruvchi psixologik yo'nalishda yozgan. Mensfildning hayot va ijodini o'rganayotib, uning hayoti o'ziga xos qiyinchilik va yetishmovchiliklar ta'siri ostida kechganini ko'rishimiz mumkin. Z. Freydning uning hayotini o'rganishi bo'yicha, u hattoki, bir burda non topish uchun ham ter to'kib ishlashiga to'g'ri kelgan. Hayotida yo'l qo'ygan xato va kamchiliklar haqida qayg'urgan. “ The child who was tired ” hikoyasini ham shunday tushkunlikka tushib qolgan kunlarida yozgan.

Endi yuqorida aytib o'tilgan ikki hikoyaning, ya'ni Chexovning “ Спатьхочется” hamda Mensfildning “ The child who was tired ” hikoyalarining o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z yuritsak. Bu ikki hikoya ham 18 – asr o'rtalarida yuzaga kelgan adabiy oqimlardan biri bo'lmish sentimentalizm yo'nalishida yozilgan. Shu o'rinda sentimentalizm oqimiga ta'rif berib o'tsak.

“ Sentimentalizm (fr. Sentiment- hissyot, his qilish) oqimi 18-asr o'rtalari (Angliya) da feodalizm sarqitlariga qarshi kurashni, oddiy kishilarning oliyjanobligini, qalbini tasvir markaziga olgan.

Sentimentalistlar aql-idrokdan his-tuyg'uni ustun deb bildilar. O'rta va quyi sinf vakillari hayotini, ma'naviy jihatdan yetukligini, pokligini, boyligini, odamiyligini chuqur tasvir etdilar va ana shu jarayonda yuqori tabaqa vakillari dunyosining tubanligini, jirkanchligini fosh etdilar.

Sentimentalizm oqimi oddiy qahramonlar qismatini har qanday kitobxonni achintiradigan tarzda tasvirlaydi. Xo'rlangan, haqoratlangan qahramonlar bilan tanishgan o'quvchi qalbida " u ham inson-ku, dunyoga u ham baxt uchun kelgan-ku! Nahot insonlar ularning qadru qimmatiga yetmasa? Insoniyat qachon birodarlikka, komillikka erishadi? " degan tuyg'ular uyg'onadi va qalbni iztirobga soladi. Qahramonlar hayoti va qalbining chuqur va ta'sirchan ochilishi - achinish tuyg'usini - insoniylikning zarur belgisini voqe qiladi. F. Dostoyevskiyning " Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar " , A. Chexovning " Uyqu istagi " ham xuddi shu yo'nalishda yozilgan bebaho asarlardir. ⁶³

Yuqorida keltirilgan ta'rifga ko'ra " Спатьхочется " ham " The child who was tired " ham shu yo'nalishda yozilgan asarga yorqin misol bo'la oladi. Chunki, ikki hikoyada ham qizaloqning xo'jayinlari tomonidan qanchalik qiynoqqa solishlari, uni hali bola ekanligiga qaramasdan kecha-yu kunduz tinimsiz ishlatishlari orqali yuqori tabaqa vakillari dunyosining qanchalik tuban ekanligini fosh etib berilgan. Bundan tashqari qizchaning bu qiynoqlar natijasida qanchalik azob chekishi, ozgina uxlab olish ilinjida duch kelgan joyga yotib bo'lsa ham, uxlab olishga tayyor ekanligi orqali o'quvchida unga nisbatan achinish hissini uyg'otadi. Axir, qizning o'zi hali go'dak bo'lsa, undan chaqaloqqa kechasi bilan uxlamasdan qarab chiqishni qanday talab qilish mumkin?! Shu sababli ham, bechora qiz qilayotgan xatti-harakatini anglamagan holda, ozgina bo'lsa ham uxlab olish ilinjida, o'zining uxlashiga xalaqit berayotgan go'dakni jim qilish maqsadida uni yostiq bilan bo'g'ib o'ldiradi va o'zi yotib shirin uyquga ketadi. Chaqaloqni o'ldirish judayam daxshatli hodisa, endi qizning kelajagi nima bo'ladi, hayotining davomida uni yana qanday sinovlar, uqubatlar kutmoqda, bu yoshgina qiz hayotning navbatdagi sinovlariga bardosh bera olarmikin? Asarni o'qib chiqqan o'quvchida, albatta shu kabi savollar tug'iladi va bu savollarning javobini o'ylab har qanday odam daxshatga tushadi. Qizchaning qismatiga qattiq achinish hissi uyg'onadi. Yozuvchilarning asarni bunday fojeaviy yakunlashlarining sababi ham

⁶³ AlisherNavoiynomidagiSamarqandDavlatUniversiteti. Adabiyotshunoslik Nazariyasi Fanidan Ma'ruzalar matni.271-bet. Samarqand. 2012.

shunda, toki o'quvchi, real hayotning qanchalik ayovsiz ekanligini, qismatning qanchalik achchiq ekanligini, hamda yuqori tabaqa vakillarining qanday jirkanch qilmishlari borligini anglab yetsin.

Albatta, har bir hikoyaning o'ziga yarasha farqli jihatlari ham bor. Har bir yozuvchi o'z hikoyasini turar joyi, mamlakati tili, xarakteridan kelib chiqqan holda yozgan. Masalan, Chexov rus millatiga xos bo'lgan ismni qisqartirilgan holatda " Varka " qizchaga nisbatan qo'llaydi. Bundan tashqari, ruslarda choy qaynatiladigan idish bo'lgan " Samovar " so'zini ham bunga misol qilishimiz mumkin.

Mensfild esa bu hikoyani yozgan paytlarida Germaniyada istiqomat qilganligi sababli (1909-1910) nemischa iboralarni qo'llaydi va bu hikoya voqealari Germaniyada sodir bo'layotganini anglatadi. Jumladan, nemislarda ona yoki xonim deb murojaat qilishda qo'llaniladigan " The Frau " iborasi bo'lgan va u bu iborani qizning xo'jayinlariga nisbatan qo'llaydi. Hikoyadagi bosh qahramonni esa Chexov kabi nom qo'ymasdan " child who was tired " (toliqqan bola) deb ataydi. Qizni bunday nomlashi bilan ham Mensfild asarning mohiyatini ochib bermoqchi bo'lgan, aynan qizning toliqqanligiga urg'u bergan va bu ibora bilan uning holati qanchalik achinarli ekanligini o'quvchiga yetkazib bermoqchi bo'lgan. Ikkala hikoyada ham voqea uy ichida sodir bo'ladi. Faqat, Mensfild hikoyasida mamlakat Rossiyadan Germaniyaga o'zgartiriladi. Bunga uning hikoya yozilayotgan paytda Germaniyada istiqomat qilayotgani sabab bo'lgan. Uning bu hikoyasi " In a German Pension " nomli hikoyalar to'plamida nashr etiladi.

Hikoyalarning boshlanishi ham bir-biridan farq qiladi. Chexov hikoyasini Varkaning kichkina 13 yashar qizaloqligini, chaqaloqqa enagalik qilishini va uning charchoq holatiga qarshi kurashini tasvirlash bilan boshlaydi. Mensfildning hikoyasi esa qiz uxlab qolganida ko'radigan tushi bilan boshlanadi. Hikoyaning yana bir farqli jihati ham shunda, ya'ni ikki hikoya qahramonining tushidadir. Mensfild hikoyasidagi qiz tushida hech qayerga olib bormaydigan, ikki tomoni baland qora daraxtlar bilan o'ralgan kichkina oq yo'lakdan yurib borayotganini ko'radi. Chexov hikoyasidagi Varka esa tushida unga judayam qattiq ta'sir qilgan,

qalbida jarohat bo'lib saqlanib qolgan qayg'uli voqeani, ya'ni dadasi Yefim Stepanovning o'limini ko'radi.

Hikoyada kun davomida sodir bo'ladigan voqealar ham deyarli bir xillikda kechadi. Ikki hikoyadagi qahramon ham xo'jayinlarining xizmatini qiladi, ular buyurgan ishlarni bajaradi: choy qaynatadi, kir yuvadi, oshxonadagi ishlarni bajaradi, xo'jayin oyoq kiyimini tozalaydi va albatta, bolaga enagalik qiladi. Ikki hikoyada ham kechqurun xo'jayinnikiga mehmonlar keladi va Varka, Mensfild hikoyasida esa “ child who was tired ” ularning xizmatini qiladi.

Hikoyaning oxiri ham deyarli bir xil yakunlanadi, ya'ni har ikki hikoya qizning go'dakni yostiq bilan bo'g'ib o'ldirishi va uyquga ketishi bilan tugaydi. Faqat, Mensfild hikoyasining oxirida yana o'sha, qiz hikoya boshlanishida ko'rgan tushini yana ko'rishi bilan yakunlanadi. Mensfild hikoyasidagi qizning tushiga kelsak, bunda ramziy ma'no bor. Bunda oppoq yo'l bamisoli qizning bolalarcha beg'ubor qalbidir, yo'l chekkasidagi qora daraxtlar unga soya solib turgan, qismatini ayanchli tus olishiga sabab bo'ladigan shafqatsiz odamlardir. Yo'lning hech qayerga olib bormasligi esa u o'zi tushunmay sodir etgan jinoyatning naqadar dahshatliligi, bunday chigal vaziyatga chora yo'qligini ifodalashga xizmat qiladi.

Chexovning hikoyasidagi Varka hikoya davomida ko'rgan tushida esa dadasining o'limi aks etgan. Bu holat esa Varkaga juda qattiq ta'sir qilgan va iztirobga solgan. U o'zi uchun tayanch bo'ladigan otasidan ayrilgan va bu voqeadan hali ham iztirobda. Uning bunday tushkun kayfiyatiga qaramay yelkasiga qanchadan-qancha og'ir yumushlar yuklangan. Uning bu holatini ko'rib turib ham xo'jayinlarida achinish hissidan asar ham ko'rinmaydi. Bularning barchasi qizni o'zi bilmagan holda jinoyat sodir etishga undaydi. Ikkala asardagi voqealardan kelib chiqqan holda, shuni aytishimiz mumkinki, bolaning o'limiga faqat uning o'z ota-onasi aybdor, ya'ni qizning xo'jayinlari. Chunki, ular yosh go'dakni qattiq, tutqunlar kabi ishlashga majbur qiladilar, unga juda qo'pol munosabatda bo'ladilar, hatto uradilar ham. Shuning o'zi ularning insoniylik qiyofasini yo'qotganliklarini ko'rsatadi. Mensfild va Chexovning maqsadi ham shu edi, ya'ni jamiyatdagi mana shunday qabih kimsalarning qilmishlarini fosh etish.

III BOB XULOSALARI

Dissertatsiyamizning so'nggi bobida A.P. Chexov, K. Mensfild va A. Qahhor ijodidagi o'xshash hikoyalarni qiyosiy tahlil qildik. Ilmiy tadqiqotimiz jarayonida ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqladik. Shu jumladan, “Страх”, “Dahshat ” va “ The little governess ” (Yunnaya Guvernantka) hamda “Спатьхочется” va “ The child who was tired ” (Девочка, которая устала) hikoyalarini keltirishimiz mumkin.

III bobda keltirilgan masala yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

1. Mensfild ham, Qahhor ham Chexov ijodini tubdan o'rganib, uni o'zlariga ustoz deb bilganlari uchun ham ushbu uchala yozuvchining yozish uslublarida mutanosiblik bor. Buni ularning hikoyaga mavzu tanlaganlarida va hikoyaning mazmunida ko'rishimiz mumkin.
2. “ Страх”, “ Dahshat ”, “ The little governess ” (Yunnaya guvernantka) hikoyalari uchun uchala yozuvchi ham bir xil mavzu, ya'ni qo'rquv va ishonchsizlik mavzusini tanlaganlar. Ammo, bu mavzuni yoritib berishda turlicha yondashganlar, o'ziga xos syujet tizimini, o'ziga xos ifoda yo'sinini yaratganlar.
3. Chexov va Mensfild yuqorida nomlari keltirilgan hikoyalarida qo'rquvni, ayrim insonlarninig ma'naviy tubanligini, soddalikni, irodasizlikni va buning natijasida insonning ishonchi poymol bo'lishini tasvirlaganlar. Qahhor esa tutqunlikda yashashdan qo'rqish, erkinlik uchun kurashish, irodalilikni, qat'iyatlilikni va ruhan bo'lsa-da ozodlikka erishishni tasvirlagan.
4. Shu o'rinda filologiya fanlari nomzodi G. T Garipovanning shu xususdagi fikrlarini keltirib o'tamiz: “Chexov ijtimoiy-ruhiy determinizmning quyidagi tartibini qo'llaydi: “araz – anglashilmovchilik – qo'rquv - erksizlik”. A.

- Qahhor, A. Chexovdan farqliravishda, falsafiy va ijtimoiy-ruhiy determinizmning birmuncha boshqacha tizimini yaratadi: “erksizlik – tutqunlik qoʻrquvi – oʻlim qoʻrquvi – oʻlim”.
5. Uchala yozuvchi ham hikoyalari tabiat hodisalari yoki atrof-muhitni tasvirlaganlarida, bunga oid detallarni ramziy maʼnoda ifodalashga harakat qilganlar. Masalan, shamol, tuman, soya kabi.
 6. Bu bobimizning ikkinchi qismida Mensfeld va Chexovning yana bir asari “Спать хочется” va “ The child who was tired ” (Toliqqan bola) hikoyasi ustida qiyosiy tahlil olib bordik. Ushbu ikki hikoyaning oʻxshash va farqli jihatlarini aniqladik.
 7. Fikrimizcha bu ikki hikoya juda oʻxshash boʻlib, uning bir- biridan farq qiluvchi tomonlari deyarli yoʻq. Hikoyadagi baʼzi bir elementlardagina biroz farq qiladigan jihatlarini koʻrishimiz mumkin. Masalan, hikoyadagi bosh qahramonlarning qanday nomlanganida, ikki hikoyada qoʻllanilgan ayrim iboralar va qahramonlar uxlab qolganda koʻradigan tushida.
 8. Bu ikki hikoya oʻxshashligi xususida bir qancha olimlar bahs-munozara olib borganlar. Bulardan Shneyder Mensfeldni plagiatda, yaʼni Chexovning shu mazmundagi hikoyasidan koʻchirganlikda ayblaydi, Alpers esa buni inkor etib, bu hikoya oʻziga xos uslubda yozilganligini va Mensfeld Chexov ijodi bilan tanishguniga qadar oʻz ijod yoʻlini topib olganligini taʼkidlaydi.
 9. Chexov va Mensfeldning bu hikoyalari mazmun jihatdan deyarli bir xil boʻlib, bu xususda olimlar bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar hamda bahs munozaralar olib borishmoqda. Ammo, izlanishimizga koʻra Mensfeld hikoyasini chexovnikidan koʻchirib yozilgan, deb hisoblagan olimlar miqdori koʻpchilikni tashkil etadi.
 10. Ilmiy izlanishimiz jarayonida Qahhor ijodida Chexovning “ Спать хочется” va Mensfeldning “ The child who was tired ” hikoyasiga oʻxshash hikoya uchratmadik va buning boisini har bir millat yozuvchisining

mentalitetida deb bildik. Chunki, bu ikki hikoyada balogʻatga yetmagan bola ayovsiz ishlashga mahkum qilinadi. Qahhor oʻzbek yozuvchisi boʻlganligi uchun bu mavzuda hikoya yozmaydi, chunki bolajonlik oʻzbek mentalitetiga xosdir. Undan tashqari har bir ijodkor oʻz asarlarida millatining dardini, qaygʻusini yoritadi. Oʻzbek xalqi hayotida bunday muammo dolzarb boʻlmaganligi sababli ham A. Qahhor mazkur mavzuga eʼtibor qaratmagan.

11. Ilmiyizlanishlarimiz va hikoyalarning qiyosiy tahlillari natijasida shunday xulosaga keldikki, bu uchala yozuvchining ijodida bir-biriga mutanosib xususiyatlar mavjud. Ammo, shunga qaramasdan, ularning har birlari oʻziga xos badiiy ifoda yoʻnalishiga, syujet va obraz yaratish tamoyiliga egaligi bilan adabiyotda, ayniqsa, hikoyanavislikda oʻchmas iz qoldirganlar.

YAKUNIY XULOSA

Biz ushbu “Ingliz, o’zbek va rus hikoyalarida ijtimoiy hayot tasviri (Ketrin Mensfild, Abdulla Qahhor, A. Chexov hikoyalari misolida)” mavzuidagi magistrlik dissertatsiyamizda hikoyaning janriy xususiyatlari, uning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari borasida uch adabiyot: o’zbek, rus va ingliz adabiyotini qiyoslash yo’li bilan fikr yuritishga harakat qildik. Izlanishlarimiz jarayonida ularning o’xshash, farqli jihatlarini aniqlash, uch adabiyotning bir-biri bilan munosabati, aloqasi va adabiy ta’siri masalalarini izohlash, talqin etish yo’lidan bordik. Hikoyaning janriy xususiyatlarini, ilmiy-nazariy mohiyatini yoritishda ham yozuvchilar, ham adabiyotshunoslar nuqtai nazarini o’rganishga va ularni solishtirish orqali yakuniy xulosalar chiqarishga imkonimiz darajasida urindik. Unga ko’ra :

Hikoya bu- epik turning kichik janrlaridan biri hisoblanib, hayotdagi muhim, tanlangan voqea va hodisalar qisqa shaklda bayon etiladigan nasriy asardir. Unda aniq maqsad qisqa, lo’nda bayon qilinadi. Xulosa, ko’pincha, o’quvchi hukmiga havola etiladi.

O’zbek adabiyotida hikoyaning ilk namunalarini O’rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida voqea ishtirokchilari tomonidan bayon etilgan ko’rinishini uchratamiz (5 – 7 – asrlar).Keyinroq yaratilgan Rabg’uziyning “ Qissasi Rabg’uziy ” (14-asr) asarida, Navoiyning “ Hayrat ul-abror ”, “ Sabba’i sayyor ” (15-asr), Poshshoxojaning “ Gulzor ”, “ Miftoh ul-adl ” kabi asarlarida ham hikoyaning noyob namunalarini uchratamiz.

Rus adabiyotida hikoyaning noyob namunalari yaratilishi bilan birga, B.T. Belinskiy, B. Tomashevskiy kabi adabiyotshunos olimlar uning nazariy, ilmiy xususiyatlarini ham aniqlashtirib, talqin va tadqiq etib berishgan.

A.P. Chexov jahon adabiyoti hikoyachiligida muhim ijodiy maktab yaratgan ijodkor. Buni dunyo adabiyoti vakillari tan oladi va e’tirof etadi. Jumladan, A.Qahhor ijodi ham bundan mustasno emas. Hozirgi zamonaviy hikoyachilikni

ham Chexov ijodiy maktabidan bahramandligini sezish va alohida ta'kidlash mumkin.

Ingliz adabiyotida ham hikoya janrining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Charles Mey hikoya janrining ingliz adabiyotidagi taraqqiyot bosqichlarini aniqlaydi, o'z tadqiqotlarida batafsil ma'lumot beradi. Uning fikricha, hikoya janri ildizlari Renessans davriga borib taqaladi. Bibliya va Qur'on kitoblaridagi hikoyatlarda ham uning janriy xususiyatlari kuzatilishini e'tirof etadi. Ammo, 14-asrda yashab ijod etgan Bokachcho va Chouserlar yaratgan hikoyalar, janrning tipik namunalari ekanligini ta'kidlab o'tadi.

19-asrda Hofman, Gogol, Edgar Alan Po, O.Genri, G. Jeyms hikoyalari janrni mukammal bosqichga ko'targan bo'lsa, 20-asrda Heminguey Chexovona ijodiy uslubda yaratgan hikoyalari bilan o'quvchilarni xushnud qiladi. Zamonaviy hikoyachilikda Virjiniya Vulf, Nadin Gordimer kabilarning nomlari muhim ahamiyatga ega.

Hikoya janri xususidagi I bobda bir qancha ingliz hikoyanavislarining asarlari va fikrlarini kuzatdik. Ular o'zlarining hikoyalari bilan janrni nazariy jihatdan takomillashtirish imkoniyatini yaratdilar. Bu bilan ular janr taraqqiyotiga ulkan hissalarini qo'shdilar.

Dissertatsiyamizning ikkinchi bobida esa ingliz, rus, o'zbek adabiyotida kichik hikoya janrida ijod qilgan hamda uni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan uchta buyuk hikoyanavis, ya'ni rus adabiyotida A.P. Chexov, ingliz adabiyotida Ketrin Mensfild va o'zbek adabiyotida Abdulla Qahhorning hayot va ijod yo'llarini kuzatdik. Izlanishimiz jarayonida bu uch yozuvchining hikoyalari, ularning o'xshash va farqli jihatlari, har birining hikoya yozish uslublari, hikoyalarida ilgari surilgan mavzu va muammolarni, ularning ijodlari to'g'risidagi adabiyotshunoslar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinchiklab o'rgandik.

Jumladan :A.P. Chexov ijodi davomida jamiyatning juda ko'p muammolarini ochib beruvchi hikoyalar yaratdi va bu hikoyalarni satira, ya'ni hajviy usulda yoza bildi. Shu sababli ham uning hikoyalari tabiiy, ta'sirli chiqib, omma e'tiborini tez jalb etardi va bugungi kunda ham uning hikoyalari sevib o'qiladi.

Abdulla Qahhor ham o'zbek adabiyotida o'z hikoyalari bilan kichik hikoya janrini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. U hikoya yozish bilangina cheklanmay, balki hikoya janrini nazariy jihatdan ham o'rganib, ilmiy izlanishlar olib borgan. Abdulla Qahhor ijodida Chexov an'analarini davom ettiradi, hatto uning o'zi ham Chexovni ustoz sifatida ta'kidlagan. Shu sabab ham adibning bir qancha "Dahshat ", " Millatchilar " kabi Chexovona yo'nalishda yaratilgan noyob hikoyalari mavjud.

Ketrin Mensfild o'zi Yangi Zelandiyalik bo'lsa-da, ingliz adabiyotida kichik hikoya janrining rivojiga beqiyos hissasini qo'shgan. U ham realizm oqimida ijod qilib, ko'proq ijtimoiy-psixologik yo'nalishda hikoyalar yaratgan. Uning ijodi xususida ko'p ingliz olimlari, yozuvchilari, jumladan Virjiniya Vulf, Alpers kabilar ko'plab ijobiy fikrlarni bildirib o'tganlar.

Chexov, A.Qahhor, K.Mensfild yozgan hikoyalar bir-biriga juda o'xshash.Buning boisi Qahhor ham, Mensfild ham Chexovni o'zlariga ustoz deb bilganlari va uning hikoya yozish mahorati sirlarini o'rganganliklaridadir.Ularning ikkalasi ham uni o'zlariga g'oyibona ustoz deb biladilar. Uning kichik hikoyalaridagi teranlikni, ko'pma'nolilik sirlarini, badiiy tasvirdagi mahorat qirralarini mehr bilan o'rganadilar. Undan ta'sirlanib o'ziga xos, noyob badiiy uslub mezonlarini o'zlashtiradilar. Shu sababli ularning ayrim hikoyalaridagi cyujet chizig'ida, obrazlar xarakteri va badiiy tasvir yo'sinida mushtaraklikni kuzatamiz. Masalan, " Dahshat " va " Юннаягувернантка", " Nurli cho'qqilar " va " New dresses " kabi.

Ilmiy ishimizning so'nggi bobida esa A.P. Chexov, K. Mensfild va A. Qahhor ijodidagi o'xshash hikoyalarni qiyosiy tahlil qildik. Ilmiy tadqiqotimiz jarayonida ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqladik. Shu jumladan, “Страх”, “Dahshat” va “The little governess” (Yunnaya Guvernantka) hamda “Спать хочется” va “The child who was tired” (Девочка, которая устала) hikoyalarini keltirishimiz mumkin va bu hikoyalar xususida quyidagi xulosalarga keldik :

“Страх”, “Dahshat”, “The little governess” (Yunnaya guvernantka) hikoyalari uchun uchala yozuvchi ham bir xil mavzu, ya'ni qo'rquv va ishonchsizlik mavzusini tanlaganlar. Ammo, bu mavzuni yoritib berishda turlicha yondashganlar.

Qahhor bu hikoyada tutqunlikda yashashdan qo'rqish, erkinlik uchun kurashish, irodalilikni, qat'iyatlikni va ruhan bo'lsa-da ozodlikka erishishni tasvirlagan. Chexov va Mensfild esa yuqorida nomlari keltirilgan hikoyalarida qo'rquvni, ishonuvchanlikni, soddalikni, irodasizlikni va buning natijasida insonning ishonchi poymol bo'lishini tasvirlaganlar.

Uchala yozuvchi ham hikoyalarida tabiat hodisalari yoki atrof-muhitni tasvirlaganlarida, bunga oid detallarni ramziy ma'noda ifodalashga harakat qilganlar. Masalan, shamol, tuman, soya kabi.

Mensfild va Chexovning yana bir asari “Спать хочется” va “The child who was tired” (Toliqqan bola) hikoyasi ustida qiyosiy tahlil olib bordik. Fikrimizcha, bu ikki hikoya juda o'xshash bo'lib, uning bir-biridan farq qiluvchi tomonlari deyarli yo'q. Hikoyadagi ba'zi bir elementlardagina biroz farq qiladigan jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, hikoyadagi bosh qahramonlarning qanday nomlanganida, ikki hikoyada qo'llanilgan ayrim iboralarda va qahramonlarning tushida.

Chexov va Mensfildning bu hikoyalari mazmun jihatdan deyarli bir xil bo'lib, bu xususida olimlar bugungi kunda ham bahs munozaralar olib borishadi.

Ammo, izlanishimizga ko'ra Mensfild hikoyasini Chexovnikidan ko'chirib yozilgan, deb hisoblagan olimlar miqdori ko'pchilikni tashkil etadi.

Ilmiy izlanishimiz jarayonida Qahhor ijodida Chexovning “ Спать хочется” va Mensfildning “ The child who was tired ” hikoyasiga o'xshash hikoya uchratmadik va buning boisini har bir millat yozuvchisining mentalitetida deb bildik.

Ilmiy izlanishlarimiz va hikoyalarning qiyosiy tahlillari natijasida shunday xulosaga keldikki, bu uchala yozuvchining ijodida bir-biriga mutanosib xususiyatlar mavjud. Ammo, shunga qaramasdan, ularning har birlari o'ziga xos badiiy ifoda yo'nalishiga, syujet va obraz yaratish tamoyiliga egaligi bilan adabiyotda, ayniqsa, hikoyanavislikda o'chmas iz qoldirganlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор - маънавиятга, келажакка эътибор. – рисола. 2009
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008

Ilmiy adabiy manbalar

4. Дюришин, Д. Теория сравнительного изучения литературы[1972] / Пер. со словац. / Д.Дюришин. - М., 1979.
- 5.Чехов А.П. Рассказы/ {Сост., вступит. ст. И. Гурвича}.- Т.: Укитувчи, 1987.- 288 с, 1 л. портр. Ст-9
- 6.А.П. Чехов. Избранные Произведения. Ташкент-1954. 484с. Ст-442
- 7.Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya.- Т.:Adabiyotvasan'atnashriyoti,1988. 232 b. 85-bet.
8. Л. Володарская. Кетрин Менсфилд и ее рассказы. Ст.: Кетрин Менсфилд. Рассказы. Перевод с англ. Москва. Книга. 1989, стр.13
- 9..П. Чехов. Страх. Ст.: А.П.Чехов. Рассказы. Стр.357
- 10.Dilmurod Quronov. Ilhom bilan yozilgan asar. Qarang: "Jahonadabiyoti" jurnali. 2007-№ 5.
- 11.Г.Т. Гарипова. Сравнительный анализ рассказов А. Чехова "Страх" и А. Каххара "Страх". Ст.: Журнал "Преподавание языка и литературе", . 2012, № 8, стр. 40.
- 12.Абдулла Қаҳҳор. Муҳаббат.Тошкент,Янги аср авлоди, 2014,6-7-бет
- 13.См.Гольденвейзер А.Б. Вблизи Толстого. – М. 1959. – С. 68.
- 14.Страницы о Чехове в английских исследованиях по истории и теории литературы. Обзор Стивена Ле Флеминга (Англия). Перевод Светланы Ле Флеминг под редакцией М.А. Шерешевской
- 15.Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti. Adabiyotshunoslik Nazariyasi Fanidan Ma'ruzalar matni.271-bet. Samarqand. 23.
- 16.Berkman S. Katherine Mansfield: a critical study. New Haven: Yale UP, 1951

17. Alpers A. Katherine Mansfield: a biography. New York: A.A. Knopf, 1953.
18. Meyers J. Katherine Mansfield: a biography. New York: New Directions Pub. Corp., 1980
19. Tomalin C. Katherine Mansfield: a secret life. New York: Knopf, 1988
20. Kirkpatrick B.J. A bibliography of Katherine Mansfield. Oxford: Clarendon Press; New York: Oxford UP, 1989
21. Kobler J.F. Katherine Mansfield: a study of the short fiction. Boston: Twayne Publishers, 1990
22. Kaplan S.J. Katherine Mansfield and the origins of modernist fiction. Ithaca: Cornell UP, 1991
23. Critical essays on Katherine Mansfield/ Ed. by Rhoda B Nathan. New York: G.K. Hall; Toronto: Maxwell Macmillan Canada ; New York: Maxwell Macmillan International, 1993
24. Burgan M. Illness, gender, and writing: the case of Katherine Mansfield. Baltimore: Johns Hopkins UP, 1994
25. Moran P. Word of mouth: body language in Katherine Mansfield and Virginia Woolf. Charlottesville: University Press of Virginia, 1996
26. Smith A. Katherine Mansfield and Virginia Woolf a public of two. Oxford: Clarendon Press; New York: Oxford UP, 1999
27. Smith A. Katherine Mansfield: a literary life. Houndmill; New York : Palgrave, 2000
28. Katherine Mansfield's men// Ed. by Charles Ferrall, Jane Stafford. Wellington: Katherine Mansfield Birthplace Society; Steele Roberts Publishers, 2004
29. Вулф В. Мучительно тонкая душа// Она же. Избранное. М.: Художественная литература, 1989
30. Повель Л. Мсье Гурджиев. М.: Энигма, 2006
31. А.Н. Веселовский и сравнительное литературоведение [1939-1940]; Литературные течения как явление международное [1867]

32. May, Charles E., The Short Story: The Reality of Artifice, New York and London: Routledge (2002)

34. Shukur Xolmirzayev “ Hikoya haqida ” Sharq yulduzi jurnali, 1971-yil, 1-son.

35. Абдулла Қаххор. Асарлар. Беш жилдлик. 5-жилд, Тошкент, 1989, 21-24-бетлар (22-б.).

36. Saydulla Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005.

А.Қаххор. Асарлар. Т.: 1989, 5-жилд, 22-бет

37. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. - Л., 1979.

Жирмунский В. М.. Сравнительное литературоведение. Ленинград, Наука, 1979

38. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. –Т.: –1980. –307б.

39. Конрад, Н.И. К вопросу о литературных связях/ Н.И.Конрад// Конрад Н.И. Запад и Вос-ток. – М., 1966.

40. М.К. Нурмухамедов, Адбиёт назарияси, биринчи том. Тошкент, Фан, 1978.

41. Пospelов, Г.Н. Стадиальное развитие европейских литератур/ Г.Н.Пospelов. - М., 1988.

42. Самарин Р.М. О современном состоянии сравнительного изучения литератур в зарубежной науке. В кн.: Взаимосвязи и взаимодействие национальных литератур. – М.: 1961

43. Т.Бобоев. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, Ўқитувчи, 2002.

44. Тимофеев А.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1976

45. Урнов Д., Урнов М. Литература и движение времени. – М.: Художественная литература, 1978

46. Худайбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т.: «Ўқитувчи». 1995. – 270б.

47. Чернец, Л.В. Литературные жанры(проблемы типологии и поэтики) / Л.В.Чернец. - М., 1982. [Ч. I: «Типология жанров и литературный процесс».]

Lug'atlar va ensiklopediyalar

48. Gale Contextual Encyclopedia of American Literature. 2009, Gale. USA
49. The American Heritage® Dictionary of the English Language, 5th edition
Copyright © 2013 by Houghton Mifflin Harcourt Publishing Company. Published
by Houghton Mifflin Harcourt Publishing Company.
50. Oxford companion to English literature. Margaret Drabble. Oxford University
press. 2000
51. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. Chris Baldick. Oxford
University PRESS 2001 291 p p 236
- Webster's New World College Dictionary Copyright © 2010 by Wiley Publishing,
Inc., Cleveland, Ohio.
52. Н.Хатамов, Б.Саримсоқов. Адабиётшунослик терминларининг русча-
ўзбекча изоҳли луғати

Internet manbalar

53. Биография Кэтрин Мэнсфилд. [http: //elenakuzmina.blogspot.com/](http://elenakuzmina.blogspot.com/)
54. Ю.А. Бельчиков. Авторское повествование в рассказе А.П. Чехова “Спать
хочется” . 2008. <http://portalus.ru>
55. <http://www.bookcouncil.org.nz/writers/mansfieldk.html>
56. New Zealand Book Council/ Mansfield, Katherine [http: // www. vuw. ac.
nz/ nzbookcouncil/ writers/ mansfieldk. htm](http://www.vuw.ac.nz/nzbookcouncil/writers/mansfieldk.htm)
57. <http://www.merriam-webster.com/dictionary/short%20story>
58. <http://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/anton-chexov-sanat-asari.html>
59. http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=685
60. <https://daryo.uz/2013/05/24/ozbekiston-xalq-yozuvchisi-otkir-hoshimov>
61. [http://tarix.uz/buyuk-shaxslar wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor](http://tarix.uz/buyuk-shaxslar-wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor)
62. http://az.lib.ru/b/belinskij_w_g/text_1370.shtml
63. https://en.wikipedia.org/wiki/Jack_London
64. <http://forum.kitob.uz/index.php?topic=1751.30>

- 65. <http://www.britannica.com/art/short-story>
- 66. https://uz.wikipedia.org/wiki/Chexov_Anton_Pavlovich
- 67. http://users.aber.ac.uk/jpm/ellsa/ellsa_elements.html
- 68. <http://study.com/academy/lesson/short-stories-definition-characteristics-examples.html>
- 69. <http://cheloveknauka.com/mezhkulturnye-svyazi-novoy-zelandii-i-rossii-ketrin-mensfild-i-russkaya-kultura>
- 70. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor
- 71. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Hikoya>